Yuqorida bildirilgan fikrlardan shuni aytish mumkinki, buxgalteriya hisobi standartlari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir minimal talablari, uni tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishga doir maxsus talablarni bajarishni belgilab beradi. Ushbu masala aksiyadorlik jamiyatida yanada muhim ahamiyatga egaligi va ularning aksiyalarini jahon fond birjalariga joylashtirilishi uchun beriladigan axborot va moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga moslab taqdim etishning zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xorijiy mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini reyting baholash usullarining samaradorligi, albatta, aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan qo'yilgan reyting natijalariga muvofiq qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi yo'llari orqali ifoda etiladi.

Korxonalar ma'muriyati uchun hisobotlardan foydalanishdagi asosiy manfaat ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat samaradorligini aniqlash va shuningdek boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilishni iqtisodiy asoslash hisoblanadi. Ma'muriyat uchun asosiy axborotlar manbai sifatida korxonaning ichki hisobotlari va moliyaviy hisobotlar tizimi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi 2016 yil 13 aprelda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun (yangi tahriri) va buxgalteriya hisobi milliy standartlariga asoslanib tashkil qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining xususiyatini hisobga olib, qanday vazifada yuritilishi- dan qat'iy nazar buxgalteriya hisobini va nazoratini yurituvchi va tashkil etuvchi shaxs to'liq «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun (yangi tahriri)da ko'rsatilgan xuquq va vazifalarni bajaradi. Korxonalar faoliyati to'g'risida belgilangan muddatlarda hisobotlarni tuzib, ta'sischi tegishli tashkilotlarga taqdim etib turadi. Buxgalteriya kichik korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish, tashkil qilish va moddiy, mehnat, hamda moliyaviy resurslardan tejamli unumli foydalanish mulkning butligi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

1. Belgilansinki, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o'tishning ertaroq mud-datlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno;

Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda MHXSga muvofiq tayyorlaydigan tadbirkorlik sub'ektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etiladi. Demak aksiyadorlik jamiyatlari 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida taqdim etadi.

Xalqaro hisob tizimini joriy qilishda eng avvalo aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish va yuritish, uni xalqaro hisob tizimiga moslab tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Chunki u aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari fond birjalari orqali chet ellik investorlarga sotishda moliyaviy hisobot shakllari xalqaro amaliyotda qabul qilingan tartibda tashkil etish muhim hisoblanadi. Buning uchun esa buxgalteriya xodimlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni asosiy tamoyillari va uslubiy asoslari to'g'risida yetarli darajada tushuncha va bilimlarga ega bo'lishlari zarur.

Buxgalteriya hisobi aksiyadorlik jamiyatlari mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarining harakatini ko'rsatadi. U aksiyadorlik jamiyatlarning operatsiyalari ustidan yoppasiga va uzluksiz kuzatish olib borish, kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarni o'lchash va hujjatlarda qayd qilish hamda ularni yagona bir o'lchovda, ya'ni pulda ifodalab umumlashtirish tizimidan iboratdir. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanagan holda korxonaning aktiv va passiv operatsiyalari rejalashtiriladi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Ushbu yuqoridagi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash jarayonini tahlil qilish va uni amaliyotga joriy etish tizimini o'rganish asosida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1) Eng avvalo turli davlatlarda tashkil etilgan hisob tizimini tahlil qilish natijasida jahon hamjamiyatida qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotlarni halqaro standartlariga moslashtirish, ayniqsa kompaniya va firmalar moliyaviy ko'rsatkichlariga baho berishda va ularning halqaro miqyosda harakat qilishida va muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ham O'zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotga qo'llashning ishchi rejasi va uning ketma-ketlik dasturini ishlab chiqish lozim.

2. Xalqaro standartlar bo'yicha sezilarli ta'sir mavjud bo'lgan chog'idagi (shu'ba kompaniyalariga oid) investitsiyalar hisobi aksiyadorning xo'jalik yurituvchi sub'ekt kapitalidagi ulushi hajmini hisobga oluvchi usul bo'yicha amalga oshirilganda quyidagi holatlar mustasno bo'lishi lozim deb o'ylaymiz:

- agar kapital qo'yilmalar faqat yaqin kelajakda, ya'ni keyingi navbatdagi sotilishi uchun amalga oshirilsa yoki saqlansa;
  - investor sezilarli ta'siridan boshqa foydalanmaganda;
- sho'ba kompaniya o'z faoliyatini qat'iy cheklashlar sharoitida amalga oshirganida buxgalteriya hisobining o'ziga xos jihatlari vujudga keladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalkaro moliyaviy hisobot standartlari: Darslik /A.A.Karimov, A.K. Ibragimov, N.K. Rizaev, N.M. Imamova  
- T.: «Iqtisod-Moliya», 2020 - 392 b.B.34-36.
2. Trofimova L.B. Mejdunarodnye standarty finansovoy otchetnosti. Uchebnik, Izdatelstva "Yurayt" 2018., -242s. S.29-10.
3. Mamatov B. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish muammolari.//“Soliq solish va buxgalteriya hisobi” jurnali №11-son, 2015 yil, 15b.
4. Qurbanov Z.N., Akramov F.A.Asosiy vositalarni MHXS asosida yuritish.//“BIZNES-EKSPERT” jurnali №4- son, 22.05.2015 yil
5. [WWW.iasc.org.com](http://WWW.iasc.org.com) saytidan olingan.
6. O'zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi” Qonun(yangi tahriri). Mazkur tahrir O'zR 13.04.2016 y.O'RQ-404-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
7. Vazirlar Maxkamasi 1994 yil 24 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob yuritish va statistika tizimiga o'tish davlat dasturi to'g'risida»gi 433-qarori.// Norma uz dasturi.
8. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. // Norma uz dasturi.

## OSHQOZONNING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI. NORMADA VA PATOLOGIYADA OSHQOZON SHIRASINING TARKIBI

*G'aniyeva Sevara Avazbek qizi va G'aybullayeva Durdon Qoxir qizi*

*Toshkent shahar Olmazor tumani Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 1-Davolash  
fakulteti 311-b guruh talabalari*

Me'da shirasi — me'da (oshqozon) shilliq pardasining turli bez hujayralaridan ishlanib chiqadigan ovqat hazm qilish shirasi; rangsiz, tiniq, nordon suyuklik. Unda xlorid kislota va bir qator mineral tuzlar, shuningdek, fermentlar (asosan, pepsin va boshqalar) bor. Odam me'da shirasidagi xlorid kislota konsentratsiyasi 0,4—0,5% ga teng. Xlorid kislota ovqatni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. U ovqat luqmalarini namlab yumshatadi, Me'da shirasining fermentlarini faollashtiradi, mikroorganizmlarni o'ldiradi, me'da osti bezining fermentlar ishlab chiqarishini kuchaytiradi, ovqat hazm qilish gormonlarining hosil bo'lishiga yordam beradi. Me'da shirasidagi xlorid kislota miqsdori "kislotalilik" degan tushuncha bilan yuritiladi. Kislotalilik hamma vaqt bir xil bo'lmaydi, u shira ajralishining tezligiga, ishqoriy reaksiyaga ega bo'lgan me'da shillig'ining neytrallash ta'siriga bog'liq; ovqat hazm qilish sistemasi a'zolarining kasalliklarida ham kislotalilik o'zgaradi. Ma'lumki, me'da bezi hujayralari asosiy, qoplovchi va qo'shimcha hujayralarga bo'linadi, ularning har qaysi guruhi shiraning ma'lum bir tarkibiy qismini ishlab chiqaradi. Qo'shimcha xujayralar Me'da shirasini qovushqoq qiluvchi shilliq ajratadi, ana shu shilliq xlorid kislotani neytrallaydi va Me'da shirasining kislotaliligini kamaytiradi, shilliq pardani ta'sirlardan saklaydi va me'daga tushgan oziq mahsulotlarni o'zlashtirishda ishtirok etadi. Me'da shirasi tarkibida fermentlar, shilliq va xlorid kislotadan tashqari, bir qator organik va anorganik moddalar, shuningdek, ingichka ichakda vitamin V<sub>12</sub> ning so'rilishini ta'minlaydigan Kasl faktori deb ataluvchi maxsus modda bo'ladi; u ko'mikda qizil qon tanachalari (eritrotsitlar)ning normal yetilishi uchun zarur. Me'da, ichak, jigar, o't pufagi hamda qon kasalliklarida, shuningdek, ruhiy hayajonlanish va qayg'u ta'sirida ham Me'da shirasining miqdori va tarkibi o'zgarishi mumkin. Me'da shirasini zond bilan olib tekshirish diagnostik ahamiyatga ega. Me'da osti bezi shirasining - bir suyuklik oshqozon osti bezi tomonidan ishlab chiqarilgan. U ishqoriy, ochiq-oydin, rangsiz suyuklik eslatadi. bez qorin pardaning orqasida joylashgan, va bel umurtqasi 1 va 2 da omurgaya ilova qilinadi. Taxminan, bir kattalar uchun, uning ommaviy 80 gramm, va 22 sm uzunligi. Me'da osti bezi bir bosh, tana va dumi bor. Bu bezli to'qima va siydik yo'llaridagi iborat. o'n ikki barmoqli ichak ichiga so'nggi yutuqlar me'da osti bezi shirasining ko'ra. uning nima qismi va tanasining vazifasi nima? Bu endi va muhokama qilinadi.



me'da osti bezi shirasining tarkibi quyidagi komponentlarini o'z ichiga oladi:  
kreatinin;  
Urik kislota;  
karbamid;  
turli mikroelementlarni.

Kuniga bir kishi me'da osti bezi shirasining haqida 1,5-2 litr ishlab chiqarilgan. Yuqumli asab va endokrin tizimlar nazorat qiladi. o'tkir va surunkali pankreatit bosqichi rivojlanayotgan temir ajratadi me'da osti bezi shirasining bir qator bilan. bir shaxsning sekretiya etishmasligi bilan ortib borayotgan bir ishtahani ega bo'lsa-da, tez kilogramm yo'qotadi, va ko'p eydi. Bu oziq-ovqat, yomon organizmda hazm qilinadi, deb aslida tufaylidir. me'da osti bezi shirasi ovqat hazm muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, asosan, topgan suv o'z ichiga oladi. Shunday qilib, taxminan 98 foizi unga va qolgan organik komponentlar 2 foiz.

Me'da Osti Bezi Shirasining: tarkibi, vazifasi xususiyatlari.

Me'da osti bezi shirasining - bir suyuqlik oshqozon osti bezi tomonidan ishlab chiqarilgan. U ishqoriy, ochiq-oydin, rangsiz suyuqlik eslatadi. bez qorin pardaning orqasida joylashgan, va bel umurtqasi 1 va 2 da omurgaya ilova qilinadi. Taxminan, bir kattalar uchun, uning ommaviy 80 gramm, va 22 sm uzunligi. Me'da osti bezi bir bosh, tana va dumi bor. Bu bezli to'qima va siydik yo'llaridagi iborat. o'n ikki barmoqli ichak ichiga so'nggi yutuqlar me'da osti bezi shirasining ko'ra. uning nima qismi va tanasining vazifasi nima? Bu endi va muhokama qilinadi. Me'da osti bezi shirasining tarkibi quyidagi komponentlarini o'z ichiga oladi:

kreatinin;  
Urik kislota;  
karbamid;  
turli mikroelementlarni.

Kuniga bir kishi me'da osti bezi shirasining haqida 1,5-2 litr ishlab chiqarilgan. Yuqumli asab va endokrin tizimlar nazorat qiladi. o'tkir va surunkali pankreatit bosqichi rivojlanayotgan temir ajratadi me'da osti bezi shirasining bir qator bilan. bir shaxsning sekretiya etishmasligi bilan ortib borayotgan bir ishtahani ega bo'lsa-da, tez kilogramm yo'qotadi, va ko'p eydi. Bu oziq-ovqat, yomon organizmda hazm qilinadi, deb aslida tufaylidir. me'da osti bezi shirasi ovqat hazm muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, asosan, topgan suv o'z ichiga oladi. Shunday qilib, taxminan 98 foizi unga va qolgan organik komponentlar 2 foiz.

organik va noorganik: me'da osti bezi shirasining fermentlar ikki guruhga bo'linadi. Organik o'z chiga oladi:

qilingan kimotripsin shunga;  
TRIP;  
fosfolipaz;

elastaz;

karboksipeptidaz va hazm jarayonida oqsillar, yog'lar va uglevodlar yopishib mulkini ega zymogens shaklida boshqa fermentlar,.

noorganik fermentlarni tomonidan o'z ichiga oladi:

amilaz;

maltase;

laktaz;

lipaza.

Ovqat hazm qilish organlariga og'iz, qizilo'ngach, oshqozon va ichak kiradi. Oshqozon osti bezi va jigar ovqat hazm qilishda ishtirok etadi. Ovqat hazm qilish organlari prenatal davrning dastlabki 4 xaftasida yotqiziladi, homiladorlikning 8 xaftaligida ovqat hazm qilish organlarining barcha bo'limlari aniqlanadi. Homiladorlikning 16-20 xaftaligida homila amniotik suyuqlikni yuta boshlaydi. Ovqat hazm qilish jarayonlari homilaning ichaklarida sodir bo'ladi, bu yerda asl najas to'planishi - mekonium hosil bo'ladi. Bolalarda og'iz bo'shlig'ining xususiyatlari Tug'ilgandan keyin bolada og'iz bo'shlig'ining asosiy vazifasi so'rish harakatini ta'minlashdir. Bu xususiyatlar: og'iz bo'shlig'ining kichikligi, katta til, lablar va chaynash muskullarining yaxshi rivojlangan mushaklari, lablar shilliq qavatida ko'ndalang burmalar, tish go'shtining tizmasimon qalinlashishi, yog' bo'laklari mavjud. (Bish topaklar) yonoqlarda, yonoqlarga elastiklik beradi. Tug'ilgandan keyin bolalarda tuprik bezlari yetarli darajada rivojlanmagan; birinchi 3 oy ichida ozgina tupurik ajralib chiqadi. Tuprik bezlarining rivojlanishi 3 oyligida tugaydi. Qizilo'ngachning xususiyatlaribolalarda Yosh bolalarda qizilo'ngach shpindelsimon, tor va qisqa. Yangi tug'ilgan chaqaloqda uning uzunligi atigi 10 sm, 1 yoshli bolalarda - 12 sm, 10 yoshda - 18 sm, kengligi 7 yoshda mos ravishda 8 mm, 12 yoshda esa 15 mm. . Qizilo'ngachning shilliq qavatida bezlar yo'q. U yupqa devorlarga ega, mushak va elastik to'qimalarning yomon rivojlanishi va yaxshi qon ta'minoti mavjud. Qizilo'ngachning kirish joyi baland joylashgan. Uning fiziologik siqilishlari yo'q. Oshqozonning xususiyatlaribolalarda Go'daklik davrida oshqozon gorizontal holatda joylashgan. Bolaning yura boshlagan davrida bolaning o'sishi va rivojlanishi bilan oshqozon asta-sekin vertikal holatni egallaydi va 7-10 yoshga kelib u kattalardagi kabi joylashadi. Oshqozonning sig'imi asta-sekin o'sib boradi: tug'ilishda 7 ml, 10 kunlik - 80 ml, yiliga - 250 ml, 3 yoshda - 400-500 ml, 10 yoshda - 1500 ml.  $V = 30 \text{ ml} + 30 \times n$ , bu yerda n - oylardagi yosh. Bolalardagi oshqozonning o'ziga xos xususiyati pilorik bo'limning yaxshi rivojlanishi fonida uning tubi va yurak sfinkterining zaif rivojlanishidir. Bu bolada tez-tez regürjitatsiyaga yordam beradi, ayniqsa emizish paytida havo oshqozonga kirsa. Oshqozonning shilliq qavati nisbatan qalin bo'lib, bu fonda oshqozon bezlarining zaif rivojlanishi kuzatiladi. Oshqozon shilliq qavatining faol bezlari, bolaning o'sishi bilan, kattalar holatida bo'lgani kabi, 25 marta shakllanadi

va ko'payadi. Ushbu xususiyatlar bilan bog'liq holda, hayotning birinchi yilidagi bolalarda sekretiya apparati kam rivojlangan. Bolalardagi me'da shirasining tarkibi kattalarnikiga o'xshaydi, ammo uning kislotali va fermentativ faolligi ancha past. Oshqozon shirasining to'siq faolligi past. Oshqozon shirasining asosiy faol fermenti shirdon (labenzim) bo'lib, u ovqat hazm qilishning birinchi bosqichini - sutning siqilishini ta'minlaydi. Kichkintoyning oshqozonida lipaz juda oz miqdorda chiqariladi. Bu etishmovchilik ona sutida, shuningdek, bolaning oshqozon osti bezi shirasida lipaza mavjudligi bilan qoplanadi. Agar bola sigir sutini qabul qilsa, uning oshqozonidagi yog'lari parchalanmaydi. Oshqozonda so'rilish ahamiyatsiz va tuzlar, suv, glyukoza kabi moddalarga taalluqlidir va oqsil parchalanish mahsulotlari faqat qisman so'riladi. Ovqatni oshqozondan evakuatsiya qilish vaqti ovqatlanish turiga bog'liq. Ayollar suti 2-3 soat davomida oshqozonda qoladi. Bolalarda oshqozon osti bezining xususiyatlari Oshqozon osti bezi kichikdir. Yangi tug'ilgan chaqaloqda uning uzunligi 5-6 sm ni tashkil qiladi va 10 yoshga kelib u 3 barobar ortadi. Oshqozon osti bezi qorin bo'shlig'ida X ko'krak umurtqasi darajasida, kattaroq yoshda esa I bel umurtqasi darajasida joylashgan. Uning intensiv o'sishi 14 yilgacha sodir bo'ladi. Hayotning birinchi yilidagi bolalarda oshqozon osti bezi hajmi (sm): 1) yangi tug'ilgan chaqaloq - 6,0 x 1,3 x 0,5; 2) 5 oy - 7,0 x 1,5 x 0,8; 3) 1 yil - 9,5 x 2,0 x 1,0. Oshqozon osti bezi qon tomirlari bilan ko'p ta'minlangan. Uning kapsulasi kattalarnikiga qaraganda kamroq zichroq va nozik tolali tuzilmalardan iborat. Uning chiqarish kanallari keng bo'lib, yaxshi drenajni ta'minlaydi. Bolaning oshqozon osti bezi ekzokrin va intrasekretor funktsiyalarga ega. U albuminlar, globulinlar, mikroelementlar va elektrolitlar, oziq-ovqat hazm qilish uchun zarur bo'lgan fermentlardan tashkil topgan oshqozon osti bezi sharbatini ishlab chiqaradi. Fermentlarga proteolitik fermentlar kiradi: tripsin, ximotripsin, elastaz, shuningdek, lipolitik fermentlar va amilolitik fermentlar. Oshqozon osti bezi faoliyatini tartibga solish oshqozon osti bezi shirasining suyuq qismini chiqarishni rag'batlantiradigan sekretin va o'n ikki barmoqli ichak shilliq qavati tomonidan ishlab chiqariladigan boshqa gormonga o'xshash moddalar bilan bir qatorda fermentlar sekretiyanini kuchaytiruvchi pankreozimin tomonidan ta'minlanadi. ingichka ichak. Oshqozon osti bezining intrasekretor funktsiyasi uglevod va yog 'almashinuvini tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan gormonlar sintezi tufayli amalga oshiriladi.

Fermentlarning yetarli agressiv hisoblanadi. Shuning uchun, bez hujayralari o'z-o'zini hazm oldini olish uchun TRIP ishlab chiqaradi. Inson oshqozon osti bezi uchun katta ahamiyat kasb etadi va bir qancha foydali vazifalarni amalga oshiradi. Avvalo, u oziq-ovqat hazm qilish uchun zarur bo'lgan suyuqlik ishlab chiqaradi. Bunday xususiyatlari oziq-ovqat oshqozonni kirib, u keyinchalik tana bo'ylab tarqalgan moddalar qayta. Ovqat hazm qilish me'da osti bezi shirasining nazoratni amalga oshiradi. barcha zarur fermentlarni o'z ichiga oladi hazm qilish. Bu me'da osti bezi

shirasining kislotaligi 7, pH 5 va pH 8,5 yuqorida emas kam ekanligini muhimdir. Me'da osti bezi shirasining (me'da osti bezi shirasi) oshqozon har bir oziq-ovqat xarid qilish bilan ishlab chiqarilgan va hazm jarayonida muhim bo'ladi. Me'da osti bezi shirasining yetarli raqamlar amalga turish va ovqat xazm jarayoni tez va silliq, u to'g'ri va sog'lom ovqatlanish rioya qilish zarur, achchiq, qovurilgan va yog'li ovqatlar eyish oldini olish uchun harakat qiling. Bu oziq-ovqat oshqozon osti bezi noqulay ish ta'sir qiladi ichak va oshqozon bir oshdi yuk, olib keladi. me'da osti bezi shirasining rivojlantirish uch asosiy bosqichi bor:

Brain. Bu shartli va asoslangan so'zsiz reflekslarning. shartli amalga oshirish uchun:

- oziq-ovqat ko'rish;
- uning hidi;
- taom tayyorlash jarayonini;
- mazali oziq-ovqat zikr.

Bu holda, me'da osti bezi shirasi bezi po'stlog'idan kelgan nerv impulslari ta'sirida ozod etiladi. Shuning uchun, bu jarayon shartli refleks deyiladi. Cheksiz reflektor ta'siri bilan oziq-ovqat xalkum va og'iz bo'shlig'i rag'batlantirish davomida me'da osti bezi shirasining chiqarishni o'z ichiga oladi. Brain bosqichi qisqa umr va kam sharbat ishlab chiqaradi, lekin fermentlarning katta raqam.

Oshqozon. Bu bosqich oshqozonni kirib oziq-ovqat retseptorlari rag'batlantirish asoslangan. Bu xursand neyronlarning va sekretor tolalari orqali sharbati maxsus gormon gastrin ta'siri ostida ozod qilinadi prostata kiriting. sharbati oshqozon bosqich bir oz tuz va suv va bir qancha organik fermentlar.

Ichak. Bu humoral va nerv impulslari ta'sirida o'tadi. o'n ikki barmoqli ichak va oziq moddalar to'liq hazm mahsulotlari uchun ozod oshqozon tarkibi nazorat ostida, uzatish puls ila me'da osti bezi shirasining ishlab chiqarishni boshlash, miya, keyin bezi uchraydi.

Qolgan davomida oshqozon osti bezi, me'da osti bezi shirasi ishlab chiqarish emas. ovqat paytida va undan keyin tanlash uzluksiz bo'ladi. Me'da osti bezi shirasining, miqdori, oziq-ovqat hazm qilish bilan bog'liq faoliyat, va jarayonning davomiyligi oziq-ovqat va uning tuzilishi sifatini qadriyatlar bog'liq. me'da osti bezi shirasining bir katta soni non va non mahsulotlari foydalanish bilan ishlab chiqarilmoqda. Bir oz kamroq go'sht, va juda oz sut. uchun nimasi me'da osti bezi suyuqligi, go'sht qayta ishlash va go'sht mahsulotlari, boshqa mahsulotlar bilan hosil bo'ladi kimsadan ham ishqoriy. uning tarkibi yog 'oziq sharbati foydalanishda ko'p lipaz kabi (go'sht taomlar bilan solishtirganda) uch marta bor. Ovqat hazm qilish tizimining markazi, uning qismlari miyaning ko'p qismlarida topilgan, bir murakkab tuzilishga ega. Ular barcha bir-biri bilan bog'lanadi. Ovqat hazm qilish markazi bir qancha xususiyatlar mavjud. Biz kabi ular orasida ajratish mumkin:

avtomobil assimilyatsiya va sekretor funksiyasi tartibga solish ishtirok;  
ochlik, to'qlikda va tashnalikdan signallari.

Ochlik - oziq-ovqat olimining zarurati tufayli sezgilar mavjudligidir. cheksiz shakl asab tizimi oshqozon osti bezi uzatiladi, u asoslangan. Bu kichik ovqat bir kunda besh marta taom yaxshidir. So'ngra, me'da osti bezi to'g'ri va xatosiz ishlashi bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)[1]
2. [www.liblary.uz](http://www.liblary.uz)[2]
3. Odam va uning salomatligi darsligi B. AMINOV, T. TILAVOV, O. MAVLONOV Toshkent-2014.[3]
4. Ahmedov SH.M., Eshonqulov A.E. , Bekmuhamedov A.A. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi.- [4]



ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI BO'YICHA MILLIY O'QUV  
DASTURINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

*Choriyeva Shoira Saydullo qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim tarbiya nazariyasi Boshlang'ich ta'lim*

*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida milliy o'quv dasturining didaktik imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim savodxonligini aniqlash, o'qish savodxonligini o'rgatishda uning nazariy asoslarining tahlili to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili va o'qish savodxonligi, milliy o'quv dasturi, boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim savodxonligi, o'qish savodxonligini o'rgatish va uning nazariy asoslarini

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish va xalqaro baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish rivojlanib bormoqda.

O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fani darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala o'quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam

sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish, u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea-hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi. Bu bilan o'quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini bog'lagan holda o'qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'rnini bilan bog'laydi va o'quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o'rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirish o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va ularni o'zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an'ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Ona tili va o'qish savodxonligida o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. Til o'rganishda uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

Ona tili nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish

o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Uzliksiz ta'lim bosqichlarida o'quvchilar "O'qish savodxonligi kitobi" orqali so'z boylikni oshirish, so'z, so'z birikma va gaplarni o'z o'rniga qo'yish natijasida matnni to'g'ri o'qiy olishi va fikrlashi tufayli kirib keladilar. So'ng bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan o'z dunyoqarashi, tafakkuri, badiiy so'z sehrini anglashga bo'lgan iqtidoriga ko'ra adabiyotning cheksiz ummonlariga g'arq bo'ladilar. Bugungi o'quvchi dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosabati nuqtai nazaridan kechagidan farq qiladi. Tezkor axborot almashish zamonida, virtual olamda ulg'ayayotgan o'quvchi bugun adabiy ta'limning qolipga solingan, stereotip fikrlar, hokim qarashlar, o'zlariga tanish ma'lumtolarni qayta bayon qilib berishdek eskicha, qolipga solingan yondashuvlari bilan murosa qilolmaydi. O'qish savodxonligi darsligida berilgan ertak va hikoyalar boshlang'ich sinf o'quvchilar tasavvurida ularning hayotiy ehtiyojlari o'laroq tasavvur hosil qilmas ekan, u zerikarli va quruq g'oyalar majmui bo'lib qolaveradi. Shu bois darslikda berilgan ertak va hikoyalar o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan hamda taassurotini boyitadigan darajada bo'lmog'i kerak. Bugungi kunda o'qish savodxonligini o'rgatishda uning nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda o'qitishning quyidagi masalalarini e'tiborga olish lozim:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish;

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning asosiy e'tiborini ertak qahramonlari, darslikda berilgan hikoyadagi ma'lumotlarni yodlashga emas, asar tahlili orqali ularning tushunish va fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratish;

3. Asar orqali o'quvchilarga o'rganilayotgan asarning tayyor talqinlarni singdirishdan voz kechish, muayyan savol va topshiriqlar orqali o'quvchilarning munosabatlarini shakllantirish;

4. O'qish savodxonligi va maktabda o'rganiladigan boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlovchi metodlarni to'g'ri qo'llash;

5. Ertak va hikoyalar tahlilida o'quvchi hayoti bilan aloqasini ta'minlash, o'quvchining o'qish savodxonligiga shunchaki fan sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoji sifatida fikrlashga o'rgatishdan iborat.

Bunday holatda savol va topshiriqlar boshlang'icha sinf o'quvchilarni asarga qiziqtirishi, asar mazmunini tushunishga tayyorlashi, badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqur mushohada yuritishga yo'naltiradi. O'quvchilarda badiiy asarni tushunish darajasini baholash ham xuddi matn tahlilidagi kabi so'z, so'z birikma, gap va matnning tartibini o'rgangani singari amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalqaro baxolash dasturi orqali

o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyati, matnlar mazmunini turli xil shakllar yordamida o'zlashtira olishlarini baholashimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'grisida"gi PF-4947-son farmoni \ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'grisida"gi 997-sonli qarori
3. To'xliyev B., M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
4. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent. 2010 y.
5. Kenjayeva M.A. O'quvchilar bilim savodxonligini aniqlashda Xalkaro PISA baholash dasturidan foydalanish. Zamonaviy ta'lim va tarbiya: muammolar, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy anjumani materiallari to'plami. Termiz: 2021. – 22 b.

## САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙНИНГ «ШАРХУ-Л-МИФТАХ» АСАРИДАГИ БАЛОҒАТГА ДОИР ИЛМИЙ ҚАРАШЛАР

*Аскарлов Абдурашид Муроджонович*  
*Ўзбекистон халқаро ислом академияси*  
*Араб тили ва адабиёти ал-Азҳар*  
*кафедраси ўқитувчиси*

**Таянч сўзлар:** араб тили балоғат фани, илмул маони, илмул баён, илмул бадиъ, полисемия, синономия, Саъдуддин Тафтазоний.

**Key words:** the rhetoric of Arabic language, comprehension of its contents: ilm ul maani, ilm ul bayan, ilm ul ,badi, the history of the occurrence of these sciences, polysemy, synonymy, Sa'duddin Taftazani.

**Ключевые слова:** риторика арабского языка, понимание его содержания: илмул маани, илмул баян, илмул, бади, история возникновения этих наук, полисемия, синонимия, Саудуддин Тафтазани.

Ушбу мақолада араб тилининг балоғат фани, унинг таркибидаги илмул баён, илмул маоний ва илмул бадиъ ҳақида, ушбу санъатларнинг юзага келиш тарихи, ҳамда, ушбу илмларни аجدодлардан қолган оғзаки ва ёзма маънавий меросни ўрганишдаги аҳамияти баён қилинди. Шунингдек, араб тили балоғатига улкан ҳисса қўшган олим Саъдуддин Тафтазоний ҳақида сўз юрилилади.

Эта статья исследует риторика арабского языка и его содержания: илмул баян, илмул мааний ва илмул бадиъ, историю возникновения этих наук, а также их роль в изучение устного и письменного наследия предков и ученых. Статья также содержит работы великого ученого Саудуддина Тафтазани об арабской риторике.

This article explores the rhetoric of Arabic language, comprehension of its contents: ilm ul maani, ilm ul bayan, ilm ul ,badi, the history of the occurrence of these sciences, and its role on studying the oral and written heritage of ancestors, scholars. The article also contains the works of the great scientist Saad Eddin Tafzani on the Arabic rhetoric.

Саъдуддин Тафтазонийнинг «Шарху-л-мифтах» асари Саккокийнинг (ваф. 626 х.) «Мифтаху-л-улум» асарининг балоғат қисмига ёзилган шархдир. Саъдуддин Тафтазоний «Ҳаваши-л-Кашшоф» асарида унга ҳавола келтириб, «...биз бунинг таҳқиқини «Шарху-л-мифтах»да келтирамиз» деган<sup>1</sup>. Асар ушбу ном билан машҳур бўлган. У кейинчалик «Шарху-л-қисми-с-салис мин мифтахи-

<sup>1</sup>Ҳавоший ал-кашшоф. 217/а. Бу ҳавола «Шарх ал-мифтоҳ»унинг охириги ёзган асари, деган фикрни қўллаб-қувватлайди ва Саъдуддин Тафтазоний мазкур иккала китобни бир вақтда ёзгани ойдинлашади



л-улум» деб ҳам номланган. Ушбу асар Тафтазонийнинг балоғатга оид охириги ёзган асари бўлиб, уни 789-ҳижрий сананинг Шаввол ойида Самарқандда тамомлаган<sup>2</sup>.

Асар ҳозирги кунгача чоп этилмаган. У қўлёзма шаклда бўлиб, Роъфат Исмоил Ғоним 1983-йилда Ал-азҳар университетида докторлик даражасини олиш учун уни таҳқиқ қилган.

Асарга ўнлаб ҳошиялар битилган<sup>3</sup>. Жуда кўпчилик олимлар ундан иқтибос келтиришган<sup>4</sup>.

Саъдуддин Тафтазонийнинг ушбу шарҳ тарзида ёзилган асари Саккокий томонидан балоғат борасидаги билдирилган фикрларга дастлабки муносабат эмас. Тафтазоний бундан олдин Саккокий сўзларининг жумбоқли жойларини “Мутаввал” ва “Мухтасар”да баён қилишга эътибор қаратган. “Мутаввал”да унинг сўзларини тушунишдаги чигалликларга кўп ишора қилган. Қазвийний бунга биринчи эшикни очган. Зеро, унинг “Талхис” асари Саккокий сўзларини тушуниш, фикрларини ўқишга уриниш ҳисобланади. Саъдуддин Тафтазоний “Талхис”га икки марта шарҳ ёзилгандан кейин “Мифтоҳ”ни шарҳ қилишга сабаб топа олмаган. Сўнг уни “Кашшоф” ва “Мифтоҳ”ни шарҳ қилишга ундайдиган нарса топгунча орадан 30 йил ўтди. Тафтазоний айтади: “Баъзи фузало ва уламоларнинг илтимоси билан қалам юганини “Кашшоф” асари ҳошияларига таълиқ ёзиш, унинг дур ва садафларини ажратиш томон буриш, соатлари ва сониялари ўртасини ажратиш, етук аллома Абу Яъқуб Сирож ал-маъолий Юсуф ибн Муҳаммад Саккокийнинг (Аллоҳ уни Ўз мағфирати билан ўраб олсин) «Мифтаҳу-л-улум» асари учинчи қисмини шарҳ қилишга ваъда бердим... Соҳир атоқли шоир (ва адиб)лар тили (асарнинг) нафис иборалари чиройли экани, ишоралари нозиклигини айтган. Араблар нозик ибораларида уни мезон ва адабий санъатларда ўта аниқликда ўлчайдиган тарози эканини кўриш мумкин. Ифодани тузишда, баён соҳасидаги қоидаларни кўтаришда, Қуръонга хос бўлган икки илмда асосларга кириш қилишда маънолар ва уларнинг муносиб бўлиши, бир неча тарафларнинг бирикиши ва мослигида кучини аямаган”<sup>5</sup>.

“Шарҳу-л-қисми-с-салис мин мифтаҳи-л-улум” ва “Мутаввал” ўртасидаги фарқ: Саъдуддин Тафтазоний “Мифтоҳа-л-улум” асарини алоҳида шарҳлаганда “Мутаввал”да тутган йўлидан борган. Фақат шарҳ услубида кўринадиган иккиси ўртасидаги фарқни изоҳлаб берган. У “Мутаввал”ни ёзган вақтда ёш, қизиққон бўлган. Унда тезлиги, танқид ва раддия беришдаги шиддати намоён бўлади. Унда фикрлар, эътирозларни кенгайтириб, гарчи узун ва кўп бўлса-да, улар

<sup>2</sup>Қаранг: Кашф аз-зунун. 2/1763. Ал-бадр ат-толий. – Б. 858. Шазарот аз-заҳаб. 8/548.

<sup>3</sup>Қаранг: Кашф аз-зунун. 2/1764-1765.

<sup>4</sup>Қаранг: Фанорий. Ҳошия ала ал-мутаввал. – Б. 80-81, 130. Ал-атвал. 1/209. Тироз ал-мажолис. – Б. 294, 309. Ҳошия ала шарҳ Бонит Суод. Ҳошия аш-Шихоб ала ал-Байзовий. Иқд ад-дурар ал-бахийя. – Б. 237.

<sup>5</sup>Шарҳ ал-мифтоҳ. 2/а.

ҳақида баҳслашишга сабр-тоқати бор эди. Яна кенг шарҳлаш ва унинг ҳар томонини тадқиқ қилиш ҳолати мавжуд эди. Аммо “Шарҳ ал-мифтоҳ” ни ёзганда сокин ва вазмин қария эди. Йиллар унинг тилини пиширган, пухталаштирган, тажрибаси, қўп илмлар борасида ёзганлари билан танишиб чиқиши ортган. Уни омухта шарҳ эмас, балки сўз билан шарҳ қилган. Саккокий сўзининг бошини бошлаб, охирига етказмай, сўнг ундаги ноаниқликларни шарҳ қилиб, ундаги чигалликни ечиб беради.

Тафтазонийни ушбу йўлга олиб борган ҳолат олдинги икки асарида зикр қилинганидек такрор кўпайиб кетишидан қўрққан бўлиши мумкин. Сўз билан шарҳ қилиш унга матн муаллифининг сўзидан хоҳлаганини шарҳ қилишга ихтиёр берган. Агар бу ерда (“Шарҳ ал-мифтоҳ”да) олдинги икки асарда кенгроқ келтирган муҳим баҳс-мунозараларни қайтаришни хоҳласа, уни қисқа ва мухтасар ҳолда келтирган. Ёки масаланинг бир томонини зикр қилиб, уни “Шарҳ ат-талхис”га ҳавола берган<sup>6</sup>. Иккинчи томондан “Шарҳ ал-мифтоҳ”да “Мутаввал”да кам эътибор қаратиш ёки ишора қилиш билан кифояланган масалаларини кенг баён қилиб, изоҳлаганини кўриш мумкин.

Баъзида ушбу шарҳда Саккокийнинг сўзи маъносини “Мифтоҳ” шарҳлари билан танишиб чиққанлар тушунадиган ёки Саъдуддин Тафтазоний ўзи “Мутаввал”ида келтирган кўринишда ифодалаш билан чекланган. Саккокий сўзига боғланиб қолган бирор шубҳа (ноаниқлик) бўлса, бу – Тафтазоний муқаддимада эслатганидек, уни кетказиш йўлидир<sup>7</sup>.

Саъдуддин Тафтазоний ушбу шарҳида олдин ўзи бошқа асарда зикр қилган фикридан воз кечган<sup>8</sup>. Унда олдин зикр қилинган фикр ёки унинг эгасини зикр қилишни яширганини ошкор қилган<sup>9</sup>. Бу ерда эътибор бериш лозим бўлган нарса шуки, Саъдуддин Тафтазоний баъзида истилоҳий нарсаларда матн эгасига эргашган. Унинг сўзидан “Шарҳ ал-мифтоҳ”да “Мутаввал”да айтганидан бошқа фикрга борганини маълум қилган. Бу ўз фикрига қарши эмас, балки фикрларига кирмай қолган нарсадир. У фақат матн муаллифи сўзини ўз услуби ва истилоҳи бўйича тутиши ва унга эргашшидир. Шу сабабли “Мутаввал”да “Шарҳ ал-мифтоҳ”да эътибор бермаган нарсаларга эътибор қаратган. Иккинчисида аввалгисида тузмаган нарсалар йўлидан борган. Чунки “Талхис”да “Мифтоҳ”да йўқ масалалар мавжуд, акси ҳам шундай<sup>10</sup>.

<sup>6</sup>Қаранг: Шарҳ ал-мифтоҳ. 100/а. Унда: “Бу борада таҳқиқнинг охирини “Шарҳ ат-талхис”да келтирганмиз”, деган.

<sup>7</sup>Қаранг: Шарҳ ал-мифтоҳ. 2/б; 22/а.

<sup>8</sup>Қаранг: Шарҳ ал-мифтоҳ. 162/б; 163/а. Уни “Мутаввал” 289-бети билан таққослаш мумкин. Шарҳ ал-мифтоҳ. 17/б. Уни “Мутаввал” 131-бети билан таққослаш мумкин. Бу фикрлар унга хос эмас, балки бошқасидан нақл қилинган.

<sup>9</sup>Шарҳ қилган аллома – Шерозий эканини очиқ айтган. Шарҳ ал-мифтоҳ. 89/а. “Шарҳ ал-мифтоҳ” 181/б да “Мутаввал” 212-бетда кимга нисбат берилгани айтилмаган сўзни Розийга нисбат берган.

<sup>10</sup>“Талхис”даги шеърӣ кўчирмалар “Мифтоҳ”да йўқ. Яна “Мифтоҳ” 336-бетда феъл исботи (мусбатлиги) “Талхис”да йўқ. Қаранг: Ал-мутаввал. – Б. 127. Шарҳ ал-мифтоҳ. 64/б.

Ушбу асарнинг ўзига хосликларидан бири шуки, Тафтазоний ушбу асарда олдинги ва “Мутаввал” ёзилган вақтда мавжуд бўлмаган ўша вақт асарларида кенг ёритилган масалаларга ҳавола лар берган.

Ушбу шарҳда хосланган нарсалардан бири Тафтазонийнинг Саккокий тилига кучли эътибор қаратганидир. Саъдуддин Тафтазоний Саккокийни фақат балоғат имомлари ичида улуғ йўлбошчи деб эмас, балки балоғат унинг қаламидан вужудга келадиган, иборасидан сеҳрли сўз порлайдиган адиб деб ҳисоблаган. Кўпинча Саккокийнинг баъзи ибораларини таҳлил қилган. Сабаби улардан илм ва ишораларни чиқариш, сўз сеҳри ва чиройини баён қилишдир<sup>11</sup>.

Ушбу шарҳдаги Саъдуддин Тафтазоний тили адиб руҳига яқинрок. “Мутаввал”да эса ўткир илмийлиги кўринади. Бунинг сабаби ўзи қабул қилган соҳа табиати бўлса керак. У гўё “Мутаввал”да кўплаб балоғат қоидалари, истилоҳлари ва чегаралари ҳақида баҳс юритиб бўлган, ушбу шарҳда эса уларни қайтармасдан, фақат ишора қилиш ва қисқартириш йўли билан ифодалаш фойдалидек кўринади. У балоғат илмининг бошқа томонларига эътибор қаратишга фурсат топиб, балоғатли гап маънолари остидаги нозик нуқталар ва маъноларни чиқариб олган. Сўнг Саккокий баъзи бобларда келтирган ва шундай ташлаб кетган маълумотларни таҳлил қилишга киришган. Бунга Саккокийнинг вақт ўтган сайин ушбу асари ўқувчисини қизиқтириши ва Саккокийнинг балоғатга оид маълумотларни ўз бобида келтириб, у (маълумотлардаги изох талаб қиладиган иқтибос ва шарҳлар)ни зийрак ўқувчига қолдириб кетганига Саъдуддин Тафтазонийнинг ишончи ёрдам берган. Гўё сўз билан (сўзма-сўз) шарҳ қилиш унга аралаш шарҳида маҳрум бўлган эркинликни берган ва қаламини шунга йўналтирган.

Ушбу услубни ўзи аниқ айтган: “Сиз бизнинг мисолларни келтиришимиз ва ундаги нозик нуқталарни баён қилганимиздан кўриб турганингиздек (услубимиз – шу), ҳатто кўп илмларда талаба бирор фойда олмаган қоидаларга киришни ҳам қисқартириб юбордик”<sup>12</sup>.

Саъдуддин Тафтазонийнинг ушбу шарҳни таҳлил, (муаллиф назарда тутган) мақсадлар ва балоғатга оид нозик жиҳатларни чиқариб олишга эътибор қилишига яна бир қўшимча сабаб унинг “Кашшоф”дан таъсирлангани бўлса керак. Чунки “Шарҳ ал-мифтоҳ”ни “Ҳавоший ал-кашшоф”ни ёзаётган вақтда таълиф қилган. Икки илмнинг ёзилишинг бир вақтга тўғри келиши бирининг бошқасига аралашиб кетадиган баъзи жиҳатларни келтириб чиқарган.

Саъдуддин Тафтазонийнинг тафсирга оид асарларидан деб ҳисобланадиган бир асар бор. Лекин у кўплаб илмларни ўз ичига олгани учун балоғатга яроқли

<sup>11</sup>Қаранг: Шарҳ ал-мифтоҳ, 238/а-б.

<sup>12</sup>Шарҳ ал-мифтоҳ, 133/а. Қаранг: Ал-мифтоҳ. – Б. 356.

асосларни ўз ичга олади. У “Ҳавоший ал-кашшоф” асаридир. Ушбу асар Замахшарийнинг машҳур тафсирига шарҳ ва таълиқ жамланмасидир.

Саъдуддин Тафтазоний унга ушбу номни берган<sup>13</sup>. Библиографик асарларда у шунга яқин “Ҳошия ал-кашшоф”<sup>14</sup> ва “Шарҳ ал-кашшоф”<sup>15</sup> номлари билан келтирилган. Ушбу номларнинг барчасига муаллифдан нақл қилинган асарларда ҳавола берилган<sup>16</sup>.

Тафтазоний ушбу асарни охирига етказмаган. Уни Фотиҳа сурасидан бошлаб Юнус сурасигача, сўнг Сод сурасидан Муҳаммад сурасигача ҳошия битган. Қўлёмани кўчирган хаттот Юнус сурасини тугатгач: “Кашшоф” асари ҳошиялари”нинг биринчи жузи тугади”, деб ёзган<sup>17</sup>. Ҳошияда шундай ёзилган: “Худ (сураси) бошидан Соффат (сураси) охиригача ҳошия ёзилмаган. 27 сура қолдириб кетилган”. Бу сўзни бошқа маълумотлар ҳам тасдиқлайди<sup>18</sup>. Библиографик асарларда Саъдуддин Тафтазоний ушбу асарини тугатгани ҳақидаги гаплар уйдирма<sup>19</sup>. Саъдуддин Тафтазоний икки жуз дан иборат ушбу асарни Самарқандда 789 ҳижрий сананинг Рабиъул охир ойида тугатган<sup>20</sup>.

Саъдуддин Тафтазонийнинг ушбу асарни оққа кўчириши охирига етмагани таъкидланади. Ҳасан ибн Аҳмад Жалол (1084 ҳижрий санада вафот этган) уни охирига етказган ва “Минаҳ ал-алтоф би-такмил ҳошия ас-Саъдуддин ала ал-кашшоф” деб номлаган<sup>21</sup>.

Ушбу асарнинг тақдири шериги “Шарҳ ал-мифтоҳ” каби бўлиб, қўлёмалари олийгоҳлардаги бошқа рисоалар каби ўрганишга кўпчилик қизиқмади. Унинг 1-жузини 1978 йил Ал-азҳар университетда докторлик даражасини олиш учун Абдулфаттоҳ Исо Барбарий таҳқиқ қилди. 2-жузини эса 1979 йил ушбу университетда докторлик даражасини олиш учун Фавзий Абдулқоҳир Абду Роббиҳи нашрга тайёрлади<sup>22</sup>.

“Кашф аз-зунун” муаллифининг ушбу ҳошия Тоййибийнинг “Ал-кашшоф”га ёзган ҳошияси қисқартмаси деб зикр қилган сўзи тўғри эмас<sup>23</sup>. Чунки

<sup>13</sup>Қаранг: Шарҳ ал-мифтоҳ. 48/а, 60/а.

<sup>14</sup>Қаранг: Буғя ал-вуот. 2/276. Ал-бадр ат-толий. – Б. 858.

<sup>15</sup>Шазарот аз-заҳаб. 8/548. Мифтоҳ ас-саода. 1/192.

<sup>16</sup>Қаранг: Ал-атвал. 1/364. Фанорий. Ҳошия ала ал-мутававал. – Б. 11. Тироз ал-мажолис. – Б. 35, 80, 309. Ҳошия ала шарҳБонитСуод. 1/232. Шарҳ ар-рисола ас-самарқандийя. – Б. 74-75. Иқд ад-дурар ал-бахийя. – Б. 225.

<sup>17</sup>Ҳавоший ал-кашшоф. 273/а.

<sup>18</sup>Қаранг: Кашф аз-зунун. 2/1478. Буғя ал-вуот. 2/276.

<sup>19</sup>Қаранг: Ал-бадр ат-толий. – Б. 858-859. Шазарот аз-заҳаб. 8/548. Броккелман. 2/320.

<sup>20</sup>Қаранг: Кашф аз-зунун. 2/1478. Буғя ал-вуот. 2/276. Ал-бадрат-толий. – Б. 858-859. Шазарот аз-заҳаб. 8/548. Броккелман. 2/320. Мифтоҳ ас-саода. 1/192.

БуихтилофнингсабабибаъзиларСаъдуддинТафтазонийнингшарҳларнитугатгансанасиниёзган, баъзилартаҳрирваоққакўчиришинибошлашвақтинийёзган. Қаранг: Ҳавоший ал-кашшоф. 81/а.

<sup>21</sup>Қаранг: Мукаддима шарҳ ат-таҳзиб фи ал-мантик. Ал-бадр ат-толий. – Б. 226.

<sup>22</sup>Қаранг: Қоима масодир рисола ал-вов ва мавақиъуха фи ан-назм ал-Қуръоний.

<sup>23</sup>Қаранг: Кашф аз-зунун. 2/1478.

иккиси қиёсан ўрганилган. Ушбу сўзга доктор Муҳаммад Абу Мусо олдин раддия берган<sup>24</sup>.

Саъдуддин Тафтазоний ортидан келган олимлар унинг ушбу асарини бошқа асарлари сингари самимий қабул қилишган. Унга бир неча хошиялар ёзиб<sup>25</sup>, ундан кўп нақл қилишган.

Ушбу асар “Кашшоф” атрофида ёзилган энг муҳим асарлардан саналади<sup>26</sup>. Ҳожи Халифа айтади: “Муҳаққиқ, билимдон яъни Саъдуддиннинг шарҳи эса таҳқиқ, тадқиқ, мувофиқлаштириш ва безатиш нозикликларини қамраб олгани учун тенги йўқдир. Лекин фурсат ўтиб, у билан умрининг охирида шуғулланган. Натижада ўлим чопари ушбу ишни тугатишидан олдин келган.

Саъдуддин Тафтазоний ушбу асарда Замахшарий эътибор қаратган илмга эътиборини қаратган. Унда “Кашшоф” ўз ичига олган луғат, наҳв ва фикҳ масалаларини киритган. Саъдуддин Тафтазоний ушбу асарда кўпроқ Имом Шофеъий ва Абу Ҳанифа мазҳаби ўртасидаги ихтилофли масалаларни таржих қилишда таркибнинг хос масалаларига суянишга ҳаракат қилган<sup>27</sup>. Таркибнинг хос масалаларини билиш билан танилган Замахшарий билан кўп масалаларда баҳс олиб борган. Бу билан у мазҳаб иштиёқига эргашиш эканини унутиб қўйган. Қироатлар борасида ҳам эътироз билдириб, Замахшарийни баъзи қироатларни заифга чиқаргани учун танқид қилган<sup>28</sup>. Яна бошқа тафсир илмларига оид масалаларда ҳам танқид қилган.

Балоғат илмига оид масалалар ушбу хошиялар (Ҳавоший ал-кашшоф)нинг бир жиҳатини қамраб олган. Чунки, матн ва хошия муаллифи ушбу илмнинг энг кўзга кўринган билимдонларидан-ку. Фақат ушбу масалаларни Саъдуддин Тафтазоний асарларидаги маълумотлар билан таққослаган одам унча катта фарқни кўрмайди. Юқорида Тафтазонийнинг таълиф қилишдаги асарлардаги маълумотлардан тўлиқ фойдаланиш, уни мунозара қилишдаги ижтиҳоди, уларда ёзилганларни ўрганиб чиқиб, сўнг буларнинг барчасини шарҳларига киритгани ҳақидаги услуби ҳақида сўз юритилди.

“Мутаввал”да Саъдуддин Тафтазоний “Кашшоф”даги балоғатга оид қоидалар ва чигал масалаларнинг аксариятини цитата сифатида келтириб, уни муҳокама қилиб, таҳқиқини келтиргани маълум. Ушбу (Ҳавоший ал-кашшоф)да ўша масалалар келса, уни қисқартиб қайта келтирган<sup>29</sup> ёки ўқувчи учун “Шарҳ ат-талхис”га ҳавола (сноска) бериш билан чекланган<sup>30</sup>. Шундан сўнг “Кашшоф”даги балоғатга оид маълумотларни таҳлил ёки илова қилиш керак

<sup>24</sup>Қаранг: Ал-балоға ал-қуръонийя. – Б. 98.

<sup>25</sup>Қаранг: Кашф аз-зунун. 2/1479.

<sup>26</sup>Қаранг: Кашф аз-зунун. 2/1475-1484.

<sup>27</sup>Ҳавоший ал-кашшоф. 105/б, 106/а-б, 191/б.

<sup>28</sup>Қаранг: Ҳавоший ал-кашшоф. 130/б, 232/а.

<sup>29</sup>Бунча “Ҳавоший ал-кашшоф” иккинчи ва учинчи фаслининг иккинчи мабҳасида кўп мисоллар келтирилган.

<sup>30</sup>Қаранг: Ҳавоший ал-кашшоф. 30/б, 38/а, 260/а, 289/а.



бўлган. Бу эса Саъдуддин Тафтазоний ўрганадиган ва таҳқиқ қиладиган ўрин эмасди. Сўнг Замахшарий бу масалаларда мунозара қилинмайдиган, фақат у муътазиллийликка ҳукм қилинган эди. Саъдуддин Тафтазоний эса ўқувчиларни ҳақ йўлга бошлаш учун унга раддия берган. Бу эса Тафтазонийнинг балоғатга оид олдинги асарларида мавжуд бўлмаган янги жиҳатдир.

Бир сўз билан айтганда, Замахшарий “Биринчи аллома” бўлса, Тафтазоний “Иккинчи аллома” деб лақаб олган. Бу алломанинг илми кенглиги, машҳурлиги ва “Кашшоф”даги аксар илм (наҳв, луғат, балоғат ва бошқа)ларни муҳокама қилгани учун берилган. Шу тўғрисида “Ҳавоший ал-кашшоф” асари илм соҳалари кенгайиб, манбалари кўпайиб кетган.

Саъдуддин Тафтазонийнинг “Шарҳу-л-қисми-с-салис мин мифтаҳи-л-улум” асари 1991-йил Мисрнинг машҳур ал-Азҳар университети араб тили факультети балоғат кафедраси доктори Роъфат Исмоил Ғоним томонидан ўрганиб таҳқиқ қилинган.

Юқоридагилардан Саъдуддин Тафтазоний қолдирган балоғатга оид мерос кўлами намоён бўлади. Улар алломанинг ушбу соҳага катта эътибор қаратгани, ўзидан кейинги олимлар наздида асарларининг даражасини кўрсатади.

Бошқаларнинг балоғат асосларига оид асарига шарҳ бўлсада, қолдирган мероси унинг шахсияти ва фикри бошқалардан ажралиб туришини билдиради.

Ҳозирги кунгача ўз аҳамиятини йўқотмаган ушбу асарлар бир неча марта Туркия, Миср, Ҳиндистон ва бошқа давлатларда қайта-қайта нашр қилинган. “ал-Мутаввал”нинг замонавий нашрлари жуда кўп. Баъзи нашрлари таҳқиқлар асосида баъзи бир нашрлари эса таҳқиқ қилинмаган ҳолда нашр қилинган. 1971-йил Мисрнинг Қоҳира университети балоғат фани устози, профессори Доктор Абдулҳамид Ҳиндовий таҳқиқи остида Байрутда нашр этилади.<sup>31</sup>

Балоғат илмининг маъоний бўлими тадқиқи натижасида ҳосил бўлган хулосалар қуйидагичадир:

Саъдуддин Тафтазоний ўзидан олдингилар шарҳлашга киришган асарларни ўрганиб чиқиб, ўз шарҳи билан улардаги камчиликларни бартараф этишни хоҳлаган.

Хулоса қилсак, Саъдуддин Тафтазоний “Мухтасар”да “Мутаввал”даги маълумотларни кўпини қўшмаган аён бўлади. Саъдуддин Тафтазоний «Мутаввал» асарини ёзишда Қазвийний «Талхису-л-мифтах» асарида олимларнинг қарашларига эътироз билдирган ва уларни ихчамлаштирган ўринларнинг барчасини ўрганиб чиқишни, бошқа балоғат олимларининг сўзларидан далиллар келтириш орқали унинг қарашларининг тўғри ёки хато эканига муносабат билдиришни мақсад қилган эди. Шу тариқа Тафтазонийнинг «Мутаввал» асари балоғат уламолари қарашларига, айниқса уларнинг

<sup>31</sup>Хусни Абдулжалил Юсуф. Ал Мисбах фил маони вал баён вал бадиъ. Байрут. 2012.



«Мифтаху-л-улум»да келтирилган сўзларига шарҳ бўлган. Лекин, бунинг барчаси Қазвийнийнинг билдирган фикрларини шарҳлаш жараёнида амалга оширилган. Тафтазоний Қазвийнийнинг фикрларини шарҳлагандан сўнг бошқа олимларнинг қарашларига муносабат билдиришга ўтиб кетган.

Тафтазоний замондошлари ва ўзидан олдингиларнинг Журжоний услубига кўра чиқарган хулосалари, кўп мисоллар келтириш йўли, улардан балоғатга оид нозик сўз ва мисолларни чиқариши, баъзан ақлий тақсимотларда чегарадан чиқишларига эътироз билдиради.

Саъдуддин Тафтазоний араблар услубларини синчковлик билан ўрганиб чиққан. Бу билан у балоғат уламолари, жумладан, Абдулқоҳир Журжоний ишлаб чиққан баъзи ҳукмларни далиллар билан баён қила олган. Уларнинг аксарияти қатъий эмас. Баъзилари услуб торлиги туфайли тор бўлиб қолган. Баъзилари инкор қилувчи белгиси борлиги учун бузилган. Буни муаллифдан кейин келган ва унинг асарларига катта эътибор қаратган кўпчилик англаб етган.

#### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тариху улуми-л-балаға ва-т-таъриф би-рижалиҳа. Аҳмад Мустафо ал-Мароғий. Миср. 1950.
2. تاريخ علوم البلاغة والتعريف برجالها. أحمد مصطفى المراغي. مصر، 1950. ص 23.
3. أحمد بن علي بن محمد بن حجر الأسقلاني. الدرر الكامنة في أعيان المائة الثامنة. حيدر آباد. ج. 5. 1983.
4. جلال الدين القزويني. تلخيص المفتاح. علي شير نوايي ناميده كي أدبيات موزيي قول يازمه لار فوندي، رقم – 402.
5. سعّد الدين التفتازاني. شرح تلخيص المفتاح. ابو ریحان بيروني ناميده كي شرق قول يازمه لاري فوندي، رقم – 13009.
6. 1986. عدد المجلدات: 10. محمد ابن العماد العكري. المؤلف شذرات الذهب في أخبار من ذهب
7. مفتاح السعادة ومصباح السيادة في موضوعات العلوم. طاشكبري زاده. 1985. بيروت.
8. محمد ابن العماد العكري. شذرات الذهب في أخبار من ذهب المؤلف. عام 1986 ج. 6. ص 319-332.
9. إسماعيل باشا البغدادي. هدية العارفين أسماء المؤلفين وآثار المصنفين. استانبول. سنة 1951. ص 439-430.
10. Кашфу-з-зунуз ан асамили кутуб ва-л-фунун. Мустафо ибн Абдуллоҳ Ҳожи Халифа. Дамашқ. 1-жилд. 1994.
11. Муқаддима. Ибн Халдун ал-Ҳадраий. Байрут. 3-жилд. 1957

## HADISLAR VOSITASIDA O`QUVCHI-YOSHLARDA ILM OLISHGA BO`LGAN ISHTIYOQLARINI YANADA RIVOJLANTRISH

*Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna*  
*Andijon Davlat universiteti "Umumiy*  
*pedagogika" kafedrasi o`qituvchisi*  
*Abdumutalipova Muxlisa Akmaljon qizi*  
*ADU, BTSTI 401-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada hadis va uning ahamiyati haqida ma'lumotlar, yosh avlodni har tomonlama barkamol va ilimli qilib tarbiyalashda ularning o'rni, ilm o'rganish yo'lida ajdodlarimizning tajribalari va ular yordamida o'quvchilarni ilm olishga yanada ruhlantirish haqida keltirib o'tilgan. Dunyoqarashi keng, mustaqil fikriga ega yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoning yechimi esa diniy va dunyoviy bilimlarga ega bo'lish. Buning uchun esa hadislar eng kerakli qo'llanmadir.

**Kalit so'zlar:** Imom al-Buxoriy, hikmat, sahoba, din, hadis, sunnat, oyat, ilma'rifat, ilmsizlik, ilmning fazilatlarini, ilm olishga targ'ib, dunyo, oxirat.

**Annotation:** The article contains information about the hadith and its importance, their role in growing up the young generation to be competent and knowledgeable in all aspects, the experiences of our ancestors in the way of learning science, and using them to inspire students to learn more. Education of young people with a broad outlook and independent thinking is one of the urgent problems of today. The solution to this problem is to acquire religious and secular knowledge. For this, hadiths are the most necessary guide.

**Key words:** Imam al-Bukhari, wisdom, companions, religion, hadith, sunnah, verse, knowledge, ignorance, virtues of knowledge, promoting knowledge, the world, the hereafter.

**Аннотация:** В статье содержится информация о хадисах и их важности, их роли в воспитании молодого поколения, чтобы быть компетентными и знающими во всех аспектах, опыте наших предков на пути изучения науки и их использовании, чтобы вдохновить учащихся на новые знания. . . . Воспитание молодежи с широким мировоззрением и независимым мышлением является одной из актуальных проблем современности. Решение этой проблемы заключается в приобретении религиозных и светских знаний. Хадисы являются наиболее полезным руководством для этого.

**Ключевые слова:** Имам аль-Бухари, мудрость, сподвижники, религия, хадис, сунна, аят, знание, невежество, достоинства знания, продвижение знания, мир, загробный мир.

Islom ilm-ma'rifatga asoslangan din. Islomning asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni karim va hadisi sharifda ilm o'rganish, uni boshqalarga o'rgatish, va aksincha, ilmsizlik yoki uni o'rgatishga loqaydlik qattiq qoralanadi. Bu fikrimizga muqaddas Kitobimizning ilk nozil bo'lgan oyatining o'ziyiq isbot bo'la oladi. Alloh taolo "Iqro", ya'ni "O'qi" deb amr qiladi ushbu dastlabki oyatda. Hadislar ham islom dinida Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manbaa bo'lib, Muhammad (s.a.v)ning hayoti va diniy-axloqiy ko'rsatmalariga asoslangan. Muhammad (s.a.v) aytgan yoki qilib ko'rsatgan va boshqalar qilgan biror bir ishni ko'rib turib, man etmagan holatlar "sunnat" hisoblanadi. Ana shu xatti-harakatlar hadis deb yuritiladi. Hadislar islom dinining barcha qonun-qoidalarini o'zida aks ettiradi, Qur'onning turli oyatlarini tushuntirib, to'ldirib beradi. Islom dini inson manfaatlariga xizmat qiluvchi har qanday kashfiyot va yangiliklarni qadrlagan va qo'llab-quvvatlagan. Shubha yo'qki, barcha yangiliklar va kashfiyotlar zamirida ilm yotadi. Muoz ibn Jabalning ushbu fikrlari ilmning fazilatiga eng yaxshi dalillardan biri: "Ilm tanholikda hamroh, xilvatda do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi mayoq, xursandchilig-u hafagarchilikda ulfat, do'stlar oldida vazir, begonalar oldida yaqin do'st, Jannat yo'lining minorasidir". Islomda ilm talab qilish har bir musulmon uchun beshikdan to qabrgacha farz qilingan. Farz Allohning qat'iy amri bo'lib, uni bajarish har bir mo'min uchun majburiydir. Ilm, agar Alloh uchun xolis o'rganilsa, egasini Jannatga olib borishi haqida yuqoridagi hikmatda bahramand bo'ldik. Ilm egalarining oqibatlarini xayrli bo'lishi tabiiydir. Abdulloh ibn Abbos (r.a): "Ilm olishda qiynaldim, biroz xorlandim, tilagimga erishgach, aziz-u mukarram bo'ldim", - deydi.

Hadisi sharifda : "Kimki dunyoni xohlasa, ilm olsin. Kimki oxiratni xohlasa, ilm olsin" – deyiladi. Ilohiy ta'limotda kelgan ilmdan murod barcha foydali ilmlar bo'lib, bunday ilm egalariga qilingan va'dalarga iymon va ixlos bilan uringan mo'min-musulmonlar erishadi. Bu qoidani ushbu hadisga ishlatadigan bo'lsak, mo'min-musulmon o'zi uchun foydali ilmga "Bu menga Allohning amri, dinimning talabi" deya urinsa, u Jannatning yo'liga tushgan bo'ladi. Abu Hurayra (r.a.) dan rivoyat qilingan hadis-u sharifda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) "Kim ilm talab qilish yo'liga tushsa, Alloh unga Jannat yo'lini yengillashtiradi", - derdilar. Ilmga da'vat qilish uchun bundan ortiq targ'ib bo'lmasa kerak, chunki har bir insonning oliy maqsadi – Jannat. Jannatga erishish uchun u har qanday qiyinchilik, mashaqqatlarga qarshi kurashishga tayyor.

Buyuk bobokalonimiz Imom al-Buxoriy sahih hadislar to'plami bo'lmish "Al-Jome' as-sahih" kitobining 1-to'plami 16-bobi "Ilmu hikmatni orzu qilmoq" bobida Hazrat Umar raziyallohu anhu bunday deganlar: "Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasululoh sallollohu alayhi va sallamning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar. Rasululoh sallollohu alayhi va sallam: "Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz emas, biri-kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo

bersa-yu, uni haq yo`lida sarflayotgan bo`lsa, ikkinchisi-kishiga Alloh taolo ilmu hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o`rgatayotgan bo`lsa”,- deganlar”.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, ilm o`z sohibiga qiyomatda yo uning zarariga yoki foydasiga hujjat bo`lishi mumkin. Qolgani esa bandaning o`ziga bo`g`liq. Shuning uchun ilm olishni, bu yo`lda qiyinchiliklarni yengib o`tishni also to`xtatmaslik lozim. Foydali ilm olib, unga amal qilib dunyo-yu oxiratda saodatmand bo`lishga intilish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Olimlarning ilm yo'lida chekkan mashaqqatlari va ko'rsatgan sabr-matnatlari bitilgan sahifalar". Abdulfattoh Abu G'udda
2. Abu Abdulloh idn Ismoil Al-Buxoriy. "Al-adab al-mufrad" – T.: O'zbekiston, 1990
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Xadis" Toshkent:2012
4. "Olim odam va olam". Mubashshir Ahmad
5. islom.ziyouz.com
6. islom.uz

PISA TADQIQOTI DOIRASIDA O'QUVCHILARNING KREATIV  
FAOLLIGINI O'STIRISHNING AHAMIYATI

*Abdurahimova Odinaxon Muhammadali qizi*  
*Farg'ona davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kreativlik, kreativ fikrlash, PISA, PISA tadqiqotining o'quvchilar kreativligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli ta'lim haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, kreativ fikrlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, PISA, IHHT, metakognitiv qobiliyat.

**Абстрактный:** в данной статье представлена информация о творчестве, творческом мышлении, PISA, роли и значении исследований PISA в повышении креативности учащихся, личностно-ориентированном образовании, проблемном обучении.

**Ключевые слова:** креативность, творческое мышление, личностно-ориентированное образование, PISA, IHHT, метакогнитивные способности.

**Abstract:** this article provides information about creativity, creative thinking, PISA, the role and importance of PISA research in increasing students' creativity, person-oriented education, problem-based education.

**Key words:** creativity, creative thinking, person-oriented education, PISA, IHHT, metacognitive ability.

**Kirish.** Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga ham qator o'zgarishlar, olib kirildi. Hozirgi kunda talab etilayotgan, kutilayotgan natijalar, o'quvchilarning ijodiy, mustaqil fikrlashi, yangi g'oyalarni loyihalarni ishlab chiqish bugungi kun davr talabi hisoblanadi.

Til ta'limida o'quvchining kreativ fikrlashini ta'minlash orqali yuqori saviyadagi nutqiy savodxonlik bilan bir qatorda tabiiy va aniq fanlarni oson va qulay o'zlashtirilishiga erishamiz. PISA tadqiqotlari doirasining ham o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham 15 yoshli o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholashidir. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi

bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur - bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. O'zbekiston 2022-yilda ilk bor qatnashishi kutilayotgan PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligi bilan bir qatorda, kreativ fikrlashini ham baholaydi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish va baholash uchun esa birinchi navbatda bu domenning o'zini tushunish, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; kabi asosiy masalalar ko'rib chiqilgan bo'lib bundan ko'rinadiki PISA xalqaro baholash tizimiga tayyorgarlik ko'rish kabi masalalar eng oldingi o'rinlarga qo'yilgan. Shulardan kelib chiqqan holda, o'rta ta'limning 7-11 sinf o'quvchilarini PISA xalqaro baholash dasturi talablari asosida o'qitish xozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining va pedagoglarning oldidagi eng kata vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ushbu maqolada biz umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini PISA testlariga tayyorlash va ba'zi testlarni yechish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasini muhokama qilamiz.

Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo'ladi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog'liqdir. Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni



rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi. O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fik

Xulosa qilib shuni aytish joizki, kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Demak, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxs hiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), bu esa, o'z navbatida, jamoaviy ish bo'lgan innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. 2. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va teng lashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Darhaqiqat, ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlani shiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Ustiga-ustak, shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh M "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'zbekiston. Toshkent, 2017. 45-bet.
2. Yo'ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari:-T.: "Tarbiyachi", 2004 y.
3. R.A.Mavlonova Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O'quv qo'llanma. T.: "G'.G'ulom", 156-bet.
4. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi (PISA 2021 Creative Thinking Framework (Third Draft), [www.oecd.org/pisa/publications](http://www.oecd.org/pisa/publications))
5. Internet materiallari.

**XALQARO EKOLOGIYA HUQUQIDA TRANSCHEGARAVIY SUV  
RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA  
QILISHDAGI MUAMMOLAR**

*Umarov G'olibjon*

*Azimov Azimboy*

*Toshkent davlat Yuridik universiteti xalqaro huquq va qiyosiy*

*Huquqshunoslik fakulteti 3-kurs talabalari*

**Annotatsiya:** Maqolada Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolarning suv resurslari muammolari va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Xususan, suv masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan xalqaro konferensiyalarning tavsiyalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** suv resurslari, mintaqaviy hamkorlik, ekologik xavfsizlik transchegaraviy daryolar, energetika, xalqaro konferensiyalar.

O'zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtai nazardan qaraganda, suv zaxiralarining, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi xamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham har taraflama inson faoliyati ta'siriga uchramoqda. Sug'oriladigan hududlarda suv tabiatning bebaho in'omidir. Butun hayot suv bilan borlik. Zotan, suv tamom bo'lgan joyda xayot ham tugaydi. Shunday bo'lsada, Markaziy Osiyoda suv zaxiralari juda cheklangan. Yiliga 78 kub kilometr suv keltiradigan Amudaryo va 36 kub kilometr suv keltiradigan Sirdaryo asosiy suv manbalaridir. Suv zaxiralarining sifati eng muhim muammolardan biridir. 60 – yillardan boshlab Markaziy Osiyoda yangi yerlar keng ko'lamda o'zlashtirildi. Sanoat, chorvachilik komplekslari ekstensiv rivojlantirildi. Urbanizatsiya kuchaydi. Kollektor – zovur tizimlari qurildi hamda daryo suvlari sug'orish uchun muttasil yuqori hajmlarda olindi. Shu bois suv havzalardagi suvning sifati tobora yomonlasha bordi. Daryo suvlarining ifloslanishi ekologiya – gigiyena va sanitariya – epidemiologiya vaziyatini, ayniqsa, daryolarning quyi oqimlarini yomonlashtirmoqda. Ikkinchi tomondan, daryo suvlari tarkibida tuzlarning mavjudligi Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa daryolarning deltalarida tuproqning sho'rlanishini kuchaytirmoqda. Bu esa qo'shimcha melioratsiya ishlarini amalga oshirishda, zovur tizimlarini barpo etish va tuproq sho'rini yuvishda yaqqol sezilmoqda. O'zbekiston va qo'shni mintaqalar sharoitida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aholi punktlarini odatdagi vodoprovod suvi bilan ta'minlash ko'rsatkichi respublikada faqat keyingi besh yillikning o'zida taxminan 1,5 baravar ortdi. Shunga qaramay, ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Ichimlik suv ta'minoti manbalarining ifloslanishi

respublikada, ayniqsa, Orol bo'yida kasallikka chalinishning yuqori darajasiga sabab bo'lmoqda.

Suv resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va boshqarish tizimini aholi uchun suv bilan kafolatli ta'minlashni, iqtisodiyot tarmoqlarining ustuvorligi, suvni samaradorligini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni ta'minlash talablarini hisobga olgan holda takomillashtirish zarur. Suv resurslarini boshqarishda atrof muhitni, tabiiy suv havzalari va ekotizimlarning suvga bo'lgan talabini inobatga olish, shu jumladan, Orolbo'yi hududida suv xo'jaligi vaziyatini barqarorlashtirish hamda Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlarini bartaraf etishga ko'maklashish ham talab etiladi.

Aholining suvni muhofaza qilish, suv resurslaridan samarali va tejamli foydalanishini tashkil etish bo'yicha hamda huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish bo'yicha birqancha chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga:

- suvdan oqilona va tejamkor foydalanishni targ'ibot – tashviqot qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish maqsadida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- suvdan foydalanish madaniyatini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini ta'lim tizimiga joriy qilish orqali yosh avlodni suvga nisbatan tejamkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

- suv xo'jaligi tashkilotlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash, suvga doir ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish va uni ommaga yetkazishning qulay sharoitlarini yaratish.

Insoniyat o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida doimo suv resurslarining yetishmasligi muammosiga duch keldi. Qayd etish joizki, dunyoning 145 ta davlati "transchegaraviy suv havzalari" deb ataluvchi suv havzalaridan qo'shni davlatlar bilan birgalikda foydalanadi, 21 davlatning hududlari esa xalqaro havzalarga to'liq kiritilgan. Cheklangan suv zaxiralari bilan ularni birgalikda ishlatish zarurati ko'pincha davlatlararo munosabatlarning keskinlashishiga olib keladi. Transchegaraviy daryolardan birgalikda foydalanish muammosi XX asrda suv omborlarini yaratish, shuningdek, oqim kanallari va boshqa gidrotexnik inshootlarni qurish sayyoraviy xususiyatga ega bo'lgan paytda keng namoyon bo'ldi. Ushbu infratuzilmaning salmoqli qismi ikki yoki undan ortiq davlat hududidan oqib o'tuvchi 300 ta yirik daryolarda qurilgan bo'lib, buning natijasida daryolarning quyi qismlarida joylashgan davlatlarning tashvishi kuchaygan, chunki bunday inshootlar qurilishi boshlangan.

Suv – yer yuzasida hayot mavjudligining asosiy shartlaridan biridir. Lekin, hozirgi kunda, tabiatdagi barcha suvlardan bevosita foydalanib bo'lmaydi. Shu bilan birga "suv resurslari" tushunchasini barcha suvlarning sinonimi deb tushunmaslik kerak. Haqiqatan ham bu kategoriya faqatgina tabiatga xos bo'lmay, balki ijtimoiy – tarixiy va iqtisodiy bosqichlarda o'zgarib turadi. Hozirgi taraqqiyot bosqichida suv

resurslari tabiatdagi barcha chuchuk va o'rtacha minerallasgan, tabiiy holda yoki sun'iy ravishda chuchuklashtirilgan, tozalangan suvlardan iborat bo'lib, ayni paytda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlatilayotgan va ishlatilishi mumkin bo'lgan suv manbalari yig'indisidir. Hajmi, miqdori, hosil bo'lish va joylashish o'rniga bog'liq holda suv manbalari mahalliy, regional va global suv resurslariga bo'linadi. Xalqaro bitimlarga asosan esa milliy, davlatlararo va umumiy (umuminsoniy) suv resurslari birbiridan farqlanadi. Suv qayta tiklanadigan tabiiy resurslar qatoriga kiradi. Lekin buning uchun, birinchidan, daryolar, muzliklar, yer osti suvlari zahirasi asrlar davomida o'zgarmas bo'lishi va ikkinchidan, insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy suvlarning ifloslanishi darajasi ularning sifat jihatdan o'z - o'zini qayta tiklash imkoniyatidan katta bo'lmasligi kerak. O'lkamizdagi suv resurslarining asosiy manbalari daryolar, soylar, buloqlar, suv omborlari, ko'llardagi tabiiy toza suvlardan hamda yer ostida joylashgan chuchuk va o'rtacha minerallasgan suvlardan iborat. Bularga qo'shimcha ravishda muz osti va muz ko'llari suvlarini, termal (issiq) yer osti suvlarini, tozalangan (ikkilamchi) suvlarni, oqava suvlarining bir qismini, atmosfera yog'inlarini va tuproqdagi namlikni kiritish mumkin.

Suv muammosi Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Orol dengizi havzasida O'rta Osiyoning 5 ta respublikasi mavjud bo'lib, ularning hududi 1550 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Sug'oriladigan maydon 7,95 mln.ga. Viloyatda to'ldiriladigan suv resurslarining hajmi yiliga o'rtacha 118-120 km<sup>3</sup> ga teng bo'lib, bular Amudaryo, Sirdaryo va yer osti suvlari zaxiralaridan (14,7 km<sup>3</sup>) iborat. Suv omborlarining hajmi 60 km<sup>3</sup> [4]. Orol dengiziga quyiladigan umumiy suv resurslarining 55,4% Tojikiston, 25,3% Qirg'iziston, 7,6% O'zbekiston, 3,9% Qozog'iston, 2,4% Turkmaniston, qolgan 5,4% Afg'oniston hududida hosil bo'ladi va Xitoy va Pokistonning bir qismi, Amudaryo Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilish joyidan boshlanib, uning o'rta oqimida o'ng tomondan Kofirnigon, Surxondaryo, Sherobod, chap tomonidan Qunduz suvlari quyiladi. Tojikiston va qisman Afg'oniston shimolida hosil bo'lgan daryo Afg'onistonning O'zbekiston bilan chegarasi bo'ylab oqib o'tadi, so'ngra Turkmaniston hududi orqali o'tadi va yana O'zbekiston hududiga qaytadi. Keyingi 1257 km masofada Amudaryoga boshqa daryolar quyilmaydi. Sirdaryo – Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'lib, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston hududlaridan oqib o'tadi va Qozog'iston hududi orqali Orol dengiziga quyiladi. Daryoning o'rta oqimiga Ohangaron, Chirchiq, Keles daryolari quyiladi. Daryoga oqib tushadigan oxirgi oqim Oris daryosidir. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslaridan foydalanish murakkab. Biroq, suv iste'moli rejimi tarmoqlari, xususan, energetika va irrigatsiya bo'yicha kompleks ishtirokchilari qarama – qarshi yondashuvlardan foydalanadilar. Hidrologiya nuqtai nazaridan O'rta Osiyo davlatlari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga Amudaryo va Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan Qirg'iziston va Tojikiston kiradi, ular boshqa

boyliklarga ega bo'lmagani uchun xalq xo'jaligi faoliyatini gidroenergetika orqali ta'minlashga majbur. Ikkinchi guruhga o'z iqtisodiyotini sug'oriladigan dehqonchilik va sanoat asosida qurayotgan Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmaniston kiradi. Shuning uchun agar ikkinchi guruh uchun qishda suv yig'ib, yozda foydalanish afzalroq bo'lsa, birinchi guruh uchun esa yozda suv yig'ib, qishda foydalanish ma'qul hisoblanadi.

Gidrosferaning xilma-xil turli xususiyatlari va o'ziga hosiligi orasida uning xarakatdiligini aloxida ta'kidlash zarurdir. Gidrosfera o'ta xarakatchan va jo'shqindir. Bu tabiatdagi suvlarni aylanma xarakatining asosi ulkan jarayon bo'lib u bilan suv resurslarini tabiiy chuchuklanishi, quruqlikda suvlarni taqsimlanishi va joylashishi xamda aholini, xayvonot va o'simlik dunyosini suv bilan ta'minlanishi bog'liqdir. Tabiatdagi suvlarni aylanma xarakati bilan yemirilish jarayonlari va Yerni relefini shakllanishi bog'liqdir. Tabiatda suvni aylanma xarakati quyidagicha ro'y beradi. Quruqlik va dunyo okeanidagi suvlar Quyosh nuri ta'sirida bug'lanib atmomferani namlik bilan to'ldiradi. Mutaxassislarni xisoblari bo'yicha Quyoshdan kelayotgan issiklikning 55% suvni bug'latishga sarf bo'lar ekan. Atmosfera xavosidagi suv bug'lari xaroratni pasayishi xisobiga kondensatsiyalanib (suyuq xolatga o'tib) Yerga (quruqlik va dunyo okeani yuzasiga) yomgir va qor sifatida yog'adi. Qor va yomg'ir suvlarini bir qismi tuproqqa shimiladi va qolgan qismi yer usti oqimini shakllantiradi. Bu suvlar qiyaliklardan oqib tushib soylarni paydo qiladi va keng tarqalgan soylar bo'yicha ular daryolarga kelib quyiladi. Bu faqat daryo oqimining bir qismi ya'ni yer usti toshqin suvlaridir. Daryolar tuproq qatlamidan chuquroqdagi qatlamlarga shimilib o'tib shakllangan yer osti suvlari xisobiga xam ta'minlanadilar. Yer osti suvining eng faol xarakat qiluvchi qismi buloqlar ko'rinishida yer yuzasiga sizib chiqadi yoki daryolarga oqib tushadi. Ko'p xollarda daryolar yer osti suvlari bilan doimiy ta'minlanadilar. Dengizlar, ko'llar xuddi okeanlar kabi faqatgina atmosfera yog'inlari xisobigagina emas balki oqib kelayotgan daryo suvlari xisobiga xam ta'minlanadilar. Shunday qilib okeanlardan va quruqlik ichkarisidagi xavzalardan doimiy bug'lanadigan suvlar uzluksiz to'ldirilib turilishi yuz beradi. Tuproq qatlamidagi suvlar asosan bug'lanib va o'simliklar orqali transperatsiyaga sarflanib atmosfera havosini suv bug'lari bilan boyitadi hamda bir qismi yer osti suvlarini ta'minlaydi.

Suv resurslaridan samarali foydalanish uchun ularning qaysi yo'llar bilan sarflanishini bilish zarur. Ma'lumki, suv resurslari ikki yo'l bilan tabiiy va inson xo'jalik faoliyati, ya'ni antropogen omillar ta'sirida sarflanadi. Suv resurslarining tabiiy sarflanishi quyidagi yo'llar bilan ro'y beradi:

- daryolar o'zanidan, ko'llar kosasidan bo'ladigan shimilish ko'rinishida;
- suv yuzasidan bo'ladigan bug'lanish;
- namsevar yovvoyi o'simliklar tanasidan transpiratsiya yo'li bilan bug'lanish;



• daryoda suv toshgan davrda uning ma'lum bir qismining qayirda qolishi va hokazolar.

Davlat Hidrologiya instituti ma'lumotlariga ko'ra o'tgan asrning 70 – yillarida daryo oqimining tabiiy sarflanishi Sirdaryo va Amudaryo havzalarida mos ravishda yiliga o'rtacha 1,7 va 3,3 km<sup>3</sup> ni tashkil etgan. Tabiiy sarflanish miqdori daryoning suvliligiga bog'liq, ya'ni daryoda suv qancha ko'p bo'lsa, sarflanish ham shuncha katta miqdorda kuzatiladi.

Suv resurslarining insonning xo'jalik faoliyati, ya'ni antropogen omillar ta'sirida sarflanishi ularning irrigatsiya, maishiykommunal va sanoat tarmoqlarida ishlatilishi bilan bog'liq. Suv resurslarining antropogen omillar ta'sirida sarflanish jarayoni hali yaxshi o'rganilmagan. Afsuski, bu muammoning yechimi ustida olib borilayotgan tadqiqotlar hozirgi kunda ham talab darajasida emas.

Yurtimizda ham ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikka oid 20 dan ortiq qonunlar va yuzlab qonunosti hujjatlari qabul qilinib, hayotga tatbiq qilinmoqda. Xususan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risi"gi Qonunlar va O'zbekiston Respublikasining

2030 – yilgacha O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, 2019 – 2030 – yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning bir qator moddalarida atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog'liq g'ayriqonuniy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari belgilab qo'yilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan ekologik xavfsizlikka alohida e'tibor qaratilib, 2020 – yil 23 – sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 75 – sessiyasidagi so'zlagan nutqida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning jiddiy muammolaridan biri – global iqlim o'zgarishlariga to'xtalib, bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etayotganligini, ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirayotganligi bildirildi.

Yuqorida aytib o'tilgan aloqalar natijasida tobora ko'proq suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq barcha muammolarni, birinchi navbatda, huquqiy va ma'muriy jihatlarni diqqat bilan ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi. Suv siyosatining asosiy maqsadi mavjud suv resurslaridan foydalanish va ulardan oqilona foydalanish natijasida maksimal foyda olishdir. Muvaffaqiyatli suv siyosati barcha darajalarda -



milliy, havzaviy, mintaqaviy yoki mahalliy loyihada ko‘rib chiqilishi kerak. U shtat, mintaq yoki daryo havzasining istalgan qismida mavjud bo‘lgan vaziyat va talablar doirasida ishlab chiqilishi va daryo havzasida mavjud hamda kelajakdagi suv ehtiyojlarini aholining o‘shini hisobga olgan holda qondirish uchun barcha usullar va yechimlarni qamrab olishi kerak. Shuningdek, hududning texnik va moliyaviy imkoniyatlarini ham unutmaslik kerak. Bu har bir darajadagi mavjud suv va moliyaviy resurslarni taqsimlash va boshqarishda to‘g‘ri rejalashtirishni talab qiladi. Milliy siyosat bilan bir qatorda suv siyosati ham milliy rivojlanish rejasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi kerak va suv ma‘muriyati milliy infratuzilmaning bir qismi sifatida milliy rivojlanish jarayonining rag‘batlantiruvchisi yoki mexanizmi sifatida harakat qilishi mumkin. Shuningdek, suv qonunchiligini to‘g‘ri tushunish, suv siyosati qarorlarini amalga oshirish, vositalarini yaratishi va suv resurslaridan oqilona foydalanishni osonlashtirishi mumkin. Suv to‘g‘risidagi qonunchilikning yetarli emasligi ulardan foydalanishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ko‘pgina hollarda suvga bo‘lgan talablarni boshqarish va bajarish hamda suv ta‘minotini tejashga oid amaldagi qonunchilik, suvga bitmas-tuganmas boylik sifatida qaralgan kundan boshlab ishlaydi. Vaqt suv iste‘molchilarining qo‘llarini "bo‘shatadigan" va ularga eskirgan boshqaruv shakllarini almashtirib, yangi bilim va texnologiyalarni olishga yordam beradigan qonunlarni ochib beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tez va tabiiy muhitdagi tub o'zgarishlar dunyo, hamda iqlim omillari va ortib borayotgan antropogen stress ostida iqtisodiy faoliyatning ta'siriga olib keldi. Bugun esa tabiatning bizga javobini ko'rmoqdamiz. To'fon, sel, tornado, zilzilalar, ko'chkilar, cho'llanish jarayonlari, sovuq, qurg'oqchilik, vulqon otilishi, tuproqlarning suv va shamol eroziyasi, do'l yog'ishi va boshqalar. Bizning fikrimizcha, zamonamizning ekologik muammolaridan biri, suvdan oqilona foydalanish, resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Ko'rinib turibdi ya'ni dunyo o'zining tarixiy tajribasiga asoslangan holda iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emasligiga ishonch hosil qildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, bu boradagi ko‘plab muammolarni hal etish manfaatdor tomonlarning suv resurslaridan birgalikda foydalanish, atrof-muhitning ifloslanishi, transchegaraviy muammolarni hal etish, qurib ketish oqibatlarini bartaraf etish masalalari bo‘yicha davlatlar o‘rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan bog‘liq.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Orol dengizi havzasining suv resurslari. 06/06/2009. // [Elektron resurs]. Kirish rejimi: URL: <http://ec-ifas.org/index.php/ru/2010-05-17>.
2. EC IFAS materiallari. Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasining 2002-2008 yillardagi faoliyati hisoboti. Dushanbe, 2008. 25-bet.
3. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari. // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. - C. 95.
4. Rahimov Sh.X., Xamraev Sh.R. Orol havzasidagi suv resurslari. // Ekologiya va statistika. Shanba. maqolalar. // [Elektron resurs]. Kirish rejimi: URL: [www.ireco.ru](http://www.ireco.ru).
5. Sidorova L. Markaziy Osiyo davlatlari: transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish muammolari. // Markaziy Osiyo va Kavkaz. 2008 yil. 1-son (55). 92-104-betlar.
6. "Markaziy Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal etishning xalqaro-huquqiy mexanizmlarini qo'llash" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilarining Toshkent ekologik deklaratsiyasi // [Elektron resurs]. Kirish rejimi: URL: [www.eco.uz](http://www.eco.uz).
7. Ekologiya huquqi. Darslik. / Mas`ul muharrir: M.B. Usmonov. - Toshkent: TDYI, 2006. - 361 b.
8. Ekologicheskoe pravo Respubliki Uzbekistan. Uchebnik dlya studentov, obuchayushixsya po spetsialnosti «Pravovedenie» // Avtorskiy sostav: Rustamboev M.X., Usmanov M.B., Juraev YU.A. i dr. // Otvetstvennyye redaktory: Skripnikov N.K., Juraev YU.A. - Tashkent: TGYUI, 2006. - 415 s.

**XALQARO EKOLOGIK TASHKILOTLARNING TOMONIDAN BUGUNGI  
KUNDA E'TIBOR QARATILISHI KERAK BO'LGAN EKOLOGIK  
MUAMMOLAR**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti*  
*3-kurs talabalari*  
**G'ayratullaev Umidillo**  
*@umidchan2002@gmail.com*  
*+998 94 946 35 35*  
**Abduxakim Ne'matov**  
*@abduhakimnematov3@gmail.com*  
*+998933970255*

**Annotatsiya:**

Insoniyatning atrof muhitga nisbatan salbiy oqibatlari kundan kunga iqlimdagi o'zgarishlarga, ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishda xalqaro tashkilotlarning katta o'rni bo'lib, hozirgi kunga qadar bu muammolarni hal qilishda o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. Biroq ushbu muammolarni hal qilishda nafaqat xalqaro ekologik tashkilotlar balki butun insoniyat faollik ko'rsatishi lozim. Ushbu maqolada xalqaro ekologik muammolar va bu muammolarni hal qilishda xalqaro ekologik tashkilotlarning faoliyati haqida so'z yuritimiz.

**Kalit so'zlar:** BMT, UNCC, ekologik muammolar, WWF, xalqaro ekologiya huquqi

**Экологические проблемы, на которые сегодня должны обратить внимание  
международные экологические организации**

**Аннотация:**

Негативное воздействие человечества на окружающую среду изо дня в день вызывает изменение климата и экологические проблемы. Международные организации играют большую роль в решении этих проблем, и они до сих пор работают над решением этих проблем. Однако в решении этих проблем должны проявлять активность не только международные экологические организации, но и все человечество. В данной статье мы говорим о международных экологических проблемах и деятельности международных экологических организаций в решении этих проблем.

**Ключевые слова:** ООН, UNCC, экологические проблемы, WWF, международное экологическое право

Ekologik muammolarni o'rganish yangi hodisa emas. Insoniyat tarixi doimo atrof-muhit bilan bog'liq. Sanoatlashtirish boshlanishi bilan unga yetkazilgan zararlar ko'lamini o'sa boshladi va bu vaqt o'tishi bilan ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topdi. 20-asrning ikkinchi yarmida jahon iqtisodiy o'sishning misli ko'rilmagan sur'atlari global miqyosda inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatning sifat jihatidan o'zgarishiga olib keldi. Natijada, ilm-fan ekologik muammolarga jiddiy e'tibor qarata boshladi va rivojlanishning boshqa modelini ishlab chiqishga harakat qila boshladi, bu esa uning ustuvor yo'nalishlarini o'zgartirishni nazarda tutadi.<sup>1</sup> Insoniyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar xronologiyasini tahlil qilish jarayonida bu ikki subyektlarning o'zara bir-biri bilan o'zara bog'liq ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ishlab chiqarish industriyasining rivojlanishi, populyatsiya ko'rsatkichlarining oshishi, bir qator qurolli to'qnashuvlar, urushlar va boshqa sabablar tufayli hozirga kunda aksariyat davlatlar bir qator "regional" va global ekologik muammolar bilan kurash olib borishiga to'g'ri kelmoqda. So'nggi yuz yil ichida biosferada insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida shunday o'zgarishlar sodir bo'ldiki, ular ko'lamini jihatidan tabiiy ofatlarga tenglashtirilishi mumkin. Ular biosferaning ekologik tizimlari va tarkibiy qismlarida qaytarilmas o'zgarishlarga olib keladi. Yechilishi inson faoliyatining biosfera miqyosiga salbiy ta'sirini bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammolar global ekologik muammolar deb ataladi. Mintaqaviy va global ekologik muammolar bilan kurash olib boruvchilar qatorida davlatlar, xalqaro ekologik tashkilotlar, hamda hukumatlararo xalqaro tashkilotlar ham o'rin olgan. Global ekologik muammolar insoniyatning mavjudligi uchun haqiqiy tahdiddir. Insonning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri bilan yer yuzida, havoda va suvda degradatsiya jarayonlari sodir bo'ladi. Har yili yuzlab hayvonlar va minglab o'simliklar tur sifatida yo'q bo'lib ketadi, suv ifloslanadi, atmosferaga katta hajmdagi karbonat angidrid chiqariladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida milliy strategiyalar, harakatlar rejaları, dasturlari, qonun hujjatlarini ishlab chiqishda xalqaro tashkilotlarning davlatlar hukumatlariga bevosita yordami muhim ahamiyatga ega. Ekologik muammolarni hal qilishda "de jure" va "de facto" aktlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida eng muhim xalqaro shartnomalar homiyligida ishlab chiqilgan xalqaro tashkilotlar qatoriga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO), Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO), Atom energiyasi bo'yicha

<sup>1</sup> Тенденции изучения проблем экологии в современной зарубежной науке о международных отношениях  
Наталья Пискулова

xalqaro agentlik (МАГАТЭ), Jahon oziq-ovqat tashkiloti (FAO), Yevropa Ittifoqi (YI), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va boshqa tashkilotlar kiradi.

Global ekologik muammolar yakka holda yuzaga kelmaydi va tabiiy muhitga birdaniga tushmaydi. Ular sanoat ishlab chiqarishining tabiiy muhitga salbiy ta'sirining to'planishi natijasida asta-sekin shakllanadi. Global ekologik muammolarning shakllanish bosqichlarini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin: alohida korxonalar, sanoat mintaqasi, mintaqalar, mamlakatlar, qit'a va yer shari miqyosida yuzaga keladigan ekologik muammolar. Bu ketma-ketlik mutlaqo tabiiydir, chunki dunyoning turli mamlakatlaridagi sanoat korxonalari bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan holda atrof-muhitga bir xil ifloslantiruvchi moddalarni chiqaradi.<sup>2</sup>

Iqlim inqirozi atrof-muhitning keskinlashuvida rol o'ynaydigan ko'plab omillarga ega bo'lsa-da, boshqalardan ko'ra ko'proq e'tiborni talab qiladigan omillar mavjud. Bu erda o'rmonlarning kesilishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishidan oziq-ovqat chiqindilari va tezkor modaga qadar hayotimizdagi eng katta ekologik muammolar mavjud.

### 1. Qazib olinadigan yoqilg'idan global isish

Nashr qilingan vaqtda CO<sub>2</sub> PPM (milliondagi qismlar) 418 ni tashkil qiladi va global haroratning ko'tarilishi sanoatdan oldingi darajaga nisbatan 1,1 daraja Selsiyga teng. Sayyoramizdagi karbonat angidrid miqdori oxirgi marta 4 million yil oldin hozirgidek yuqori bo'lgan. Issiqxona gazlari emissiyasining ko'payishi global haroratning tez va barqaror o'sishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida butun dunyoda halokatli hodisalarni keltirib chiqarmoqda. Avstraliya va AQShdan boshlab, tarixda qayd etilgan eng dahshatli o'rmon yong'inlari fasllarini boshdan kechirmoqda, chigirtkalar butun dunyo bo'ylab tarqalmoqda. Afrika, Yaqin Sharq va Osiyo, ekinlarning nobud bo'lishi va Antarktidada birinchi marta harorat 20 darajadan oshdi. Olimlar doimiy ravishda sayyora halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan bir qator burilish nuqtalarini kesib o'tganligi haqida ogohlantirmoqda, masalan, Arktika mintaqalarida abadiy muzlarning erishi, Grenlandiya muz qatlami misli ko'rilmagan darajada erishi<sup>3</sup>, oltinchi ommaviy qirg'inni tezlashtirish va Amazonkadagi o'rmonlarni kesishning kuchayishi. yomg'ir o'rmonlari, faqat bir nechtasini nomlash uchun.

Iqlim inqirozi tropik bo'ronlar va boshqa ob-havo hodisalari, masalan, bo'ronlar, jazirama to'lqinlar va toshqinlar avvalgidan ko'ra kuchliroq va tez-tez sodir bo'lishiga olib keladi. Biroq, barcha issiqxona gazlari chiqindilari darhol to'xtatilgan taqdirda ham, kelgusi yillarda global harorat ko'tarilishda davom etadi. Shuning uchun issiqxona gazlari emissiyasini keskin kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya

<sup>2</sup> [Глобальные экологические проблемы современности — Студопедия \(studopedia.ru\)](http://studopedia.ru)

<sup>3</sup> [Greenland ice sheet melted at unprecedented rate during July | Polar regions | The Guardian](https://www.theguardian.com/environment/2019/jul/19/greenland-ice-sheet-melted-at-unprecedented-rate-during-july-polar-regions)

manbalariga sarmoya kiritish va qazib olinadigan yoqilg'ilarni imkon qadar tezroq bosqichma-bosqich ishlab chiqarishni hozirdan boshlashimiz mutlaqo zarurdir.

## 2. Kambag'al boshqaruv

Nikolas Stern kabi iqtisodchilarga ko'ra, iqlim inqirozi ko'plab bozor muvaffaqiyatsizliklari natijasidir. Iqtisodchilar va ekologlar yillar davomida siyosatchilarni issiqxona gazlarini chiqaradigan faoliyat narxini oshirishga chaqirdilar.(bizning eng katta ekologik muammolarimizdan biri) Ularning etishmasligi bozordagi eng katta muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Masalan, uglerod solig'i orqali uglerod texnologiyalari, innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Emissiyalarni tez va samarali ravishda qisqartirish uchun hukumatlar nafaqat past uglerodli energiya manbalarining narxini pasaytirish uchun yashil innovatsiyalarni moliyalashtirishni ko'paytirishlari kerak, balki ular bozordagi boshqa muvaffaqiyatsizliklarning har birini hal qiladigan bir qator boshqa siyosatlarni ham qabul qilishlari kerak. Milliy uglerod solig'i hozirda dunyoning 27 mamlakatida, jumladan, Yevropa Ittifoqining turli mamlakatlarida, Kanadada, Singapurda, Yaponiyada, Ukrainada va Argentinada amalga oshiriladi. Biroq, 2019 yil uchun OECD soliq energiyadan foydalanish hisobotiga ko'ra, joriy soliq tuzilmalari energiya manbalarining ifloslanish profiliga mos kelmaydi. Misol uchun, OECD uglerod solig'i ko'mir qazib olish uchun etarlicha qattiq emasligini taklif qiladi, garchi u elektr sanoati uchun samarali ekanligini isbotladi. Shvetsiyada uglerod solig'i amaliyoti samarali amalga oshirilgan bo'lib unga ko'ra, uglerod solig'i bir tonna uchun 127 AQSh dollarini tashkil etadi. Shvetsiyaning ushbu sohadagi faoliyatini tahlil qilish jarayonida guvoh bo'lishimiz mumkinki, 1995-yildan beri chiqindilar 25% ga qisqargan bo'lib, shu bilan birga mamlakatning iqtisodiyoti xuddi shu davrda 75% ga o'sdi. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi tashkilotlar iqlim inqirozi bilan shug'ullanishdagi rolini qoniqarli deb baholay olmaymiz. Aksariyat hollarda BMT a'zolari tashkilot tomonidan berilgan har qanday taklif yoki tavsiyalarni bajarishga majbur emas. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi <sup>4</sup>doirasidagi kelishuvda aytilishicha, mamlakatlar issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishi kerak. Buning natijasida 2100-yilga kelib global haroratning ko'tarilishi selsiy bo'yicha 2 darajadan past, ideal holda esa 1,5 darajadan past bo'ladi. Ammo konvensiyaga a'zo bo'lish dispoziitiv xarakterga ega va unga rioya qilmaslikning salbiy(huquqiy majburlash) oqibatlarini yo'q.

## 3. Oziq-ovqat chiqindilari

Statistik ma'lumotlarga qaraganda inson iste'moli uchun mo'ljallangan oziq-ovqatning uchdan bir qismi ya'ni taxminan 1,3 milliard tonna isrof qilinadi . Bu 3 milliard odamni boqish uchun yetarli oziq-ovqat hisoblanadi.. Oziq-ovqat chiqindilari

<sup>4</sup> The Paris Agreement | UNFCCC



va qoldiqlari har yili issiqxona gazlari chiqindilarining uchdan bir qismini tashkil qiladi. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat chiqindilarining paydo bo'lishi va yo'qotilishi turli bosqichlarda sodir bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat chiqindilarining 40% o'rim-yig'imdan keyingi va qayta ishlash darajasida, rivojlangan mamlakatlarda esa 40% oziq-ovqat chiqindilari chakana va iste'molchi darajasida sodir bo'ladi. Afsuski, chakana savdo darajasida estetik sabablarga ko'ra hayratlanarli miqdorda oziq-ovqat isrof qilinadi. Misol uchun AQShda tashlab yuborilgan barcha mahsulotlarning 50% dan ortig'i (60 million tonna meva va sabzavotlarni tashkil qiladi) shunday qilinad. Mazkur oziq-ovaqatlarni iste'molchilarga qayta sotilishi "juda xunuk" deb hisoblanadi.

#### **4. Biologik xilma-xillikning yo'qolishi**

O'tgan 50 yil ichida inson iste'moli, aholi soni, global savdo va urbanizatsiyaning tez o'sishi kuzatilishi natijasida, insoniyat Yer resurslaridan tabiiy ravishda to'ldirishdan ko'ra ko'proq foydalandi. Yaqinda WWF hisobotida sut emizuvchilar, baliqlar, qushlar, sudralib yuruvchilar va amfibiyalar soni 1970-2016 yillar oralig'ida o'rtacha 68 foizga qisqargani aniqlandi.<sup>5</sup> Hisobotda biologik xilma-xillikning yo'qolishi turli omillar bilan bog'liq bo'lib, bular qatoriga: o'zgarishlardan foydalanish, xususan, o'rmonlar, o'tloqlar va mangrovlar kabi yashash joylarini qishloq xo'jaligi tizimlariga aylantirish bilan bog'liq. Pangolinlar, akulalar va dengiz otlari kabi hayvonlar yovvoyi tabiatning noqonuniy savdosidan sezilarli darajada aziyat chekmoqda hamda yuqorida nomi tilga olingan pangolinlar yo'qolib ketish xavfi kabi sababli jiddiy xavf ostida. Kengroq ma'noda, yaqinda o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Yerdagi yovvoyi tabiatning oltinchi ommaviy yo'q bo'lib ketishi tezlashmoqda. Quruqlikdagi hayvonlarning 500 dan ortiq turlari yo'q bo'lib ketish arafasida va 20 yil ichida yo'q bo'lib ketishi ehtimoli bor. Olimlarning ta'kidlashicha, inson tabiatni vayron qilmaganida, bu yo'qotish tezligi minglab yillar davom etgan bo'lar edi.

#### **5. Plastmassaning ifloslanishi**

1950 yilda dunyoda yiliga 2 million tonnadan ortiq plastmassa ishlab chiqarilgan. 2015 yilga kelib, bu yillik ishlab chiqarish 419 million tonnagacha ko'tarildi va atrof-muhitdagi plastik chiqindilarni kuchaytirdi. Nature ilmiy jurnalining hisoboti shuni ko'rsatdiki, hozirda har yili taxminan 14 million tonna plastmassa okeanlarga kirib, yovvoyi tabiatning yashash joylari va ularda yashaydigan hayvonlarga zarar etkazmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, agar hech qanday chora ko'rilmasa, 2040 yilga borib plastik inqiroz yiliga 29 million metrik tonnagacha o'sadi. Agar bunga mikroplastmassalarni qo'shsak, okeandagi plastmassaning umumiy miqdori 2040 yilga kelib 600 million tonnaga yetishi mumkin. Ajablanarlisi shundaki, National

<sup>5</sup> 68% Average Decline in Species Population Sizes Since 1970, Says New WWF Report | Press Releases | WWF (worldwildlife.org)

Geographic hozirgacha ishlab chiqarilgan plastmassaning 91 foizi qayta ishlanmasligini aniqladi, bu nafaqat hayotimizdagi eng katta ekologik muammolardan biri, balki bozordagi yana bir yirik nosozlikdir<sup>6</sup>. Plastmassaning parchalanishi uchun 400 yil kerakligini hisobga olsak, u yo'q bo'lguncha ko'plab avlodlar almashinuviga guvoh bo'lishimiz lozim. Plastik ifloslanishning uzoq muddatda atrof-muhitga qaytarilmas ta'siri qanday bo'lishini oldindan aytib bo'lmaydi.

## **6. Daraxtlarni kesish**

2030-yilga kelib sayyoramizdagi o'rmonlar yerning atigi 10 foizini tashkil etishi mumkin. Agar mana shunday salbiy tempda ya'ni, o'rmonlarni kesish to'xtatilmasa ularning barchasi 100 yildan kamroq vaqt ichida yo'q bo'lib ketishi mumkin. Qishloq xo'jaligi o'rmonlarning kesilishining asosiy sababi bo'lib, ushbu ro'yxatda paydo bo'lgan yana bir eng katta ekologik muammolardan biridir. Chorvachilik yoki shakarqamish, palma yog'i kabi sotiladigan boshqa ekinlarni ekish uchun ko'plab yashil hududlarda daraxtlarga qarshi "sanitariya" harakatlari amalga oshiriladi. O'rmonlarning kesish darajasi eng yuqori bo'lgan uchta davlat qatorga: Braziliya, Kongo Demokratik Respublikasi va Indoneziya kabi davlatlar kiradi. Biroq, hozirgi kunda Indoneziya o'rmonlarni kesish bilan kurashmoqda. Ijoblanarli tarafi shundaki, asr boshidan beri mamlakatda daraxtlarni kesishning eng past ko'rsatkichi kuzatilmoqda.

## **7. Havoning ifloslanishi**

Bugungi kunda eng katta ekologik muammolardan biri tashqi havoning ifloslanishidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, har yili dunyo bo'ylab 4,2 milliondan 7 milliongacha odam havo ifloslanishidan vafot etadi va har 10 kishidan to'qqiz nafari yuqori darajada ifloslantiruvchi moddalarni o'z ichiga olgan havodan nafas oladi. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, Afrikada 2017-yilda tashqi havoning ifloslanishi natijasida 258 ming kishi halok bo'lgan. Bu ko'rsatkich 1990-yildagidan 164 ming kishiga ko'p. Atmosfera ifloslanishining sabablari asosan sanoat manbalari va avtotransport vositalaridan, shuningdek, yonayotgan biomassa va chang bo'ronlari tufayli havo sifatining yomonligidan kelib chiqadi.

Yevropa Ittifoqi atrof-muhit agentligining yaqinda e'lon qilingan hisobotida havo ifloslanishi 2012-yilda YIda 400 000 kishining o'limga sabab bo'lganini ko'rsatdi.<sup>7</sup> COVID-19 pandemiyasidan keyin havoni ifloslantiruvchi gazlarning virus molekularini tashishdagi rolga e'tibor qaratildi. Dastlabki tadqiqotlar COVID-19 bilan bog'liq o'lim va havo ifloslanishi o'rtasida ijobiy bog'liqlikni aniqladi, shuningdek, virus tarqalishiga yordam beradigan havodagi zarralarning ishonchli aloqasi mavjud. Bu havo sifati yomon bo'lgan Xitoyda o'lim sonining ko'p bo'lishiga

<sup>6</sup> A whopping 91% of plastic isn't recycled (nationalgeographic.com)


<sup>7</sup> Report Links Air Pollution to More than 400,000 Deaths Annually in Europe (interestingengineering.com)

yordam berishi mumkin edi, ammo bunday xulosaga kelishdan oldin aniqroq tadqiqotlar o'tkazilishi kerak.

### 8. Muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishi

Iqlim inqirozi Arktikani sayyoramizning boshqa joylariga qaraganda ikki barobar tezroq isitmoqda. Bugungi kunda dengiz sathi Yerdagi haroratning oshishi natijasida 20-asrning katta qismidagiga qaraganda ikki baravar tez ko'tarilmoqda. Dengizlar hozir dunyo miqyosida yiliga o'rtacha 3,2 mm ga ko'tarilmoqda va bu asrning oxiriga kelib ular taxminan 0,7 metrgacha o'sishda davom etadi. Arktikada Grenlandiya muz qatlami dengiz sathi uchun eng katta xavf tug'diradi, chunki quruqlik muzlarining erishi dengiz sathining ko'tarilishining asosiy sababidir. Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlariga ko'ra, Grenlandiya muz qatlami 2019-yilda rekord miqdordagi muzni yo'qotdi. Ayni paytda, Antarktika qit'asi dengiz sathining ko'tarilishiga yiliga taxminan 1 millimetr hissa qo'shadi. Bu yillik global o'sishning uchdan bir qismidir. Bundan tashqari, Kanada muz xizmati ma'lumotlariga ko'ra, Kanadadagi Arktikadagi so'nggi to'liq buzilmagan muz shelfi yaqinda qulab tushdi va iyul oyi oxirida ikki kun davomida taxminan 80 kvadrat kilometr yoki 40% maydonini yo'qotdi. Dengiz sathining ko'tarilishi qirg'oq mintaqalarida yashovchilarga halokatli ta'sir ko'rsatadi Climate Central tadqiqot va targ'ibot guruhi ma'lumotlariga ko'ra, bu asrda dengiz sathining ko'tarilishi hozirda 340 milliondan 480 milliongacha aholi istiqomat qiladigan qirg'oq hududlarini suv bosishi va ularni xavfsizroq hududlarga ko'chib ketishga majbur qilishi, ular ko'chib o'tadigan hududlarda aholining haddan tashqari ko'payishiga va resurslarning zo'riqishiga hissa qo'shishi mumkin.

### COASTAL FLOODING BY 2100 SHANGHAI, CHINA



Misol uchun, Shanxay megapolisini olaylik, u pastda joylashgan Yangtze daryosi deltasi atrofida qurilgan. Aholisi bo'yicha dunyoning to'rtinchi shahri bo'lib,

geografik joylashuvi tufayli mintaqada suv toshqini xavfi yuqori. Ko'proq yog'ingarchilik tufayli yuzaga keladigan har qanday suv toshqini evakuatsiya, suvni boshqarish va mulkka zarar etkazish bilan bog'liq holda halokatli bo'lishi mumkin.

### **9. Okeanlarning kislotalanishi**



© <https://discover24.ru/>

Global haroratning ko'tarilishi nafaqat yer yuzasiga ta'sir qildi, balki okeanlarning kislotalanishining asosiy sababi hisoblanadi. Global haroratning ko'tarilishi okeanlardan Yer atmosferasiga chiqadigan karbonat angidridning taxminan 30 foizini o'zlashtiradi. Qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqish kabi inson faoliyati, shuningdek, o'rmon yong'inlarining ko'payishi kabi global iqlim o'zgarishi ta'siri tufayli uglerod chiqindilarining yuqori konsentratsiyasi chiqarilsa, dengizga qayta singib ketadigan karbonat angidrid miqdori ham oshadi. PH shkalasidagi<sup>8</sup> eng kichik o'zgarish okeanning kislotaligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Okeanning kislotalanishi dengiz ekotizimlari va turlari, uning oziq-ovqat tarmoqlari bo'ylab to'liq ta'sir ko'rsatishi va yashash muhitining sifatini qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Agar PH darajasi juda past bo'lsa, ustritsa, ularning qobig'i va skeleti kabi dengiz organizmlari eriy boshlaydi. Biroq, okeanning kislotalanishidan kelib chiqadigan eng katta ekologik muammolardan biri bu marjonning sayqallashi va keyinchalik marjon rifining yo'qolishidir. Bu okean haroratining ko'tarilishi riflar va unda yashovchi suv o'tlari o'rtasidagi simbiotik munosabatlarni buzilishiga, suv o'tlarini haydab chiqaradigan va marjon riflarining tabiiy jonli ranglarini yo'qotishiga olib keladi. Ba'zi olimlar marjon riflarining 2050-yilga kelib butunlay yo'q bo'lib ketish xavfi borligini taxmin qilishmoqda. Okeandagi yuqori kislotalilik marjon riflari tizimlarining ekzoskeletlarini tiklash va marjon oqartirish hodisalaridan tiklanish qobiliyatiga to'sqinlik qiladi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, okeanning kislotalanishi okeandagi plastik ifloslanishning ta'siridan biri sifatida bog'liq bo'lishi mumkin.

### **10. Qishloq xo'jaligi**

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, global oziq-ovqat tizimi inson tomonidan chiqariladigan issiqxona gazlarining uchdan bir qismiga to'g'ri kelib, ularning 30 foizi

<sup>8</sup> **Vodorod indeksi** - suvli eritmalarning kislotaliligini aniqlash uchun o'lchov. Vodorod ionlarining konsentratsiyasi bilan bog'liq bo'lib, bu juda suyultirilgan eritmalardagi vodorod ionlarining faolligiga teng.

chorvachilik va baliqchilikka to'g'ri keladi. O'simlikchilik o'g'itlardan foydalanish orqali azot oksidi kabi issiqxona gazlarini chiqaradi. Qishloq xo'jaligi nafaqat katta hajmdagi yerlarni qamrab oladi, balki juda katta miqdordagi chuchuk suvni ham ishlatilishiga olib kelmoqda. Bu esa ro'yxatdagi eng katta ekologik muammolardan biridir. Ekin maydonlari va yaylovlar Yer yuzasining uchdan bir qismini egallagan bo'lsada, ular dunyodagi cheklangan chuchuk suv resurslarining to'rtidan uch qismini iste'mol qiladi. Olimlar va ekologlar doimiy ravishda hozirgi oziq-ovqat tizimimizni qayta ko'rib chiqishimiz kerakligi haqida ogohlantirmoqda.

### **11. Oziq-ovqat va suv xavfsizligi**

Haroratning ko'tarilishi va beqaror dehqonchilik amaliyoti suv va oziq-ovqat xavfsizligi tahdidining kuchayishiga olib keldi va mantiya bugungi kunda eng katta ekologik muammolardan biri sifatida qabul qilindi. Dunyo miqyosida har yili 68 milliard tonnadan ortiq tuproq qatlami tabiiy ravishda to'ldirilishi mumkin bo'lganidan 100 baravar tezroq eroziyalanadi. Biotsidlar va o'g'itlar bilan to'ldirilgan tuproq suv yo'llariga tushadi va u yerda ichimlik suvi va quyi oqimdagi qo'riqlanadigan hududlarni ifloslantiradi. Bundan tashqari, ochiq va jonsiz tuproq uni ushlab turadigan ildiz va miselyum tizimlarining yetishmasligi tufayli shamol va suv eroziyasiga ko'proq moyil bo'ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 2050-yilga borib dunyo aholisi 9 milliard kishiga yetishi kutilmoqda<sup>9</sup>. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning aytishicha, "Agar zudlik bilan ushbu vaziyat yuzasidan chora ko'rilmasa, yuzlab million kattalar va bolalarga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha global favqulodda vaziyat borligi tobora oydinlashmoqda".<sup>10</sup> U mamlakatlarni oziq-ovqat tizimlarini qayta ko'rib chiqishga chaqirdi va barqaror dehqonchilik amaliyotlarini rag'batlantirdi. Suv xavfsizligi nuqtai nazaridan, dunyodagi suvning atigi 3 foizi chuchuk suvdir va uning uchdan ikki qismi muzlatilgan muzliklar ichida joylashgan yoki boshqa sabablarga ko'ra foydalanishimiz mumkin emas. Natijada, dunyo bo'ylab qariyb 1,1 milliard odam suvdan mahrum bo'lib, jami 2,7 milliard kishi esa yilning kamida bir oyida suv tanqisligini his qilmoqda. 2025 yilga kelib, dunyo aholisining uchdan ikki qismi suv tanqisligiga duch kelishi mumkin.

### **12. Moda va to'qimachilik chiqindilari**

Moda va kiyim-kechaklarga bo'lgan global talab misli ko'rilmagan sur'atda o'sib bormoqda. Hozirgi vaqtda moda sanoati global uglerod chiqindilarining 10 foizini tashkil etadi va bu bizning davrimizning eng katta ekologik muammolaridan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi ma'lumotlariga ko'ra, faqat moda aviatsiya va transport sohalari jamlanganidan ko'ra

<sup>9</sup> The future of food and agriculture Trends and challenges © FAO, 2017

<sup>10</sup> [United Nations Secretary-General Antonio Guterres warns of global food shortage - ABC News](#)



ko'proq issiqxona gazlari emissiyasini va global chiqindi suvning qariyb 20 foizini yoki to'qimachilikni bo'yashdan 93 milliard kub metrni tashkil qiladi<sup>11</sup>. Bundan tashqari, dunyoda har yili kamida 92 million tonna to'qimachilik chiqindilari hosil bo'ladi va bu raqam 2030 yilga borib yiliga 134 million tonnaga ko'tarilishi kutilmoqda. Chilikdagi eng qurg'oqchil cho'l bo'lgan Atakamada ko'rinib turganidek, kam rivojlangan mamlakatlarda ham monumental miqdordagi kiyim-kechak to'qimasi tashlanadi. Bu yerda boshqa xalqlarning kamida 39 000 tonna to'qimachilik chiqindilari chirigan. Bular bizning sayyoramizni qiynayotgan eng katta ekologik muammolardan biri bo'lsa-da, yana ko'p narsalar, jumladan, ortiqcha baliq ovlash, shaharlarning kengayishi, zaharli superfond maydonlari va yerdan foydalanishdagi o'zgarishlar haqida gapirilmagan. Inqirozga javobni shakllantirishda ko'p jihatlarni hisobga olish kerak bo'lsa-da, ular muvofiqlashtirilgan, amaliy va yetarlicha o'zgarishlarni amalga oshirish uchun etarlicha keng qamrovli bo'lishi kerak.

### **13. Haddan tashqari ko'p baliq ovlash**

Dunyo bo'ylab uch milliarddan ortiq odam baliqni oqsilning asosiy manbai sifatida qabul qiladi. Dunyoning 12% ga yaqini u yoki bu shaklda baliqchilik bilan shug'ullanadi. Ularning 90% kichik baliqchilardir. (kichik bir ekipaj kemada emas, balki qayiqda kichik to'rlardan, hatto tayoqchalar va g'altaklardan foydalanuvchi baliqchilar). Aksariyat odamlar 50 yil oldingiga qaraganda taxminan ikki baravar ko'p oziq-ovqat iste'mol qiladilar va yer yuzida 1960-yillarning oxiriga qaraganda to'rt baravar ko'p odamlar bor. Bu tijoriy baliq ovlanadigan suvlarning 30% "haddan tashqari ovlangan" deb tasniflanishining sababidir. Bu shuni anglatadiki, mavjud baliq ovlash suvlari zaxirasi almashtirilishi mumkin bo'lgandan ko'ra tezroq tugaydi. Haddan tashqari baliq ovlash atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatadi. Suvda suv o'tlarining ko'payishi, baliq ovlash jamoalarining yo'q qilinishi, okean axlatlari, shuningdek, biologik xilma-xillikni yo'qotishning juda yuqori darajasi kabi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG 14) doirasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va FAO baliq zahiralari ulushini biologik jihatdan barqaror darajada ushlab turish ustida ishlamoqda. Biroq, bu dunyo okeanlari uchun mavjud bo'lganlarga qaraganda ancha qat'iyroq qoidalarni talab qiladi. 2022-yil iyul oyida JST(WTO) tarixiy kelishuvga ko'ra, global baliq ovlashni kamaytirish uchun baliq ovlash subsidiyalarini taqiqladi. Darhaqiqat, yoqilg'i, baliq ovlash vositalari va yangi kemalar qurish uchun subsidiyalar faqat ortiqcha baliq ovlashni rag'batlantiradi.

Yuqorida tilgan olingan muammolar nafaqat xalqaro tashkilotlar balki, butun insoniyatning muammosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan muammolarni hal qilishdagi vazifalarni faqat xalqaro tashkilotlarga yuklashning o'zi xato hisoblanadi.

<sup>11</sup> [UN launches drive to highlight environmental cost of staying fashionable | UN News](#)



Muammolarni hal qilishni shaxsiy, kasbiy, siyosiy darajada hal qilishga bo'lish mumkin.

### **1. Shaxsiy darajada**

Shaxsiy hayotimizda iqlim ta'siriga yondashish yo'llari hamjamiyatga qo'shilish ta'siringizni oshirishning eng yaxshi usullaridan biri bo'lishi mumkin. Birinchidan, u bir vaqtning o'zida yuzlab ulanishlarni(networking) amalga oshirish imkonini beradi. Ikkinchidan, birgalikda ishlaydigan bir guruh odamlar alohida shaxslarga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qandaydir ma'noda, insonlar ekologik muammoni hal qilish uchun yakdil sotsiumga kelishidan oldin, islohotlarni o'zida boshlashi lozim.

### **2. Kasbiy darajada**

Ish joyidagi iqlim ta'siriga yondashish usullari:

Karyera yo'lingizni davom ettiring, lekin daromadingizning bir qismini mazmunli va ta'sirli maqsadlarga erishishga qaratilgan tashkilotlarga xayriya qilishni o'ylab ko'ring. Bu shaxsiy darajadan keying bosqich bo'lib, unda shaxsning o'zida(shaxsiyatida) islohot olib borilganidan so'ng, sotsium bo'lib bu muammolarni hal qilishga birlashishidir.

### **3. Siyosiy darajada**

Saylovchi yoki siyosiy aktyor sifatida iqlim harakatiga yondashish usullari :

Norozilik bildiring, his-tuyg'ularingizni bildiring, do'stlaringiz va oilangiz bilan (haddan tashqari tajovuzkor bo'lmasdan) iqlim harakati zarurligining ovozli va ishtiyoqli himoyachisi bo'ling. Iqlim bo'yicha aksiyalar va mahalliy norozilik namoyishlarini uyushtirayotgan tashkilotlarga qo'shiling, xoh shahringizda, tumaningizda yoki hatto maktabda. Hukumatlar tomonidan samarali iqlim choralarini qo'llab-quvvatlaydigan siyosatchilarga ovoz bering (agar iloji bo'lsa).

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. Тенденции изучения проблем экологии в современной зарубежной науке о международных отношениях Наталья Пискулова
2. Глобальные экологические проблемы современности — Студопедия (studopedia.ru)
3. Greenland ice sheet melted at unprecedented rate during July | Polar regions | The Guardian
4. The Paris Agreement | UNFCCC
5. 68% Average Decline in Species Population Sizes Since 1970, Says New WWF Report | Press Releases | WWF (worldwildlife.org)
6. A whopping 91% of plastic isn't recycled (nationalgeographic.com)
7. Report Links Air Pollution to More than 400,000 Deaths Annually in Europe (interestingengineering.com)
8. **The future of food and agriculture Trends and challenges** © FAO, 2017
9. United Nations Secretary-General Antonio Guterres warns of global food shortage - ABC News
10. UN launches drive to highlight environmental cost of staying fashionable | UN News

ENGLISH LANGUAGE FOR KIDS

*Eldor O`rinboyev*

*Faculty of Tourism Chirchik State Pedagogical University  
Chirchik, Uzbekistan*

**Abstract**

Bu maqola orqali hozirda ingliz tilini bolalarga o`rgatishning zamonaviy usullari va asosiy aspektlari haqida gap boradi. Bundan tashqari ko`pgina esda qolarli va qiziqarli mashg`ulotlar haqida batafsil ma`lumot beriladi.

**Abstract**

This article talks about modern methods and main aspects of teaching English to children. In addition, many memorable and interesting activities are given detailed information.

**Key words:** kids, games, pictures, words, movies, cartoons, interests, method, funny activities, memorable, English books.

Nowadays, current modern language is English, it is recommended to teach children English from a young age. Because children's attrition is high in their youth. It is necessary to be gentle with children because children are the owners of our future and any small mistake made in their upbringing in their youth will play a big role in their future. The main purpose of teaching English to children is to ensure that they will be the necessary personnel for the future of our country when they become specialists in the field. You may be wondering how, but I can tell you that there are professors who have the knowledge and the ability to explain it to you in any area of English. As an example of these fields.

In order to teach children, scientists recommended teaching them with games, cartoons and other activities. They should be interested in science from now on, without leaving them bored. In order to teach English to children perfectly, it is necessary to teach them to behave freely in class and to talk to them in a friendly tone and treat them politely like friends. In this regard, obviously that we can apply many methods.

- Animal picture
- Colorful cards
- Funny activities
- Group games
- Movies and Cartoons
- Dancing to music

As a matter fact that, every teacher has own method and methods of interest, and I think that the teacher`s should definitely add one of the above interesting methods to own work concept as a result with the help of these ways, teacher will achieve kids` interested and smile. Moreover, the most important thing is the children`s interest, however it is not easy and obviously it is done with many difficulties. I believe that the children's interest in science and their desire to learn will increase with the help of the above activities.

As a result of these activities, they do not necessary to have all these in one instructor, but some very necessary ones should be taught, even thought all these exercises are very necessary and useful. If we take the firstly this is a **pictures of animals**. For example, in a book or on cards, it is interesting for the child, and the student is interested in what this object is and how it is called in a foreign language. During the game, the learner will remember and add knowledge to knowledge. Secondly, **funny activities and group games** are very effective for every kids which could not understand the topic or do not want to study because of these activities are really interesting. There are many ways to teach children but one of the most exciting and rewarding ways to do it is by using games. Games not only engage the children, but also teach through play – and most of the time the children don`t even know they are learning until the time comes to show their knowledge! It truly is possible to create a classroom where the students not only learn but also truly enjoy their time there. Through this, everyone gets active, both passive and active pupils, and as a result, all children get the same education, that is, nobody is left out. Moreover, **watching movies or cartoons** the main aspects for teacher because of these activities are one of the most interesting for both the teacher and the child, because it is equally enjoyable for everyone to watch. Lastly, learning verbs while **dancing** the most effective and funny activity. For instance, dance, jump, walk, touch, move, hold, and others. It's a great and wonderful feeling when a child comes and the teacher says, "I wish you had more lessons` isn't it wonderful?"

All in all, in order to teach children English easily, it is necessary to teach them together with where they will be in practical life, that is, for example, to go on trips with children on the topics being taught, or in situations where this is not possible, to enlighten them through dances, films for children, cartoons, and various games. For example, in the autumn season, when children are taught about colors, they are taken out to the school garden and asked about their colors in English by showing them the leaves of trees, the sky, the sun, and horses. There is a desire for science.

#### USED LITERATURE

1. Family and Friends 2 The Bear on the Stairs. Oxford. @booksforachild.
2. Picture Grammar for Children.<https://t.me/booksforachil>.
3. [https://play.google.com/store/apps/details?id=com.funbox.englishkid&hl=en\\_US &gl=US](https://play.google.com/store/apps/details?id=com.funbox.englishkid&hl=en_US&gl=US)
4. <https://learnenglishkids.britishcouncil.org/>
5. <https://t.me/CartoonsinEnglishiwithsubtitl>

## OZON QATLAMINI YEMIRILISHNING EKOLOGIK XAVFLARI VA UNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

*Samatova Nargiza Shavkatbek qizi*

*Abdujbarova Aziza Abdujalil qizi*

*Toshkent davlat Yuridik universiteti*

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabalari*

**Annotatsiya:** Progressiv rivojlanish jarayonida zamonaviy sivilizatsiya, insoniyat doimo jamiyatning hayot sifatini yaxshilash uchun atrof-muhitni o'zgartiradi Biroq, natijada bunday o'zgarishlar ba'zan kutilmagan zararli oqibatlarga olib keladi. Ular nafaqat inson hayoti va sog'lig'iga ta'sir qiladigan oqibatlar, balki barcha tirik mavjudotlarning mavjudligiga bevosita tahdid bo'ladi. Ushbu maqolada ozon qatlamining yemirilish sabablari va a uni oldini olishning xalqaro huquqiy asoslari haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Ozon, Ozon teshiklari, Ozon qatlamining yemirilishi, Ozon xususiyatlari, Yaxshi ozon, Yomon ozon, huquqiy asoslari

### KIRISH

Dunyoda biologik muvozanatni saqlaydigan atmosferadagi eng muhim gazlardan biri bo'lgan ozon, havoni tozalash orqali dunyo hayotining davom etishiga hissa qo'shadi. Bir necha oy davomida oziq-ovqat va suvsiz yashay oladigan odam havosiz 5 daqiqa yashay olmaydi. Shu sababli, hayotning qurilish bloklaridan biri bo'lgan turli xil kislorod shakllari ham sog'lom hayot uchun ishlatiladi. Ozon bu shakllardan biridir. Havoga ko'k rang beradigan ozon deyarli barcha yomon hidlarni yo'q qila oladigan noyob gazdir. Bu ma'lum bo'lgan eng kuchli dezinfektsiyalovchi va oksidlovchi gaz hisoblanadi.

*Ozon.* Ozon – rangsiz, o'ziga xos o'tkir hidli gazdir. Ozon qatlami stratosferaning 12 dan 50 km gacha balandlikdagi bir qismidir. Ozon - yuqori konsentratsiyali O<sub>2</sub> qatlami, qalinligi taxminan 3 mm. Atmosferaning ozon qatlami quyoshning insoniyat uchun, umuman yer yuzidagi barcha hayvon va nabotot uchun o'ta zararli bo'lgan ultrabinafsha nurlarini "tutib" qoluvchi asosiy to'siq hisoblanadi. Sodda qilib aytganda, ozon yer yuzining soyabonidir. Ozon bizning atmosferamizning juda kichik qismidir, ammo uning mavjudligi inson farovonligi uchun katta ahamiyatga ega. Ozonning katta qismi atmosferada, Yer yuzasidan 10-40 km balandlikda joylashgan. Bu hudud stratosfera deb ataladi va barcha atmosfera ozonining taxminan 90% ni o'z ichiga oladi. Birinchi marta Ozon 1840- yilda kashf etilgan. Ushbu kashfiyot 1840- yilda nemis kimyogari Kristian Fredrik Shonbayn tomonidan amalga oshirilgan. Havoda fosfor oksidlanishi yoki kislotalangan suv elektrolizida ajralib chiqadigan kislorod yaxshi hid

ekanligini aniqlagan Shönbayn bu hidni keltirib chiqaradigan gazga “ozon” deya nom berdi.



#### *Ozon teshiklari.*

Ko'pgina tashqi ta'sirlar natijasida ozon qatlami o'zining tabiiy qatlamiga nisbatan yupqalasha boshladi va ma'lum bir ta'sirlar natijasida, ma'lum hududlar ustida butunlay yo'q bo'lib ketayapdi- ya'ni ozon ozon teshiklari paydo bo'la boshladi. Ta'kidlash joizki, ozon teshigi asosan Antarktida ustida joylashgan bo'lib, Ozon qatlami uchun zararli gazlarning aksariyati rivojlangan mamlakatlarda chiqarilganiga qaramay, bu gazlarni Antarktida tomon olib boradigan atmosfera oqimi mavjud. Mutaxassislar uning paydo bo'lishini atmosferadagi o'zgacha sharoitlar bilan, xususan, ozon darajasining keskin pasayishiga olib kelgan stratosferadagi ayozli haroratlar bilan bog'lashadi. 1985 yil may oyida Britaniya Antarktika tadqiqotining xulosalari bilan maqola nashr etilgandan so'ng, Antarktida ustidagi ozon qatlamining emirilishi fenomeni "ozon teshigi" deb nomlandi. Bu atama birinchi marta Nobel mukofoti sovrindori Shervud Rouland tomonidan qo'llanilgan deb tahmin qilinadi.

#### *Ozon qatlamining yemirilishi.*

Olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, ozon qatlamining yemirilishiga kundalik hayotimiz davomida foydalanadigan sovitish texnikalari, yong'in o'chirish vositalari, tarkibida galogenlar) bo'lgan kimyobiy moddalarning sanoatda va qurilish sohalarida keng qo'llanilayotgani asosiy sabablardan biridir.

Shu o'rinda, Ozon qatlamining yana bir qancha yemirilish sabablari mavjud:

Birinchidan, bu kosmik raketalarining uchirilishi. Yonayotgan yoqilg'i ozon qatlamidagi katta teshiklarni "yoqadi". Bir paytlar bu "teshiklar" yopilgan deb taxmin qilingan. Afsuski yo'q. Ular anchadan beri mavjud.



Ikkinchidan, samolyotlar. Ayniqsa, 12-15 km balandlikda uchadiganlari. Ular chiqaradigan bug' va boshqa moddalar ozonni yo'q qiladi.

Uchinchidan, azot oksidlari. Ular yuqorida ta'kidlab o'tilgan samolyotlar tomonidan tashlanadi, lekin ularning ko'pchiligi tuproq yuzasidan chiqariladi.

To'rtinchidan, bu xlor va uning kislorod bilan birikmalari. Kimyo zavodlarining atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlari ya'ni freonlar ozonning eng xavfli kushandalari sifatida e'tirof etila boshlandi.

Ozon qatlamining yemirilishiga nafaqat insoniyatning balki tabiiy jarayonlarning ham o'ziga yarasha salbiy ta'siri bor.

Vulqonlarning uyg'onishi, yer qaridan gazlarning ajralib chiqishi bu qatlamdagi tuynuklarni kengaytiradi. Ozon qatlamining yemirilishi natijasida katta miqdorda quyosh radiatsiyasi yer yuziga yetib keladi. Laboratoriya va epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shu sababdan teri saratoni, onkologik kasalliklarning soni ortib, immun tizimida susayish kuzatiladi, insonning eng zarur azolaridan biri ko'zlari zararlanadi, hosildorlik pasayib ketadi, daraxtlar parvarish qilinishiga qaramasdan qurib qolaveradi, qattiq ultrabinafsha nurlari dunyo okeanidagi o'simliklar va jonzoatlarni ham zararlaydi.

*Ozon xususiyatlari:*

- ❖ Atmosferaning ozon qatlami quyoshning ultrabinafsha nurlarini ushlab qoladigan qalqon

- ❖ Ozon eng kuchli oksidlovchi (shunchaki zahar) hisoblanadi, yer darajasidagi ozon xavflidir;

- ❖ Yer yuzasidagi infraqizil nurlanishni yutish qobiliyati

- ❖ Atmosferaning kimyoviy tarkibiga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir qilish qobiliyati

"Yaxshi ozon" va "yomon ozon" mavjud. "Yomon Ozon" - bu olimlar fitokimyoviy smog deb ataydigan narsa. Stratosferadagi ozon odatda "yaxshi" ozon deb ataladi, chunki u yerni halokatli nurlanishdan himoya qiladi. Qolgan 10 % "yomon" ozonning aksariyati atmosferaning sirt qatlamida -troposferada va ma'lum konsentratsiyalarga erishib, u aholi salomatligi va farovonligi uchun xavf tug'diradi.

*Ozon qatlamini muhofaza qilishning Xalqaro huquqiy asoslari*

1985 yilda Ozon qatlamini himoya qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi qabul qilinganligi ozon muammosini hal etish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarning aniq mexanizmi bo'ldi. Mazkur Konvensiya doirasida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda xalqaro hamkorlik, ozon qatlamini tizimli monitoring qilish, ozonni yemiruvchi moddalar – xlorftoruglerodli birikmalarning ishlab chiqarilishi monitoringi va axborot almashinuvi ko'zlangan. Ilmiy tadqiqotlar davomida ozonni yemiruvchi eng zararli moddalar hamda kelgusida xalq xo'jaligida ishlatish uchun yaroqli bo'lgan moddalar aniqlanib, uning natijalari 1987 yil 16 sentabrda rivojlangan va rivojlanayotgan



davlatlar tomonidan Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokolining qabul qilinishiga asos bo'ldi.

Monreal protokoli ozon qatlamini himoya qilishdek global muammoni yechishda muhim hujjatga aylandi. Unda ozonni yemiruvchi asosiy moddalar belgilanib, ularga tarkibida xlor, ftor, brom, uglerod va vodorod kabi uglevodorod sinfiga taalluqli kimyoviy birikmalar kiritilgan, ularni ishlab chiqarish va foydalanishni qisqartirish va oxir oqibat umuman bartaraf etish bo'yicha reja-jadval, shuningdek bu jarayon ustidan nazorat belgilangan.

Yakuniy mulohazalar. Ozon qatlamining yemirilishi zararli nurlarning ayovsiz yerga yog'ilishi va shu bilan birga iqlim o'zgarishlariga ham sabab bo'lishi mumkin. Bugungi kunda xo'jalik faoliyatida bromli metil, galonlar, freonlar, xladonlar va tetraxloruglerodlarni ishlatilishi ozon qatlamini siyraklashishiga olib kelmoqda. Ozon siyraklashgandan so'ng Quyoshning ultrabinafsha nurlarini yaxshi yuta olmaydi. Bu nurlar Yer yuziga kelib insoniyat rivojiga aks ta'sir qiladi. Bu muammo bugungi kunda ham, kelajak uchun ham dolzarbdir.

Ozon qatlamini saqlash uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'rilishi zarur:

1) Ozon qatlamini kuzatishni davom etish, undagi o'zgarishlarini darhol ko'ra bilish uchun.

2) Mamlakatlar tomonidan qabul qilingan, ratifikatsiya qilingan shartnomalar yuzasidan ulardagi majburiyatlar bajarilishini ta'minlash.

3) Ozon qatlamidagi o'zgarishlar sabablarini aniqlash ustida ishlashni davom ettirish va ozonning yemirilishida yangi kimyoviy moddalarning zararli xususiyatlarini baholash va ularning iqlim o'zgarishiga ta'sirini kuzatish.

Shu o'rinda, Yurtimizda Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan harakatlarga ham to'htalib o'tsak, O'zbekiston Respublikasi 1993-yildan buyon Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi va Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli tomoni hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Vena Konvensiyasi bo'yicha Monreal protokolining majburiyatlarini bajarish yuzasidan 2005-2019-yillar davrida ozon qatlamini buzuvchi moddalardan foydalanish miqdorini 884 tonnadan 33 tonnagacha kamaytigan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Monreal protokolining A, V va Ye ro'yxatlarida, shuningdek, S ro'yxati II va III guruhlarida ko'rsatilgan moddalarni import qilish taqiqlangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Nebel B., Atrof-muhit fanlari, V.1 dunyo qanday ishlaydi.-2010. -34b.
3. Gvishiani D.M., Rim klubi. Yaratilish tarixi, tanlangan ma'ruzalar va nutqlar, rasmiy materiallar, M., 2011. -58.b.
4. Mikael P. Todaro, Iqtisodiy rivojlanish, M., 2010. -20.b
5. Vronskiy V.A. Amaliy ekologiya: ta'limga sarflash: Feniks, 2012. -100.b

## INFORMATIKA INSON TARAQQIYOTINING ASOSIDIR

*Sheraliyev Fazliddin**Shayxontohur tumani kasb-hunar maktabi**Informatika va Axborot texnologiyalar fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada «Informatika inson taraqqiyotining asosidir Kasb-hunar maktablarida Informatika darslarida o'zlashtirish samaradorligini oshirish» haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Informatika metodlari, dars texnologiyasi, AKT, Individuallik.

Informatika darslarida o'zlashtirish samaradorligini oshirish yo'nalishining istiqbollari va rivojlanishi bilan bir qatorda hozirgi kunda informatika fanini o'qitishning talablari, mazmuni hamda shakllari ham o'zgarib bormoqda. Hozirgi kunda o'quvchilar informatika darslaridan tashqari kompyuterda ishlash uchun juda ko'p imkoniyatlarga egadirlar, bular ayrim texnologiyalarga ixtisoslashgan to'garaklar, kompyuter klublari, kompyuterning uyda mavjudligi. Bunday faoliyat yo'naltirilib, aniq tashkil etilmasa, nomaqbul natijalarga olib kelishi mumkin:

❖ o'quvchilarda informatika fanidan o'z bilim darajalari xususida noto'g'ri fikr shakllanishi mumkin. Umuman o'quvchilar «Informatika» hamda «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari» fanlarini vazifalarini aniq ajrata olmaydilar;

❖ informatika darslarida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilar doim ham qo'llay olmaydilar. «Informatika va AKT» « bu turli soxalardabiror bir maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladigan vosita degan tushuncha xali o'quvchilarda shakllanmagan;

❖ bolalarning yosh xususiyatlariga qarab har xil yoshdagi o'quvchilarning kompyuterda ishlash uchun psixologik tayyorgarligi turli bo'ladi.

Axborot madaniyatini to'liq o'zlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish hozirgi zamon talablaridan biridir. Informatika va AKT o'qituvchisining maqsadi - axborot jamiyatida yashay oladigan shaxsning shakllanishiga o'z xissasini qo'shish.

*Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:*

- ✓ o'quvchilarda axborot madaniyati elementlarini shakllantirish uchun sharoit yaratish;
- ✓ mustaqil bilim olish hamda o'z ustida ishlash malakalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish;
- ✓ informatika va AKTni o'qitishda fanlararo bog'liqlik;
- ✓ iqtidorli o'quvchilarni aniqlash uchun shart-sharoit yaratish.

Informatika fanini o'qitish shakllari.

***O'qitishning umumiy shakllarini quyidagilarga ajratish mumkin:***

- *frontal o'qitish*
- *jamo bo'lib o'qitish*
- *guruhlarga bo'lib o'qitish*
- *juftlikda ishlash*
- *individual o'qitish*

Kasb-hunar maktablari o'quvchikarini o'qitishning umumiy shakllarini ajratishda o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi orasidagi kommunikativ aloqa xususiyatlariga asoslanilgan.

Frontal o'qitish - o'qitishning an'anaviy turlaridan biri xisoblanib, o'qituvchi butun sinf bilan yagona mazmun, maqsad va vazifalar asosida ish olib boradi. Ushbu o'qitish shaklidan suhbat, ko'rgazmalilik, amaliy metodlarni qo'llashda hamda o'quvchilar bilimni nazorat qilish jarayonida foydalaniladi.

Jamo bo'lib ishlash « o'qitishning frontal shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, bunda sinf o'quvchilariga o'z liderlari va o'zaro aloqa qilish xususiyatlariga ega bir butun bir jamoa deb qaraladi.

Guruhlarga bo'lib ishlash - o'quvchilar turli muddatga shakllanganguruhlarga bo'linadi. O'qitishning bu shaklidan yangi dasturiy vositalarni o'rganishda, loyihalar utida ishlashda, kompyuterlar soni yetarli bo'lmaganida foydalanish mumkin. Guruhlarga bo'linib ish olib borilganda, guruhlar ichida jadal axborot almashish amalga oshiriladi. Shuning uchun, guruhlar turli bilim darajasiga va qiziqishiga ega o'quvchilardan shakllantirilishi zarur. Turli bilim darajasidagi o'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilish natijasida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

Juftliklarda ishlash - o'quvchilar juftliklarga bo'linib, yagona bir vazifani hal qilish maqsadida o'zaro o'rganish, o'zaro nazoratni amalga oshiradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim hollarda o'quvchiga sinfdoshining yordami o'qituvchining yordamidan ko'proq samara berishi mumkin.

Individual ishlash - o'qituvchining bir o'quvchi bilan o'zaro aloqasi (repetitorlik, tyuterlik, konsultatsiyalar berish va boshqalar)undan tashqari Kasb-hunar maktablarida Informatika darslarda har bir o'quvchining individual faoliyatini boshqarish murakkab jarayondir. O'qituvchi ushbu faoliyatni samarali boshqarishi uchun o'z pedagogik tajribasini yo'naltirib, o'rgatuvchi dasturlar, mavjud dasturiy vositalar hamda axborot resurslaridan dars jarayonida foydalanishi zarur. Kasb-hunar maktablarida

Informatika individual o'qitishning yangi bir turi «o'quvchi va kompyuter»ni shakllantiradi. Kasb -hunar maktablarida O'quvchi kompyuter bilan yakkama yakka kolib, o'zi uchun o'quv materialini o'zlashtirishning individual rejasini ishlab chiqadi.

*Kasb-hunar maktablari O'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri- o'quvchida mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish.*

Namoyish. O'qituvchi ekranda o'quvchilarga kurs mazmunining turli elementlarini namoyish etadi: interfeys, dasturlar, sxemalar, matnlar, rasmlar va boshqalar. O'qituvchi ekran yordamida kompyuterda turli vazifalar bajarilishini ko'rsatadi, o'quvchilar o'z kompyuterlarida bajaradilar. Namoyishning asosiy funksiyasi - o'quvchilarga yangi o'quv axborotni yetkazish. Laboratoriya ishi (frontal)informatika kabinetida ishlashning asosiy shakllaridan biri. Barcha o'quvchilar o'z ish joylarida tegishli dasturiy vositalar bilan ish olib boradilar. Shuningdek o'quvchilar sinxron tarzda turli dasturiy vositalar bilan o'quv faoliyatini olib borishlari mumkin. Frontal laboratoriya ishi jarayonida o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning ishlarini kuzatish (jumladan lokal tarmoq orqali) hamda ularga amaliy yordam berish. Foydalanilayotgan dasturiy vositalarning didaktik vazifasi turli bo'lishi mumkin: yangi materialni o'zlashtirish (masalan, o'rgatuvchi dasturlar orqali), yangi mavzuni mustahkamlash (masalan, trenajer dasturlar yordamida), olingan bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish (nazorat dasturlari yoki testlar orqali). Individual amaliyot - frontal laboratoriya ishidan darslik, qo'shimcha materiallar, Internet resurslariga tayangan holda olib borilishi, mashqlarning murakkablik darajasi bo'yicha ko'p turliligibilan farq qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. To'raqulov X.A., Fayzimatov B.N., Ubaydullaev S., To'raqulov O.X., Hamidov J. A. «Texnika fanlarini o'qitishga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy -pedagogik asoslari» o'quv qo'llanma. -Farg'ona. «Texnika». 2003.
2. Taylaqov N.I. Mallaev Z. Kasbiy ta'lim uchun axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv adabiyotlarini yaratish. "Kasbiy ta'lim muammolari" Respublika ilmiy -amaliy konferentsiya materiallari. Samarqand 24-25 aprel. 49-50 betlar.
3. Shodiev N. Sh. «Yangi pedagogik texnologiyalar» Samarqand -2005. 67 bet.
4. H.Egamov Buyoqlar bilan ishlash. -T.: O'qituvchi, 1981. 116 bet.
5. S.I. Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash . -T.

«KIMYONI O'QITISHDA AKTDAN FOYDALANISH»

*Toychieva Inobat*

*Shayxontohur tuman kasb-hunar maktabi*

*Kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Kimyo fanini o'qitishda AKTDan foydalanish va innovatsion, va noan'anaviy dars o'tish usullarini tashkillashtirish jarayonidan iborat.

**Kalit so'zlar:** AKT, texnologiya, innovatsiya, metod, kreativ, globallashtirish, iqtisodiyot.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) biznes, iqtisodiyot, sayohat, nashriyot, ta'limning asosiy sohalarida tubdan o'zgarishlarga olib keldi. AKT globallashtirishga ta'sir etadigan, butun dunyoni yagona yaxlit qiladigan kuch va imkoniyatlarga ega. AKTning o'quv jarayoniga integratsiyasi yangi imkoniyatlar yaratadi hamda o'qituvchilar oldida yangi vazifalar qo'yadi. Biz bo'r va sinf taxtasidan foydalanish usulini proektorlar, yanada dinamik texnologiyalar, axborotni izlash va u bilan ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga almashtirishimiz kerak. Kimyo fan sifatida yuqori darajadagi abstrakt mazmunga ega. Biz internet resurslaridan onlayn rejimida ochiq axborotlardan foydalanishimiz zarur. O'quvchilarga grafik tasvirlar ko'rsatilishi ularning molekular tuzilishini uch o'lchamli shaklda ko'rishlariga, xuddi shunday laboratoriya eksperimentlarini modellashtirish o'quvchilarimizga real maktab laboratoriyasida o'tkazilishi muammo bo'ladigan murakkab eksperimentlarni boshqarish imkonini beradi. Biz o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi kimyo fanining dunyoviy muammolari bilan bog'liq bo'lgan munozara yig'ilishlardagi aloqalarga ko'maklashish maqsadida AKT dan foydalanishimiz, shuningdek, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati va ushbu fanning yanada rivojlanishini ta'minlashimiz zarur. Kimyo fanida murakkab atom (molekulyar) jarayonlarni asbtraksiya orqali tushunishga xarakat qilishimizga misollar ko'p.

✓ «KIMYONI O'QITISHDA AKTDAN FOYDALANISH»

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) biznes, iqtisodiyot, sayohat, nashriyot, ta'limning asosiy sohalarida tubdan o'zgarishlarga olib keldi. AKT globallashtirishga ta'sir etadigan, butun dunyoni yagona yaxlit qiladigan kuch va imkoniyatlarga ega. AKTning o'quv jarayoniga integratsiyasi yangi imkoniyatlar yaratadi hamda o'qituvchilar oldida yangi vazifalar qo'yadi. Biz bo'r va sinf taxtasidan foydalanish usulini proektorlar, yanada dinamik texnologiyalar, axborotni izlash va u bilan ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga almashtirishimiz kerak. Kimyo fan sifatida yuqori darajadagi abstrakt mazmunga ega.

Kimyoda biz kimyoviy voqealarni “makro-darajada” kuzatamiz, “mikro-darajada” talqin qilamiz va tushuntiramiz, so‘ngra “ramziy darajada” (formula, tenglama, grafik va b.asosida) taqdim etamiz.

### **Ramziy daraja**

### **Kimyo mazmuni**

### **Makro daraja**

✓ **Mikro daraja** Haqiqatan ham o‘quvchi uchun bilimlar va mazmunning

uch darajasini muvofiqlashtirish juda murakkab. Bugungi kunda veb va interakti o‘qitish, animatsiya, modellashtirish va b.dan foydalanish imkonini berayotgan AKT sohasida erishgan taraqqiyot kimyo fanini tushunishni engillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Biz internet resurslaridan onlayn rejimida ochiq axborotlardan foydalanishimiz zarur. O‘quvchilarga grafik tasvirlar ko‘rsatilishi ularning molekulalar tuzilishini uch o‘lchamli shaklda ko‘rishlariga, xuddi shunay laboratoriya eksperimentlarini modellashtirish o‘quvchilarimizga real maktab laboratoriyasida o‘tkazilishi muammo

bo‘ladigan murakkab eksperimentlarni boshqarish imkonini beradi. Biz o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi kimyo fanining dunyoviy muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan munozara yig‘ilishlardagi aloqalarga ko‘maklashish maqsadida AKT dan foydalanishimiz, shuningdek, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati va ushbu fanning yanada rivojlanishini ta‘minlashimiz zarur.

Kimyo fanida murakkab atom (molekulyar) jarayonlarni asbtraksiya orqali tushunishga xarakat qilishimizga misollar ko‘p. Masalan, elektron bulut va elektronlar qo‘zg‘alishi, izomeriya strukturasi, molekulyar konfiguratsiya doirasidagi o‘zgarishlar, gibril orbitallar va x.k., ro‘yxatini davomi ettirish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, animatsiya va modellashtirish harakatning molekulyar shakllarining konseptual tushunchalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Dasturi ta‘minotning molekulyar vizualizatsiyasi dinamik tasvir tushunchasini yaratadi, bu esa boshqa yo‘l bilan yaratish qiyin bo‘lgan jarayonlar konseptuallashining kuchli va muhim ko‘magini ta‘minlaydi. Shunday qilib, vizual ko‘nikmalar va fikrlash sezilarli darajada animatsiyalar va dasturiy ta‘minoti modellashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Kompyuter animatsiyasi va modellashtirish kimyoviy tuzilmalar va jarayonlarni tushunish uchun universal asbob bo‘ladi. Animatsiyalarda ketma-ket diagrammalar, ramziy tasvirlar, strukturalar hamda kimyoviy reaksiyalar paytida sodir bo‘ladigan turli jarayonlar namoyish etiladi.

Simulitsiya kompleks vaziyatlarni qabul qilish uchun ajoyib vaziyat yaratadi hamda dasturiy ta‘minot yordamida tasvirni va reaksiyaning ma‘lum parametrlarini o‘zgartirish imkonini beradi.

- Laboratoriyalarda virtual eksperimentlarni tashkil qilish kamroq vaqt talab qilib, yaxshi natijalarga erishishda yordam beradi.



- Kimyoviy reaksiyalar jarayonlarini ishlaydi.
- Atomlardan molekular quradi.
- Titrlash bilan bog‘liq eksperimentlarni simulyasiya qiladi.

Boshida ta’kidlaganimizdek, kimyo o‘qituvchilarning asosiy maqsadi o‘quvchilarning kimyoni ko‘rinadigan (makro), molekulyar/ atom (mikro) va ramziy darajalarda tushunishini osonlashtirishdan iborat.

Skuning uchun animatsiyadan foydalanish o‘quvchilarning ushbu fanni tushunishini yengillashtiradi, ko‘pchilik kimyoviy jarayonlarni ko‘rinadigan qilib ifodalaydi. Animatsiya yaratish, rasm chizish, saytlarni yaratish dasturiy ta’minoti: FLASH,

Free Hand, Dreamweaver va Feyerverklardir. (*Fireworks*). “Java” dasturlash tili interaktiv xususiyatlarga ega bo‘lib, “Java-appletlar”

yaratish uchun qo‘llaniladi. Dastur animatsiya tenglama va boshqalar shaklida foydalanish mumkin bo‘lgan reaksiyalar bazasi va laboratoriya jihozlari hamda kimyoviy moddalar to‘plamiga ega. Virtual laboratoriya dasturi turli moddalar bilan eksperimentlarni visual o‘tkazish imkonini beradi. Turli dasturlar – virtual laboratoriyaning dasturiy ta’minoti qo‘shimcha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Dastur bilan ishlashni osonlashtirish uchun “assistent” tushunchasi, hisob-kitoblar asosida tuzilgan o‘zgartirishlar majmui, eksperimentlarni qayd qilish uchun laboratoriya jurnali mavjud.

### **Kimyoviy AKT resurslari**

Virtual laboratoriya bo‘yicha dasturiy ta’minot – bu o‘quvchilar tajriba o‘tkazishlari uchun kerak bo‘lgan kimyoviy moddalar va ularning miqdori, idish va boshqa jihozlarni tanlash imkonini beradigan dasturdir.

Bunday dasturlarni yuqori darajadagi moslashuvchanlik va nazorat darajasi tavsiflaydi. Virtual laboratoriya yana bir qancha afzalliklarga ega, ular yordamida o‘qituvchi va o‘quvchilar qo‘yilgan maqsadlar, jihozlar, kimyoviy moddalar va reaksiyalar hamda sharoitlar mavjudligini hisobga olgan holda eng samarali eksperimentlarni tanlashlari mumkin. Bunday rejalashtirish mustaqil o‘rganish orqali potensial qobiliyatlarni rivojlantiradi. Aslida virtual eksperimentlar – bu amalda o‘tkaziladigan laboratoriya mashg‘ulotlariga qo‘shimcha mashg‘ulotlardir.

Axborot-kommunikatsiyaon texnologiyalar (AKT) o‘qituvchilarning ta’lim berishida kasbiy rivojlanishi uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Bular:

- Ko‘p marotaba foydalanishga mo‘ljallangan o‘quv materiallarini yaratish (Vaqtini tejash).
- Inetrnet orqali o‘qituvchilarning o‘zaro almashinuvi.
- O‘quvchilarning o‘quv materiallariga xohlagan vaqtda murojaat qilishi.

Mazmuni tushunarli qiluvchi multimediyali materiallarni tayyorlash.

- Ishtirokchilarning davomatini va o‘shishini qayd qilish.

- Zo'riqishsiz o'quv tizimini ta'minlash.

O'qituvchilar uchun asosiy afzalliklari o'quvchilar ishini samarali boshqarish, saqlash va olib borish hamda vaqtni tejashdan iborat. Vaqtni tejash mashg'ulotlarga yaxshi tayyorlanish imkoniyatini beradi. O'qituvchilar AKT resurslaridan foydalangan holda nafaqat o'z bilimlarini yangilaydilar, balki nazariy bilimlarini ham orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. AKT dasturlarida foydalangan holda o'quvchilarni baholash bu

bilimlarni, o'qitilayotgan materialni va internet, internet hamda CD ROM kabi texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini baholashdir.

U o'z ichiga bir qator faoliyatni mujassamlashtirgan.

- O'qituvchi savollarni elektron pochta yoki xat, axborot shaklida jo'natishi mumkin. O'quvchi ushbu savollarga javob berishi yoki kichik hikoya yozishi va o'qituvchiga tekshirish uchun Internet orqali taqdim etishi hamda tez javob olishi mumkin.

- Onlayn tizimida test olish joriy qilingan bo'lishi mumkin. Unda o'quvchi avtomatik baholashning tizimi orqali baholanadi.

- O'quvchilarni baholash uchun test olishning turli variantlari ishlab chiqilishi mumkin.

- Interfaol vazifalar baholashning eng samarali variantlaridan bo'lishi mumkin.

- Savolnoma shaklidagi test o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlovchi usullardan biri bo'lishi mumkin.

Masalan, elektron bulut va elektronlar qo'zg'alishi, izomeriya strukturasi, molekulyar konfiguratsiya doirasidagi o'zgarishlar, gibrid orbitallar va x.k., ro'yxatini davomi ettirish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, animatsiya va modellashtirish harakatning molekulyar shakllarining konseptual tushunchalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Dasturi ta'minotning molekulyar vizualizatsiyasi dinamik tasvir tushunchasini yaratadi, bu esa boshqa yo'l bilan yaratish qiyin bo'lgan jarayonlar konseptuallashtirishining kuchli va muhim ko'magini ta'minlaydi. Shunday qilib, vizual ko'nikmalar va fikrlash sezilarli darajada animatsiyalar va dasturiy ta'minoti modellashtirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kompyuter animatsiyasi va modellashtirish kimyoviy tuzilmalar va jarayonlarni tushunish uchun universal asbob bo'ladi. Animatsiyalarda ketma-ket diagrammalar, ramziy tasvirlar, strukturalar hamda kimyoviy reaksiyalar paytida sodir bo'ladigan turli jarayonlar namoyish etiladi. Simulitsiya kompleks vaziyatlarni qabul qilish uchun ajoyib vaziyat yaratadi hamda dasturiy ta'minot yordamida tasvirni va reaksiyaning ma'lum parametrlarini o'zgartirish imkonini beradi.

- Laboratoriyalarda virtual eksperimentlarni tashkil qilish kamroq vaqt talab qilib, yaxshi natijalarga erishishda yordam beradi.

- Kimyoviy reaksiyalar jarayonlarini ishlaydi.
- Atomlardan molekular quradi.
- Titrlash bilan bog‘liq eksperimentlarni simulyasiya qiladi.

Boshida ta’kidlaganimizdek, kimyo o‘qituvchilarning asosiy maqsadi o‘quvchilarning kimyoni ko‘rinadigan (makro), molekulyar/ atom (mikro) va ramziy darajalarda tushunishini osonlashtirishdan iborat.

Skuning uchun animatsiyadan foydalanish o‘quvchilarning ushbu fanni tushunishini yengillashtiradi, ko‘pchilik kimyoviy jarayonlarni ko‘rinadigan qilib ifodalaydi. Animatsiya yaratish, rasm chizish, saytlarni yaratish dasturiy ta’minoti: FLASH, Free Hand, Dreamweaver va Feyerverklardir. (*Fireworks*).

“Java” dasturlash tili interaktiv xususiyatlarga ega bo‘lib, “Java-appletlar” yaratish uchun qo‘llaniladi. Dastur animatsiya tenglama va boshqalar shaklida foydalanish mumkin bo‘lgan reaksiyalar bazasi va laboratoriya jihozlari hamda kimyoviy moddalar to‘plamiga ega. Virtual laboratoriya dasturi turli moddalar bilan eksperimentlarni visual o‘tkazish imkonini beradi.

Turli dasturlar – virtual laboratoriyaning dasturiy ta’minoti qo‘shimcha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Dastur bilan ishlashni osonlashtirish uchun “assistent” tushunchasi, hisob-kitoblar asosida tuzilgan o‘zgartirishlar majmui, eksperimentlarni qayd qilish uchun laboratoriya jurnali mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Абдулхаева И.М., Мардонов Ў.М., Кимё. «Ўзбекистон» 2002 йил 672 б (256-280 б).
2. Нишонов М., Тешабоев С. Анорганик кимё. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2002 йи. 182 б.
3. Akbarov B., Muftaxon R., Nishonov M. va b. Kimiyo. 1-qism. Anorganik kimiyo. T. O‘qituvchi. 2011 – 176 b.

## ТУТ ИПАК ҚУРТИ ВА ЭМАН ИПАК ҚУРТИДАН БАЛИҚЧИЛИКДА ТИРИК ЕМ СИФАТИДА ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТИ ТЎҒРИСИДА

*Мумаммадиев М. - Фарду, б.ф.н.д*

*Ахмаджонова С.Ш. - Фарду катта уқитувчиси*

*Аҳмедов Дилишод, Фарғона давлат университети  
магистранти*

**Аннотация:** Мақолада тут ипак куртини етиштиришда муқобил озуқа ўсимликлардан фойдаланиш бўйича биринчи тажриба натижаларига ва жаҳон адабиётидаги эман ипак курти тўғрисидаги маълумотларга асосланган ҳолда мазкур турлардан балиқчиликда юқори оқсилли тирик ем ўрнида фойдаланишнинг салоҳиятли имкониятлари кўриб чиқилади.

**Калит сўзлар:** Ҳақиқий ипак куртлари, муқобил озуқа ўсимликлари, манзарали ва мевали дарахтлар, Хитой товус кўзчаси, тунги капалаклар, юқори оқсилли тирик ем

**Аннотация:** На основании приведенных результатов первого эксперимента по использованию альтернативных растений в выращивании тутового шелкопряда и сведений о дубовом шелкопряде, приведенных в мировой литературе, в статье рассматриваются потенциальные возможности использования указанных видов в качестве высокобелкового живого корма в рыбководстве.

**Ключевые слова:** Шелкопряды настоящие, альтернативные кормовые растения, декоративные и фруктовые деревья, Китайская павлиноглазка, ночные бабочки, высокобелковый живой корм.

Маълум бўлганидек, Ўзбекистон Республикаси Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 2 сентябрь кунги ПФ -6059 –сонли “Ипакчилик ва қорақўлчиликни кейинги ривожлан-тириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонида асосан, мазкур тармоқлар-нинг мавжуд салоҳиятидан фойдаланган ҳолда, мамлакатимизда ипакчиликни янада ривожлантиришга тааллуқли чора-тадбирлар мажмуаси амалга оширилмоқда. Ўзбекистон ипакчилигида ҳозирги кунгача **Ҳақиқий ипак куртлар** ( Bombycidae Latreille, 1802 ) оиласига мансуб **тут ипак курти**, яъни *Bombyx mori* тури етиштирилмоқда [1: 1-б.], мазкур оиланинг яқин 200-сонли вакиллари асосан Шарқи-Жанубий Осиё, Африка, Австралия мамлакатларида учрайди. **Ҳақиқий ипак куртларининг** танаси ўрта ўлчамли капалаклари яшаш тарзи бўйича тунги хашаротлар гуруҳига киради. Вояга етган капалакларда жинсий диморфизм белгилари яхши ифодаланган, улар

насл қолдирганидан сўнг нобуд бўлади, чунки уларнинг озуқани ҳазм қилиш органлари деярли мутлақо ривожланмаган. Озиқланиш нуқтаи назаридан ипак қурти тутсимонлар оиласига мансуб ўсимликларнинг барглари истеъмол қилади, 1 кг пиллани етиштириш учун 16-17 кггача тут барги зарур [1: 2-б.], лекин емдан оқилона фойдаланилганда 12 кг барг пилла ҳосилини етиштириш учун етарли бўлиши мумкин.

Мамлакатимиз раҳбарининг 02.09.2020 й. 2020 йил ПФ -6059 –сонли қарори бўйича ипакчилик соҳаси мутахассисларининг келтирган изоҳларида Ўзбекистон шароитида ипак қурти пилла ҳосилини 2, хаттоки 3 маротаба етиштириш имконияти қайд қилинган эди. Шу фикрдан келиб чиққан ҳолда, биз маҳаллий шароитда ипак қуртини етиштиришда муқобил озуқа ўсимликларидан фойдаланиш бўйича биринчи синов тажрибасини ўтказдик. Маълумки, ҳозирги вақтда Фарғона шаҳри-даги кўчалар, боғлар ва хиёбонларда яқин 30 турга мансуб манзарали ва ёғочбоп дарахт турлари, яъни Канада заранги, чинор, павлония, эман, Туркистон арчаси, қоғоз дарахти, маклюра, каштан, тол каби дарахтлар мавжуд. Шунингдек, 20га яқин мевали дарахт ва буталар, яъни оқ (ҳас)тут, ўрик, олхўри, олма, беҳи, ток (узум), грек ёнғоғи, олча, Шарқ хурмоси, анжир каби турлар ҳовли-хонадонларда етиштирилади. Мана шу дарахтларнинг баргларида ипак қуртини етиштиришда муқобил озуқа сифатида фойдаланиш мумкин эканлигини тахмин қилган ҳолда, биз 2022 йил сентябрь ойида тажрибамизнинг дастлабки босқичини бошладик. Ипак қурти тухумларини инкубация қилиш мақсадида уларни Фарғона давлат университети лаборатория жиҳозларидан бири бўлган термостат ичига, Петри ликобчасига жойлаштириб, 7 сутка давомида кузатдик. Тухумлар мазкур асбоб ичида барқарор 25-27 оС харорат таъминланган шароитда сақланди. 7чи сутканинг охирида тухумлардан 2 ммгача ўлчамли майда ёш қуртлар чиқа бошлади. 8чи куни ёш тут ипак қуртлари картон қутиларга жойлаштирилиб, +25 - +26оС га тенг хона харорати шароитида сақланди. Ҳар бир қутида етиштириладиган қуртларга юқорида таъкидланган манзарали ва мевали дархтлардан фақат битта турга мансуб ўсимликнинг барглари берилди. Қуртлар ғоят майда бўлганлиги боис, барглар майда-майда қирқилган ҳолда берилганди, чунки ёш қуртларнинг оғиз аппарати баргларни кемириши анча қийин бўлган эди. Қуртлар дастлаб тут, узум ва беҳи барглари истеъмол қила бошлаши кузатилди. Тажриба давомида хона харорати- нинг бир хилда бўлиши таъминланди. Кейинги кунларда ҳам қуртларга берилган барглар ҳар доим янги эди, емни истеъмол қилган қуртлар танасининг ранги қизғиш-қўнғир тусгача ўзгара бошлади. Бироқ , 13 чи суткага етган вақтда манзарали дарахтларнинг ва айрим мевали дарахтларнинг барглари истеъмол қилган ёш тут ипак қуртлари нобуд бўла бошлади ва 14чи сутканинг охирида хаттоки

тут, олхўри, узум барглари истеъмол қилган барча қуртлар ҳам ҳалок бўлди.

Тажрибамизнинг маълум даражада муваффақиятсиз кечганига қарамай, дастлабки хулоса йўсинида қуйидагиларни таъкидлаймиз:

1. Тут ипак қуртларига муқобил озуқа сифатида таклиф этиладиган барглар, куз фасли шароитида анча етилган, тўйимли ва шу билан дағаллигини инобатга олган ҳолда, қуртларга беришдан олдин махсус ишловдан ўтказилиши, яъни уларнинг мувофиқ майинлиги, намлилиги таъминланиши шарт, - шу орқали қуртлар томонидан баргларнинг истеъмол қилиниши рағбатлантирилади.

2. Тажрибани қўйиш янада синчковли бўлиши керак, яъни харорат билан нисбий намлик тизимлари 25-27°C дан ва 75%дан кам бўлмаслиги шарт.

3. Тажриба объектлари бўлган ипак қуртларининг кузатув назорати мунтазамлиги сут ка бўйи ҳар 2 соатда бир маротаба бўлишини таъминланиши лозим.

4. Кейинги йилнинг баҳори мавсумида тажриба такроран ўтказилиши лозим.

5. Тут ипак қуртининг катта (5- ва 6-) ёшлардаги индивидлари ҳовуз балиқчи-лигида юқори оқсилли, арзон тирик ем сифатида фойдаланиш учун ғоят истиқболли объектдир. Шу билан бирга, жаҳон илмий адабиётида **эман ипак қурти** тўғрисида келтирилган маълумотларда ушбу ипакчилик объектини етиштиришда муқобил озуқадан фойдаланиш имконияти мавжуд эканлигининг исботи мазкур фикримизни, яъни тут ипак қуртини етиштиришда ҳам ушбу усулдан фойдаланиш мумкин эканлиги тахминимизни тасдиқлайди.

Эман ипак қуртининг вояга етган вакиллари тунги капалаклар ёки **Хитой эман товус кўзчаси** (*Antheraea pernyi*) тури Тангача кўзчилилар (*Lepidoptera*) туркуми Сатурниялар оиласининг (*Saturniidae*) *Antheraea* авлодига мансуб 85 маълум турларнинг бтасига таалукли; улар ипагининг сифати тут ипак қуртининг махсулотига нисбатан дағалроқ. Лекин, шундай бўлса ҳам Палеарктиканинг шарқий қисмида, Узоқ Шарқда Хитой ва Кореяда яшаган, кенжа турлари Ҳиндистонда ва Жануби-Шарқий Осиёда тарқалган дастлабки турни бундан 250 йилдан ортиқроқ вақт муқаддам Хитойда хонакилаштириш муваффақиятига эришилди ҳамда Европада, шу жумладан Испанияда ва олис Японияда ҳам икклимлаштирилди. Хитой товускўзчасининг еввойи табиатдаги энг ҳос бўлган яшаш жойи эман (*Quercus*) дарахтлари кўпроқ ўсадиган баргли дарахт ўрмонларидир. Эман ипак қурти биологияси, яшаш тарзи ва айниқса кўпайиш хусусиятлари жиҳатидан тут ипак қуртига жуда ўхшайди, унинг воятга етган шакли ҳам тунги капалаклардир, уларни кўча чироқлари ҳамда турли бошқа сунъий ёритгичлар ўзига тортади. Мазкур



капалакларни хатто булутли кунларнинг эрталабки ёки пешин вақтида ҳам учратиш мумкин. Пилладан чиққан капалак ики соатга яқин вақт қурийд ва сўнг учиб кетади. Сутканинг ёруғ вақтида капалаклар ғоят суст харакатланади. Эман ипак қуртининг капалакларида ҳам оғиз аппарати деярли мутлақо ривожлан-маганлиги боис, улар озикланмайди ва кўп яшамайди: урғочиларнинг ҳавога чиқарган феромонлари эркекларни жалб қилади ва тунда бошланиб 24 соатгача давом этадиган жуфтлашишдан сўнг эркек капалаклар ҳалок бўлади. Урғочилар ўз тухумларини кўпинча ўзгарувчан эман (*Castanea sativa*), камроқ ўрмон буклари (*Fagus sylvatica*), оқ қайин (*Betula*), граб (*Carpinus*), дўлана (*Crataegus*) каби дарахтларга ҳамда мевали дарахтлардан олхўрига (*Prunus*) қўяди. Урғочи ҳар бир тухумлар тўпламини янги дарахтга қўйиши орқали янги наслнинг яшовчанлик қобилятиини таъминлайди. Ёш қуртлар тут ипак қуртининг қуртлари каби тухумдан 10-14 сутка давомида чиқади ва дастлабки кунлари суст озикланади. Учинчи тулашидан сўнг қуртлар шиддатли озикланиб, 5чи ёшида пилла ўрайди. Таққосланаётган турларнинг катта ёшдаги қуртлари деярли бир хил, 15-16 граммгача вазнда бўлади.

Тут ипак қурти билан эман ипак қуртининг юқорида келтирилган биологик хусусиятларининг ўхшашлигини инобатга олиб, биз Ўзбекистон шароитида тут ипак қурти (*Bombyx mori*) ва эман ипак қурти, яъни Хитой товускўзчаси (*Antheraea pernyi*) турларидан ипакчиликда ва шунингдек, мамлакатимизда балиқчилик тармоғини ривожлантириш учун салоҳиятли юқори оқсилли, арзон тирик ем сифатида етиштириш ва фойдаланиш имконияти мавжуд эканлигини таъкидлаймиз.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 1 maydagi -Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2039- sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 3-fevraldagi -2018-yilda Baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-3505 sonli qaror II-Darslik va o'quv qo'llanmalar 1. S.Q.Husenov, D.S.Niyozov, G'.M.Sayfullayev. -Baliqchilik asoslaril o'quv qo'llanmasi., Buxoro nashriyoti., 2010 yil; 2. D.S. Niyozov, A.B.Niyozov, J.S. Sobirovlarning - Buxoro vohasi tabiiy suvliklari-yaylov akvakulturasida sadok usulida intensiv baliq boqishl bo'yicha tavsiyalar. Durdon., Buxoro. 2017 yil;
3. D.Niyozov -Baliq-bitmas boylikl ommabop qo'llanma. T., 2013 yil;
4. I.M.Mirabdullayev, U.T.Mirzayev, A.R.Kuzmetov, Z.O.Kimsanov - O'zbekiston va qo'shni hududlar baliqlari aniqlagichill., Sano-standart., T., 2011 yil;

5. Б.Г.Камилов, У.Т.Мирзаев, З.А.Мустафоев. Садковая аквакультура перспективная система разведения рыб в Узбекистане. Навруз., Т., 2017 йил;
6. А.Р.Расулов, Ф.Н.Никматов, Д.Р.Айтбойев. Hidrologiya asoslari. Universitet. Т., 2003 йил;
7. D.A.Rejepova. O‘zbekiston ichki suvlari va ularning ekologik hoatini o‘qitish metodikasi. BMI., Т., 2013 йил;
8. P.S.Нақберdiyev. Umumiy ixtiologiya. Iqtisod-moliya. 2013 йил;
9. M.Yarbekov. Havzalarda baliq yetishtirish va mexanizatsiyalashtirish. Iqtisod-Moliya. Т., 2013 йил;
10. П.А.Моисеев, Н.А.Азизова, И.И.Курбанова. Ихтиология. Легкая и пищевая промышленность. 1981 г;
11. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на природно-ресурсный потенциал Республики Узбекистан. - Ташкент: Главгидромет РУз, САНИГМИ, 2000. - 252 с.
12. Micklin, P. The Aral Sea disaster// Annual Review of Earth Planet Service, 2007. - vol. 135. - P. 47 – 72.
13. Камилов Б.Г., Салихов Т.В. Развитие рыбного хозяйства Узбекистана в условиях зарегулированного стока рек // Use of geographic information systems and simulation models for research and decision support in Central Asian river basins. Humboldt-kolleg, International Conference, July 6-10, 2004.- Tashkent, Uzbekistan, 2004. – S. 114-115. Вухоро viloyati Qora-qir ko‘lidagi baliqlar turini aniqlash va ulardan o‘t xo‘r baliqlarni ko‘paytirish uslublari 68
14. Камилов Г.К., Борисова А.Т. Малотсенные и сорные виды рыб прудхоза «Калган-Чирчик».- В кн.: Позвоночные животные Средней Азии, Ташкент, Фан, 1966, с. 31-32.
15. Каримов Б.К., Камилов Б.Г., Мароти Упаре, и др. Аквакультура и рыболовство в Узбекистане: Современное состояние и концепсия развития. - Ташкент, ФАО, 2008 а. - 146 с.
16. Каримов Б.К., Р.В. Анрой, П. Буено, Б.Г.Камилов, Д.Р.Шохимардонов. Политика и стратегия развития аквакультуры и рыболовства в Узбекистане (2008 – 2016 гг.) // экологический вестник (Экология хабарномаси / эсологисалҳералдоф Узбекистан). – Ташкент, 2008. - № 4. - с. 5 – 16.
17. Салихов Т.В., Камилов Б.Г. Ихтиофауна бассейна среднего течения Сырдарьи.- Вопросы ихтиологии, 1995, т. 35, С. 229-235.

**YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA  
QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH**

*Umarov Ismoiljon Olimjonovich*

*Fag'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi  
rezervdagi podpolkovnik*

*Ergashov Sherzodbek Rahmatali o'g'li*

*Jo'rayev Sardorbek Nurali o'g'li*

*Ismoilov Samandar Ikromjon o'g'li*

*Fag'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti  
2-bosqich kursantlari*

**Annotatsiya:** Xalqimizni turli g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immuniet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. O'zligimizni, odob – axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqaligina milatni mafkurasini asrash va yanada yuksaltirishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** mafkuraviy immunitet, aqidaparast oqimlar, ommaviy madaniyat, korrupsiya, jinoyatchilik, mafkuraviy tahdid, diniy ekstremizm, fundamentalizm, millatchilik, missianerlik, mafkuraviy bo'shliq, so'z erkinligi.

**Kirish qism:** Axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish – davr talabi.

Bugungi tahlikali zamonda, globallashuv davrida, ayniqsa, g'oyalar kurashi keskin tus olgan paytda asosli, hayotiy, samarali targ'ibot va tashviqot xalqni ishontiradi, ruhlantiradi, ulug' va qutlug' maqsadlar sari ilhomlantiradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf – xatarlarga ham duchor qilmoqda.

G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota – onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota- onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. “Bolalarimizni birovlarining qo'luga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim”.

So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, “Internet” orqali targ'ibot o'tkazish, yashirin “Hujralar”

tashkil etish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, Internet tarmog'ida "Iroqdavlati", "Jabat al-Nusra" kabi terroristik tashkilotlar g'uyoki islom ravnaqi yo'lida kurashayotgan "Mujohid birodarlar guruhi" ekani haqidagi targ'ibot-tashviqot keng ko'lamda olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko'plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar "hijrat" qilish va "jihod"da ishtirok etish da'vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh safiga qo'shilayotganing guvohi bo'lmoqdamiz.

Mutaassib oqim a'zolarining bosh maqsadi "jihod", "hijrat", "shahidlik", "kofir bo'lish" kabi diniy tushunchalarni soxta talqin qilish orqali yoshlarimizni qurolli to'qnashuvlar ketayotgan Suriya, Iroq, Afg'onistoni yoki Pokiston kabi mamlakatlarga jo'natib, "manqurt – jangari" yoki "tirik bomba"ga aylantirishdan iborat.

Internet va yuqori texnologiyalar tufayli dunyoda madaniyatlar va davlatlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib bormoqda.

**Asosiy qism:** Hozirda Internet tarmoqlarida buzg'unchilik, zo'ravonlik va axloqsizlikni, "ommaviy madaniyat"ni targ'ib etadigan saytlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ana shunday keskin va murakkab axborot xurujlari va xavf-xatarlarga biz qanday qarshi tura olamiz?

Ayni vaqtda, yoshlarning turli norasmiy, noislomiy diniy jamoalarning ta'siriga tushib qolishining oldini olishda o'quv muassasalari va mahalla tomonidan tizimli ravishda tushuntirish ishlari olib borishi muhim o'rin tutadi.

Yoshlarda yot g'oyalarga nisbatan ma'naviy immunitet shakllanmas ekan, "bu – yaxshi, bu– yomon" degan qat'iy fikr paydo bo'lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo'ldi.

Xalqimizda "Yaxshi bola yurt tuzar, yomoni elni buzar" degan purhikmatli gap bor.

Yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmog'i lozim. Mustaqilligimizni asrab-avaylashga chorlaydi. Muhimi, tinchlik-totuvlik, mehr-oqibat bor ekan, o'z orzu-maqсадlarimizga albatta erishamiz.

Xavfsizlikka tahdidning mazmun-mohiyati muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida umummetodologik, siyosiy-falsafiy tomondan yetarlicha yoritib berilgan edi. Mazkur kitobning 1-bobida muallif mintaqaviy mojarolar; diniy ekstremizm va fundamentalizm; buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik; etnik va millatlararo ziddiyatlar; korrupsiya va jinoyatchilik; mahalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari; ekologik muammolar xavfsizlikka tahdid solishini batafsil va teran ifodalab beradi.

Mafkuraviy tahdid oz mohiyatidan kelib chiqib, eng avvalo, inson ongiga, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solmoqda. Inson ongi va kalbini vayronkor xamda buzgunchi goyalar bilan izdan chikarishga harakat qilish mafkuraviy tahdidning eng asosiy mazmun-mohiyatini belgilaydi. Mafkuraviy tahdid muayyan jamiyat a'zolarini yagona maqsad va muddaolardan chalgitib, milliy mentalitetga mos kelmaydigan begona goyalar, fikrlar, maqsadlar va karashlarni chetdan turib eksport qilish jarayonida ozini yanada anikroq namoyon qiladi.

O'zbekistonga xuruj qilayotgan mafkuraviy tahdidlar va ularning turlarini quyidagicha sanash mumkin:

- 1.Diniy ekstremizm va fundamentalizm.
- 2.Buyuk davlatchilik va agressiv millatchilik.
- 3.Xalqaro terrozim.
- 4.Axloqsizlikni targ'ib qiluvchi harakatlar.
- 5.Ommaviy madaniyat
- 6.Missionerlik

Bu kabi tahdidlar bizni o'z domiga tortib ketmasligi uchun bizga milliy imunitetni rivojlantirish zarur.

Bu kabi tahdidlar bizni o'z domiga tortib ketmasligi uchun bizga milliy imunitetni rivojlantirish zarur. Buning uchun biz quyidagi sohalarni chuqur rivojlantirishimiz lozim bo'ladi:

1. Ta'lim tizimini rivojlantirish. Va ilg'or fikrlovchi yoshlarni ko'paytirish.

2. So'z erkinligini ta'minlash. Jurnalist xodimlar dunyoda va atrofimida yuz berayotgan jarayonlarni xolis yortib beradigan axbarot maydonini yuzaga keltirishi va biz ishonchli va xolis ma'lumotlarni o'z ommaviy axbarot vaositalarimizdan qabul qilishimiz kerak bo'ladi.

3. Dinni yaxshi anglash. Yuqorifagi tahdidlarga e'tibor qaratsangiz asosiy tahdidlar e'tiqod va an'analarga bog'liq ekanligini ko'rasiz. O'zbek madaniyati, o'zbek urf-odatlarida asosan islom dini asosiga qurilgan. Millatimizning har bir xatti-harakatida, marosimlarida islom dinining ta'sirini sezish qiyin emas. Shu sababli dinni yaxshi anglash, buning uchun yetarli shart sharoitlar yaratish o'ta muhim masala hisoblanadi.

Shu va boshqa tarmoqlarni yanada rivojlanishi bizga tashqaridan krib kelayotgan g'oyaviy tahdidlarga munosib ziddi zahar bo'la oladi. Bir narsa aniqki, biz uchun tashqaridan madad kelmaydi, o'zimiz uchun o'zimiz harakat qilishimiz lozim. Va avvaloam bor har bir fuqaro o'z shaxsiy rivojlanishini yo'lga qo'ysa, butun millat isloh bo'ladi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma'naviyat va qadriyatlarning o'zni ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ichida mafkuraviy bo'shliqning ta'siri kattadir. Mafkuraviy bo'shliq kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy voqelikni noto'g'ri idrok etishga, ularning ongida agressivlikni



shakllantirishga xizmat qiladigan bo'shliqni nosog'lom g'oyalar bilan to'ldirishga zamin yaratadi. “Manqurtlashtirish” deb ataladigan bu texnologiya kuchsiz ma'naviyat, bo'sh iroda va nosog'lom intilishlar muhitidagina ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'rnini katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuini, to'g'ri tashkil etilgan tarbiya tizimini qamrab oladi.

Mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim.

Mamlakatimiz xavfsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo'lmish o'sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirish ya'ni ularni turli xil yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish orqali ularning mafkuraviy immunitetini shakllanish lozimligini bugungi davrning o'zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmog'i kerak desak, bevosita ularni o'z holiga tashlab qo'ygan va ko'ziga “yaltirab” ko'ringan narsani o'zlashtirishga sharoit yaratgan bo'lamiz. Pok qalbli yoshlarimizni, pok niyatlarini o'grincha bilib olgan va ularning ezgu g'oyalarini asta-sekinlik bilan yot g'oyaga aylantirishga sabab bo'layotgan, faqat sirtidagina jozibador, asli esa puch bo'lgan g'oyalar ta'siridan qutulishning birdan-bir yo'li bu – ma'rifatdir.

Demak, biz yoshlar “Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish” kerakligiga har doim ham amal qilish lozimligini unutmasligimiz kerak.

### **Xulosa:**

Bugungi kunda yoshlarimizni turli xil yot va zararli g'oyalar va vayronkor g'oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ularning dunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g'ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – ma'naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan yuksak malakali mutaxassis kadrlar etib tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz ta'kitlab o'tkanidek: Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kalom topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari. 1-bob.
2. Sh.Mirziyoyev. Erkin va faravon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: O'zbekiston 2016.14-bet
3. Ergashev I va boshqalar.Milliy istiqlol g'oyasi:O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. T.:Akademiya-2005.93 bet
4. Tashmetov.T.X (2020).Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning tarbiyadagi ahamiyati."Science and Education" Scientific Journa, 1(7), 617-624.
5. Falsafa: Qomusiy lug'at.T.Sharq,2004.160-bet.

CHO'LLANISHGA QARSHI MARKAZIY OSIYO

*Yuldoshev Sherali To'raqul o'g'li*

*Toshkent davlat Yuridik Universiteti 3- kurs*

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi*

*Yoqubov Jasurbek Salimjon og'li*

*Toshkent davlat Yuridik Universiteti 3- kurs*

*Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasidagi cho'llar va ularning o'ziga xos geografik xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Cho'l, erg, zona, mo'tadil, subtropik, qumoq, lyoss, texnogen, voqa, gil, taqir, sho'rxok, harorat, iqlim, qoq, tog', adir, soy.

Cho'llarning asosiy qismi subtropik va tropik kengliklarda hamda mo'tadil mintaqalarda joylashgan. Cho'llarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida, ularning makon va zamonda geografik tarqalishida bir necha omillar yetakchi rol o'ynaydi. Bular: landshaft sferasining zonalligi, issiqlik va namlikning notekis taqsimlanishi, orografik to'siqlar, subtropik kengliklarda yil davomida yuqori atmosfera bosimining hukmronligi, sovuq dengiz oqimlarining materik sohillariga ta'siri va boshqalardir. Subtropik kengliklarda yil davomida baland atmosfera bosimi hukmronlik qilgani sababli past bosimli ekvator tomon harakat qilib, yil bo'yi esib turadigan passat shamollarini vujudga keltiradi. Passatlar Yer sharining aylanishi ta'sirida shimoliy yarim sharda shimoli-sharqdan janubi-g'arbga, janubiy yarim sharda esa janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon buriladi. Passat shamollari faqat troposferaning quyi 1,5-2,5 km qalinlikdagi qatlamini egallab olib atmosferaning vertikal harakatiga, bulutlarning rivojlanishiga va yog'inlarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham tropik va subtropik kengliklarda bulutli kunlarda ham quyosh radiatsiyasining kelishi juda katta. Natijada yoz oylarida havoning nisbiy namligi o'rtacha 30% gacha pasayib ketadi. Havoning o'rtacha harorati esa 32-35° S gacha, maksimal harorati esa 50° S gacha etadi. Ana shunday tabiiy geografik sharoitda vujudga kelgan cho'llarga Afrikaning Sahroi Kabir, Katta G'arbiy Erg, Katta Sharqiy Erg, Liviya cho'llarini aytish mumkin. Subtropik kengliklarda tog' oralig'i botiqlari ham qurg'oqchil xarakterga ega bo'lib, yillik atmosfera yog'inlari 150-200 mm dan oshmaydi. Bunday joylarga Kalaxari cho'llari, Arabiston yarim orolidagi Suriya, Katta Nefrud va Rub-el-Xali cho'llari, Avstraliyaning Katta Viktoriya, Katta Qum, Simpson, Gipson, Styort cho'llari misol bo'ladi. Mo'tadil mintaqada ham cho'llarning hosil bo'lishi uchun materik ichkarisida qulay sharoit vujudga keladi. Ana shunday ichki

kontinental rayonlarga Yevrosiyoning O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo o'lkalari kiradi. Bu o'lkalar okeanlardan uzoqda joylashganligi, mussonlardan tog' tizmalari bilan to'silganligi, yoz oylarida termik depressiyaning vujudga kelishi, atmosfera yog'inlarini kam bo'lishiga va arid iqlim sharoitining shakllanishiga sabab bo'ladi. Oqibatda yog'in miqdori 100-200 mm dan oshmaydi. Maksimal havo harorati 42-45° S gacha ko'tariladi. Mumkin bo'lgan bug'lanish miqdori yog'in miqdoriga nisbatan 15-20 marta ko'pdir. Ana shunday kontinental iqlim sharoitida O'rta Osiyoda Qizilqum, Qoraqum, Mo'yinqum, Katta va Kichik Bo'rsiq qumlari, Orolbo'yi Qoraqumi, Ustyurt va Betpaqdala cho'llari tarkib topgan. Markaziy Osiyoda esa eng katta maydonlarni Takla-Makon, Gobi, Alashan, Beyshan, Ordos, Saydam, Jung'oriya, Tibet tog' cho'li va boshqalar mavjud. O'zbekiston Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida birinchilar qatorida BMTning Cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasiga a'zo bo'lgan. Ushbu Konvensiya 1995 yil 31 avgustda O'zbekiston parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinib, 1996 yildan kuchga kirgan. Bugungi kunda mazkur Konvensiyaga 196 ta davlat a'zo hisoblanadi. Qurg'oqchilik – ekinlarning hosildorligini yo'qolishi, o'rmon yong'inlari va suv tanqisligi natijasida insonlar hayotining barbod bo'lishi nuqtai nazardan eng daxshatli tabiiy ofatlardan biridir. So'nggi yillarda oziq-ovqat va suv tanqisligi, kuchli qurg'oqchilik tufayli yuzaga kelgan o'rmon yong'inlari kuchaygan. Yerning tanazzulga uchrashi va iqlim o'zgarishi natijasida kuchaygan qurg'oqchilik ayniqsa shiddatli tus olmoqda. Bunday tashvishli holat 2000 yilga nisbatan 29 foiz ko'p va har yili 55 mln. kishiga ta'sir qiladi. Eng achinarlisi, 2050 yilga borib qurg'oqchilik dunyo aholisining to'rt dan uch qismiga ta'sir qilishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi axborot xizmati ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi kunda O'zbekistonning 70 foiz yoki 31,4 mln gektar yeri qurg'oqchil maydonlar bo'lib, ular asosan tabiiy sho'rlangan, ko'chma barxan qumliklar va qumliklardan iborat cho'l hamda issiq garmsel shamollari ta'siridagi hududlardir. Orol dengizi suv sathining qurishi tufayli O'zbekistonda yana qo'shimcha 3 mln gektardan ortiq maydonda Orolqum paydo bo'ldi. Natijada ushbu mintaqada ekologik muhit yomonlashib, cho'llanish jarayonlari yanada kuchaydi va ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi.

2021-yilning cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni nishonlanadigan 17-iyun sanasi degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va sog'lom yer maydonlarini yaratish mavzusiga bag'ishlanadi. Buning natijasida iqtisodiyotning barqarorligi ta'minlanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholining daromadlari oshadi va oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlandi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yerlarni qayta tiklash bioxilma-xillikni saqlashga hissa qo'shadi. Yerning isishiga ta'sir etuvchi atmosfera uglerodining yerda saklanib kolishi tufayli, iqlim o'zgarishi jarayoni sekinlashadi. Shuningdek, bu iqlim o'zgarishi oqibatlarining yumshashiga olib kelishi va COVID-19 pandemiyasi tugagach, "yashil" tiklanishga asos bo'lishi mumkin. O'zbekistonda 2017-

yildan buyon CADI — “Markaziy Osiyodagi cho'llar bo'yicha tashabbus” loyihasi amalga oshirilib kelmoqda. Ushbu loyiha Birlashgan Millatlar oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan amalga oshirilib, Germaniya hukumati tomonidan moliyalashtirilmogda. Tashabbus, global ahamiyatga ega bo'lgan noyob ekotizimli mo'tadil cho'llarni saqlash va ulardan barqaror foydalanishga qaratilgan. Ular qushlar, shuningdek, yovvoyi tuyoqli hayvonlar uchun muhim migratsiya mintaqalaridir, — deya ta'kidlaydi CADI loyihasining O'zbekistondagi Milliy koordinatori Narimon Nishonov. — O'zbekiston bilan bir qatorda, Qozog'iston va Turkmaniston ham CADIning maqsadli mamlakatlaridan hisoblanadi. O'zbekiston hududining yarmidan ko'prog'i cho'llar bilan qoplanganligi, bu eko-tizimlarning mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatini tasdiqlaydi. Bugungi tadbirda keng manfaatdor shaxslar doirasi uchun o'quv kursi o'tkazib, ularni tabiiy resurslarni kompleks boshqarish, shuningdek, er resurslarini barqaror boshqarish bo'yicha eng samarali texnologiyalar bilan tanishtirildi. Markaziy Osiyo davlatlari va AQSh iqlim inqirozini yengish to'g'risida qo'shma bayonot qabul qildi. Unda aytilishicha, iqlim o'zgarishi mintaqada suv mavjudligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, cho'llanish va tuproq degradatsiyasini tezlashtirmogda.

Xalqaro ilmiy jamoatchilikning e'tirof etishicha, cho'llanish dunyoning barcha regionlaridagi mamlakatlar uchun juda ham katta iqtisodiy, sosial va ekologik muammo bo'lib hisoblanadi. Hozirgi davrning eng keskin global muammolaridan biri ekologik tizimga antropogen yukning oshib borishi natijasida deyarli barcha turdagi landshaft majmualarining degradatsiyalashib borishidir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan Xalqaro Konventsiyada cho'llanish jarayoniga shunday ta'rif berilgan: «cho'llanish qurg'oqchil, chala qurg'oqchil va quruq gumidyoni rayonlarda turli xil omillarning, iqlim o'zgarishi va inson faoliyati ta'siri natijasida erlarning degredatsiyalanishidir». (O'zbekiston Respublikasida cho'llanishga qarshi kurashish harakatining Milliy dasturi, 1999, 3-bet). Shuning uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Hukumatlararo qo'mitasi tomonidan cho'llanishga qarshi kurashish va qurg'oqchilikni yumshatish bo'yicha 1994 yil 17 iyunda Parijda Konventsiya qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi ham cho'llanish va qurg'oqchilik oqibatlariga qarshi kurashishning muhimligini e'tiborga olib, 1995 yilda cho'llanishga qarshi kurashish Xalqaro Konventsiyaga qo'shildi. Hozirgi kunda bu Konventsiyaga qo'shilgan mamlakatlarning soni 139 tadan oshdi.

Cho'llanish – bu atrof muhitdagi ekotizimlarning unumdor erlar hosilining kamayishi, degredatsiyalanishi, iqlimning quruqlashishi, cho'l hududlarining kengayishi va xakozolar. O'rta Osiyo hududida cho'llanish jarayonini quyidagicha ta'riflashimiz mumkin: cho'llanish butun insoniyat tarixi davomida kuzatilmogda; ekologik o'zgarishlarni yuzaga keltirishda tabiiy omillar bilan birgalikda antropogen



omillarning o'zni ham muhim bo'lib sanaladi; cho'llanish asta-sekin rivojlanuvchi jarayon bo'lib hisoblanadi va albatta shamol eroziyasi, bir xil bo'lmagan relief shakllariga, ko'chib yuruvchi qumlar harakati, qum tepaliklarining hujumiga bog'liq holatda rivoj topadi. Cho'llanish jarayonini o'z navbatida tarixiy ikkita davrga ajratish mumkin: qadimgi va hozirgi davr. O'rta Osiyo cho'llari cho'llanishining qadimgi davri so'nggi yuz yillikni o'z ichiga oladi. Turli shahar va qishloqlarning ayrim joylarida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ular qadimda cho'l hududlari bo'lib hisoblanmagan. Chunonchi, qadimgi davrning cho'llanish jarayoni sabablari juda murakkab va bir xilda bo'lmasdan uzoq davom etgan. Hozirgi davr cho'llanish jarayoni oxirgi ellik yilni qamrab olib, asosan er resurslaridan oqilona foydalanmaslik, chorva mollari sonining ortishi, cho'llardagi butasimon o'simliklarning o'tin sifatida kesilishi, tog'-kon sanoatining rivojlanishi, qisqasi, tabiiy va antropogen omillar ta'sirida shakllanmoqda. O'zbekiston Respublikasining 70% dan ko'proq hududi cho'l va chala cho'ldan iboratligini inobatga olsak, sug'oriladigan erlarda sho'rlanish, botqoqlanish, shamol va suv eroziyasi, yaylovlarda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, ayniqsa, Qizilqum cho'lidagi Qoraxotin, Oyoqog'itma, Mullali, Mingbuloq botiqlarida cho'llanishning oqibatlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Natijada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning mahsuldorligi borgan sari pasayib, oziq-ovqat, em-xashak va sanoat xom-ashyolarini etarli miqdorda etishtirib berish sekinlashmoqda va etishtirilgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari ham pasayib bormoqda. Vujudga kelgan ekologik vaziyatning yomonlashishi natijasida cho'llashgan erlardan aholining shaharga ko'chishi ko'paymoqda. Bunga misol tariqasida Mo'ynoq rayoni aholisining o'tgan asrimizning 70-80 yillarida ikki baravar kamayishi (45 ming kishidan 22 ming kishiga) yaqqol misol bo'ladi.

Qozog'iston Respublikasi hukumati cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha Milliy harakatlar rejasini qabul qildi. Yanvar oyida Qozog'iston Respublikasi hukumati tomonidan Qozog'iston Respublikasida 2015 yillarga mo'ljallangan cho'llanishga qarshi kurash dasturi tasdiqlandi. Hukumatning tarmoq dasturlari sonini optimallashtirish munosabati bilan ushbu dastur bekor qilindi va 2010-2014 yillarga mo'ljallangan "Yashil rivojlanish" dasturida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat o'rta muddatli dasturiga ushbu dasturning faqat ayrim tadbirlari kiritildi. . Qozog'iston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasi cho'llanish muammosining jiddiyligini tasdiqlaydi va "yashil" qishloq xo'jaligi tamoyillariga amal qilishni taklif qiladi, masalan: a) yerlarning degradatsiyasining oldini olish va degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash. yerlar; b) otlarning ortiqcha boqishining oldini olish; v) suvdan samarali foydalanish; d) resurslardan oqilona foydalanish; e) chiqindilarni minimallashtirish va qayta foydalanish; e) karbonat angidridni ushlash. GEF – BMTTDning "Milliy harakatlar rejasini yangilashda, shuningdek, Qozog'istonda cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi BMT

konventsiasini amalga oshirish doirasidagi faoliyat natijalarini hisobot va tahlil qilish jarayonida qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida "Strategik Qozog'iston Respublikasida 2025 yilgacha cho'llanishga qarshi kurashish chora-tadbirlari".

Hukumat tomonidan 2000-yilda cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha Milliy harakatlar dasturi va 2006-2016-yillarda yerlarni barqaror boshqarish bo'yicha milliy asos dasturi qabul qilindi. Bu dasturlar yerdan barqaror foydalanishni rivojlantirish, ekin maydonlarining unumdorligini oshirish va qishloq joylarda qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan. 2000-2007 yillarda barqaror yer boshqaruvi va ilg'or qishloq xo'jaligi amaliyoti bo'yicha ko'plab tajriba loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilganiga qaramay, yerlarning degradatsiyasi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qisqarishi va qishloqlarda qashshoqlikning kuchayishi tufayli kichik o'zgarishlar sekinlashmoqda. Qirg'iziston yuqoridagi dasturlarni to'liq amalga oshirish uchun o'z faoliyatini kuchaytirishi kerak. 2017-yil iyul oyida BMTTD-GEFning "Atrof-muhitga oid axborotni boshqarish va monitoring qilish milliy tizimini takomillashtirishni ta'minlash uchun institutsional va huquqiy salohiyatni mustahkamlash" loyihasi ko'magida BMT qarorlarini amalga oshirish bo'yicha idoralararo ekspert guruhining beshinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Qirg'izistonda cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha konvensiya bo'lib o'tdi. Ekspertlar guruhi ishtirokchilari yerlarning degradatsiyasi neytralligi bo'yicha maqsadlarni belgilash tashabbusini joriy etish va amalga oshirishda ilg'or harakatlar qilinmoqda.

Atrof-muhit degradatsiyasiga va yerdan beqaror foydalanishga qarshi kurashishga qaratilgan cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha Milliy harakatlar dasturi. Konvensiyani amalga oshirish uchun Hukumat tomonidan Agrosanoat majmuini iqtisodiy o'zgartirish dasturi hamda 2010 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ekologik ta'lim va aholini tarbiyalash dasturi qabul qilindi. Tojikistonda xususiy sektorni rivojlantirish strategiyasi loyihasida ekologik barqaror o'sishni ta'minlash va yerdan barqaror foydalanishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tojikiston Markaziy Osiyodagi cho'llanish oqibatlariga iqtisodiy jihatdan eng zaif davlatlardan biri hisoblanadi, chunki cho'llanishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari atrof-muhit qochqiniga aylanishi mumkin bo'lgan aholi uchun katta qayg'uga tahdid soladi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz eroziya va cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha aniq tajriba loyihalarini ishlab chiqish zarurligini e'tirof etadi.

Turkmanistonda cho'llar hududning 80 foizini egallaydi va ekin va tabiiy erlar turli darajada cho'llanishga uchraydi. Cho'l va tog' oldi yaylovlari, sug'oriladigan yerlarning degradatsiyasi muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda Turkmaniston Atrof-muhitni muhofaza qilish va yer resurslari davlat qo'mitasining Cho'l, o'simlik va hayvonot dunyosi milliy instituti (NIPRZhM) faoliyat yuritadi. Milliy o'rmon dasturi, Iqlim o'zgarishi bo'yicha Milliy strategiya hayotga tatbiq etilmoqda, Yaylovlar to'g'risidagi qonun joriy etildi, Suv kodeksi qayta ko'rib chiqildi,

Yer kodeksiga o'zgartishlar kiritildi, Iqlim o'zgarishi bo'yicha Milliy dastur qabul qilindi, Milliy harakat dasturi qabul qilindi. Cho'llanishga qarshi kurash dasturi qayta ko'rib chiqildi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish davlatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u 2030-yilga qadar strategiyada o'z ifodasini topgan.

Cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha milliy strategiya. Ayni paytda ikkinchi Milliy strategiya loyihasi tayyorlandi. Ushbu dastur, shuningdek, Barqaror rivojlanish milliy strategiyasi cho'llanishga qarshi kurashning asosiy strategiyasi hisoblanadi. Keyingi yillarda Orolbo'yi bo'yicha ikkita davlat dasturi qabul qilindi. Cho'llanishga qarshi kurashish, suv resurslarini boshqarish dasturlari, shuningdek, o'rmon resurslarini boshqarish dasturi mavjud. O'zbekistonda qarshi kurash meliorativ holatni yaxshilash dasturi doirasida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar orqali, ekologiya va iste'mol maqsadida yerdan muvozanatli foydalanish bo'yicha tajriba va ilg'or tajribalarni qo'llash, yangi innovatsion resurs tejoychi texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. yerdan foydalanish tizimiga; barqaror oziq-ovqat tizimlarini ta'minlash, rivojlantirish, yaratish va qo'llab-quvvatlash uchun barqaror yer boshqaruvi amaliyotiga investitsiyalarni jalb qilish.

Respublikada cho'llanishning oldini olish, o'rmonlarni qayta tiklash va ihota o'rmonlarini ko'paytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda respublika hududining 70 foizi yoki 31,4 mln ga tabiiy sho'rlanishga, qum ko'chkilari, changli bo'ronlar va garmsellar tarqalishi ta'siriga uchragan qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil maydonlardan iborat. Orol fojiasi oqibatida 5,5 mln gektardan ortiq maydonli Orolqum cho'li vujudga kelgan.

Yerlar cho'llanishining oldini olish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish sohasida amaldagi davlat boshqaruvi tizimi ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali muvofiqlashtirishni ta'minlash imkonini berilmayapti. Cho'llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklash bo'yicha ishlarni olib borish samaradorligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishni ta'minlanyapti.

Xulosa qilib aytganda, yer yuzida global miqyosda iqlim o'zgarishi, cho'llanish jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi zamonda, ayniqsa, bizning kam o'rmonli mintaqamizda, asosan qumli cho'l hududlarida o'rmonzorlar maydonlarini kengaytirish va yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish juda ulkan ahamiyatga ega. Bu muhim omil, shuningdek, cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, mahalliy aholining cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha xabardorligini oshirish, yerlardan barqaror foydalanishni hamda amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotda qo'llashni tashkil etishni ham taqozo etadi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее Государство Узбекистан. Ташкент. Узбекистан, 2018.
2. Указ Президента Республики Узбекистан в стратегии действий по дальнейшему развитию республики Узбекистан. Ташкент. Адолат, 2017. Экологический Вестник, 2008. № 5-6. С. 29-30.
3. Парламентские слушания «О состояниях реализации программы действий по охране окружающей среды Республики Узбекистан». Ташкент, 2018. С. 14.
4. Хайитов Ёзил Косимович, Нурбек Ахмадович Тошбеков, Хамдамова Диловар Нуруллаевна. Гидрологические основы использования дренажных сетей (по премире бухарской области). Monografia rokonferencyjna science. Research, development 26, 2020-28.02
5. Национальный доклад. О состоянии окружающей при родной среды и использовании природных ресурсов в Республики Узбекистан(2008-201 I год). - Т.; "Chinor ENK" , 2013.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

CHO'LLANISHGA QARSHI MARKAZIY OSIYO

*Yoqubov Jasurbek Salimjon o'g'li*

*Yuldoshev Sherali To'raqul o'g'li*

*Toshkent davlat yuridik unversiteti talabalari*

*Emile ID: [yoqubov15052000@gmail.com](mailto:yoqubov15052000@gmail.com)*

*Emile ID: [sher3777ali93@gmail.com](mailto:sher3777ali93@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasidagi cho'llar va ularning o'ziga xos geografik xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Cho'l, erg, zona, mo'tadil, subtropik, qumoq, lyoss, texnogen, voha, gil, taqir, sho'rxok, harorat, iqlim, qoq, tog', adir, soy.

**KIRISH**

Cho'llarning asosiy qismi subtropik va tropik kengliklarda hamda mo'tadil mintaqalarda joylashgan. Cho'llarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida, ularning makon va zamonda geografik tarqalishida bir necha omillar yetakchi rol o'ynaydi. Bular: landshaft sferasining zonalligi, issiqlik va namlikning notekis taqsimlanishi, orografik to'siqlar, subtropik kengliklarda yil davomida yuqori atmosfera bosimining hukmronligi, sovuq dengiz oqimlarining materik sohillariga ta'siri va boshqalardir. Subtropik kengliklarda yil davomida baland atmosfera bosimi hukmronlik qilgani sababli past bosimli ekvator tomon harakat qilib, yil bo'yi esib turadigan passat shamollarini vujudga keltiradi. Passatlar Yer sharining aylanishi ta'sirida shimoliy yarim sharda shimoli-sharqdan janubi-g'arbga, janubiy yarim sharda esa janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon buriladi. Passat shamollari faqat troposferaning quyi 1,5-2,5 km qalinlikdagi qatlamini egallab olib atmosferaning vertikal harakatiga, bulutlarning rivojlanishiga va yog'inlarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham tropik va subtropik kengliklarda bulutli kunlarda ham quyosh radiatsiyasining kelishi juda katta. Natijada yoz oylarida havoning nisbiy namligi o'rtacha 30% gacha pasayib ketadi. Havoning o'rtacha harorati esa 32-35° S gacha, maksimal harorati esa 50° S gacha etadi. Ana shunday tabiiy geografik sharoitda vujudga kelgan cho'llarga Afrikaning Sahroi Kabir, Katta G'arbiy Erg, Katta Sharqiy Erg, Liviya cho'llarini aytish mumkin. Subtropik kengliklarda tog' oralig'i botiqlari ham qurg'oqchil xarakterga ega bo'lib, yillik atmosfera yog'inlari 150-200 mm dan oshmaydi. Bunday joylarga Kalaxari cho'llari, Arabiston yarim orolidagi Suriya, Katta Nefrud va Rub-el-Xali cho'llari, Avstraliyaning Katta Viktoriya, Katta Qum, Simpson, Gipson, Styort cho'llari misol bo'ladi. Mo'tadil mintaqada ham cho'llarning hosil



bo'lishi uchun materik ichkarisida qulay sharoit vujudga keladi. Ana shunday ichki kontinental rayonlarga Yevrosiyoning O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo o'lkalari kiradi. Bu o'lkalar okeanlardan uzoqda joylashganligi, mussonlardan tog' tizmalari bilan to'silganligi, yoz oylarida termik depressiyaning vujudga kelishi, atmosfera yog'inlarini kam bo'lishiga va arid iqlim sharoitining shakllanishiga sabab bo'ladi. Oqibatda yog'in miqdori 100-200 mm dan oshmaydi. Maksimal havo harorati 42-45° S gacha ko'tariladi. Mumkin bo'lgan bug'lanish miqdori yog'in miqdoriga nisbatan 15-20 marta ko'pdir. Ana shunday kontinental iqlim sharoitida O'rta Osiyoda Qizilqum, Qoraqum, Mo'yinqum, Katta va Kichik Bo'rsiq qumlari, Orolbo'yi Qoraqumi, Ustyurt va Betpaqdala cho'llari tarkib topgan. Markaziy Osiyoda esa eng katta maydonlarni Takla-Makon, Gobi, Alashan, Beyshan, Ordos, Saydam, Jung'oriya, Tibet tog' cho'li va boshqalar mavjud. O'zbekiston Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida birinchilar qatorida BMTning Cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasiga a'zo bo'lgan. Ushbu Konvensiya 1995 yil 31 avgustda O'zbekiston parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinib, 1996 yildan kuchga kirgan. Bugungi kunda mazkur Konvensiyaga 196 ta davlat a'zo hisoblanadi. Qurg'oqchilik – ekinlarning hosildorligini yo'qolishi, o'rmon yong'inlari va suv tanqisligi natijasida insonlar hayotining barbod bo'lishi nuqtai nazardan eng daxshatli tabiiy ofatlardan biridir. So'nggi yillarda oziq-ovqat va suv tanqisligi, kuchli qurg'oqchilik tufayli yuzaga kelgan o'rmon yong'inlari kuchaygan. Yerning tanazzulga uchrashi va iqlim o'zgarishi natijasida kuchaygan qurg'oqchilik ayniqsa shiddatli tus olmoqda. Bunday tashvishli holat 2000 yilga nisbatan 29 foiz ko'p va har yili 55 mln. kishiga ta'sir qiladi. Eng achinarlisi, 2050 yilga borib qurg'oqchilik dunyo aholisining to'rt dan uch qismiga ta'sir qilishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi axborot xizmati ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi kunda O'zbekistonning 70 foiz yoki 31,4 mln gektar yeri qurg'oqchil maydonlar bo'lib, ular asosan tabiiy sho'rlangan, ko'chma barxan qumliklar va qumliklardan iborat cho'l hamda issiq garmsel shamollari ta'siridagi hududlardir. Orol dengizi suv sathining qurishi tufayli O'zbekistonda yana qo'shimcha 3 mln gektardan ortiq maydonda Orolqum paydo bo'ldi. Natijada ushbu mintaqada ekologik muhit yomonlashib, cho'llanish jarayonlari yanada kuchaydi va ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi.

2021-yilning cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni nishonlanadigan 17-iyun sanasi degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va sog'lom yer maydonlarini yaratish mavzusiga bag'ishlanadi. Buning natijasida iqtisodiyotning barqarorligi ta'minlanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholining daromadlari oshadi va oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlandi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yerlarni qayta tiklash bioxilma-xillikni saqlashga hissa qo'shadi. Yerning isishiga ta'sir etuvchi atmosfera uglerodining yerda saklanib kolishi tufayli, iqlim o'zgarishi jarayoni

sekinlashadi. Shuningdek, bu iqlim o'zgarishi oqibatlarining yumshashiga olib kelishi va COVID-19 pandemiyasi tugagach, “yashil” tiklanishga asos bo'lishi mumkin. O'zbekistonda 2017-yildan buyon CADI — “Markaziy Osiyodagi cho'llar bo'yicha tashabbus” loyihasi amalga oshirilib kelmoqda. Ushbu loyiha Birlashgan Millatlar oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan amalga oshirilib, Germaniya hukumati tomonidan moliyalashtirilmoqda. Tashabbus, global ahamiyatga ega bo'lgan noyob ekotizimli mo'tadil cho'llarni saqlash va ulardan barqaror foydalanishga qaratilgan. Ular qushlar, shuningdek, yovvoyi tuyoqli hayvonlar uchun muhim migratsiya mintaqalaridir, — deya ta'kidlaydi CADI loyihasining O'zbekistondagi Milliy koordinatori Narimon Nishonov. — O'zbekiston bilan bir qatorda, Qozog'iston va Turkmaniston ham CADIning maqsadli mamlakatlaridan hisoblanadi. O'zbekiston hududining yarmidan ko'prog'i cho'llar bilan qoplanganligi, bu eko-tizimlarning mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatini tasdiqlaydi. Bugungi tadbirda keng manfaatdor shaxslar doirasi uchun o'quv kursi o'tkazib, ularni tabiiy resurslarni kompleks boshqarish, shuningdek, er resurslarini barqaror boshqarish bo'yicha eng samarali texnologiyalar bilan tanishtirildi. Markaziy Osiyo davlatlari va AQSh iqlim inqirozini yengish to'g'risida qo'shma bayonot qabul qildi. Unda aytilishicha, iqlim o'zgarishi mintaqada suv mavjudligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, cho'llanish va tuproq degradatsiyasini tezlashtirmoqda.

Xalqaro ilmiy jamoatchilikning e'tirof etishicha, cho'llanish dunyoning barcha regionlaridagi mamlakatlar uchun juda ham katta iqtisodiy, sosial va ekologik muammo bo'lib hisoblanadi. Hozirgi davrning eng keskin global muammolaridan biri ekologik tizimga antropogen yukning oshib borishi natijasida deyarli barcha turdagi landshaft majmualarining degradatsiyalashib borishidir.

Shoir Abdulla Oripov 1998 yili O'zbekiston Qahramoni unvoni, 1983 yili O'zbekiston SSR Xalq shoiri, 1994 yil "Do'stlik" ordeni, 1991 yil "Xalqlar do'stligi" ordeni, 2015 yil Italiya Yulduzi ordeni bilan mukofotlangan.

1996 yil teatr san'ati rivoji, qirg'iz va o'zbek xalqlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga qo'shgan hissasi uchun Qirg'iziston Respublikasi faxriy yorlig'i

1983 yili Hamza nomidagi O'zbekiston SSR Davlat mukofoti, 1994 yili Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti, 2007 yil "WIPO Creativity Award" oltin medali bilan taqdirlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sharafiddinov O. She'riyat — qalb yolqini. „Hayot bilan hamnafas“ kitobida. Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984.
2. Karimov N. va boshqalar. 20 asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi“, 1999.
3. Qo'shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma'naviyat“, 2000.
4. <https://en.wikipedia.org/>
5. "Oripov, Abdulla". Uzbek Soviet Encyclopedia (in Uzbek). Vol. 8. Tashkent: Uzbek Soviet Encyclopedia. 1976. p. 281.
6. "Abdulla Oripovning singlisi: Ba'zida opa-singilga, aka-ukaga firib beradi..."  
13 December
7. 2019. Archived from the original on 14 December 2019.

**YOSHLAR ONGIDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLARNING DAVRLARI**

*Muhriddin Oltiboyev Nazirali o'g'li*

*ISFT instituti (International school of finance and technology)*

*2-bosqich talabasi Pedagogika va psixologiya yo'nalishi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshning psixologik turlari, davrlari haqida so'z borgan. Yosh - bu shaxsning integral xususiyati bo'lib, u insonning yashash muddatini va uning hayot natijasida erishilgan rivojlanish darajasini aks ettiradi.

**Kalit so'zlar :** Intellektual, o'smir, neoplazma, egosentrik tendensiyalar, metafizik, yosh integratsiyasi.

**Kirish :** Yosh turlari:

1. Xronologik (pasport)
2. Shartli yosh (insonning yosh normasiga muvofiq rivojlanish darajasi) Shartli yoshni ajratib: biologik, psixologik (aqliy), ijtimoiy, shaxsiy. Elkonin bo'yicha yosh davriyligi

- 1) Go'daklik (0-1 yosh) - kattalar bilan hissiy muloqot
- 2) Erta bolalik (1-3 yosh) - ob'ekt-manipulyatsiya faoliyati
- 3) Maktabgacha tarbiyachi (3-7 yosh) - rolli o'yin
- 4) Kichik o'quvchi (7-11 yosh) o'quv faoliyati
- 5) O'smir (11-15 yosh) intim-shaxsiy muloqot
- 6) Ilk yosh (15-18 yosh) ta'lim va kasbiy faoliyat

O'smirlik davri bolalikning oxirgi davri va balog'atning birinchi yoshi deb ataladi. Shaxsning voyaga yetishi, uning ijtimoiy hayotga kirib borish jarayoniga zamonaviy qarashda o'smirlik davri erta yosh (15-17 yosh) va kech yoshlik (18-21 yosh) deb belgilanadi. Turli davrlarda yoshlikning yuqori chegarasi juda o'zgaruvchan: 20 yoshdan 22 yoshgacha. Bu mavzuning vazifasi insonning bolaligi tugaydigan davr sifatida erta yoshlik psixologiyasini ajratib ko'rsatishdir. Yoshlarning asosiy vazifasi shaxsning kamolotga kirishiga imkon berishdir. Ruhning barcha kuchlari - ma'naviy, intellektual, jismoniy, V.V.Zenkovskiyning fikriga ko'ra, bunga juda tayyor. Yoshlik o'zida oldingi yoshdagi barcha neoplazmalarni to'playdi va ular yoshlikda yangi sifatda namoyon bo'ladi. Erta bolalikdan boshlab, estetik turdagi munosabat yoshlikka, yorqin cheksizlik hissiga qaytadi. Kichik maktab yoshi tashqi, ijtimoiy va axloqiy dunyo qonunlari va tartiblariga e'tibor beradi. Ularning yangi sifati voyaga yetgan shaxsning nafaqat amaldagi qonunlarga moslashishga, balki o'zi ham ushbu qonunni ma'qullagan holda vaziyatni o'zgartirishga intilishida namoyon bo'ladi. "Nihoyat, o'smirlikdan yoshlikgacha jinsiy aloqaning qudratli kuchi keladi, lekin go'yo o'zlashtirilgan va ma'rifatli ... odatda o'z ob'ektini topadi, unga jo'shqin sig'inishda qalbning barcha eng



yaxshi kuchlari gullab-yashnaydi."O'smirlik davridan boshlab, bola ma'lum modellarga ongli ravishda taqlid qilish qobiliyatiga ega bo'lgan yangi davrga kiradi, o'zini shaxs sifatida aniq tasavvur qiladi, u ma'lum bir maqsadga erishish uchun o'z irodasidan foydalana oladi va o'z shaxsiyatini qurishni boshlaydi

Shuningdek, biz erta o'smirlikni ushbu davrdagi barcha o'zgarishlarning markazida bo'lgan integrativ psixologik funktsiya sifatida o'z-o'zini ongni shakllantirish prizmasi orqali ko'rib chiqamiz.O'smirdan farqli o'laroq, yigit o'z idealini atrofidagi odamlar bilan bog'laydi. U bu idealni jonli real vaziyatlarda va yaqin odamlarda ko'rishga harakat qiladi. Ammo bu ko'pincha yoshlarda mavjud bo'lmagan maxsus shaxsiy fazilatlarini talab qilganligi sababli, yigit bu odamlar bilan ziddiyatga ega. Uning uchun ideallariga mos keladigan narsa ijobiy, mos kelmaydigan narsa esa salbiy. Yoshlik maksimalizmi tez-tez umidsizlikka sabab bo'ladi. Bu yosh davri obrazli ma'noda "oq-qora" mantiq davri sifatida tavsiflanadi. Faqat o'zini o'zi bilishning rivojlanayotgan jarayoni yigitga o'z bahosini to'g'rilash va o'z pozitsiyasi va boshqa odamlarning pozitsiyasi o'rtasidagi muvozanatni topishga imkon beradi. O'z-o'zini bilish unga idealni o'zining shaxsiy xususiyatlari bilan bog'lashni boshlashga imkon beradi va bu erda biz hayot davri sifatida bolalik tugaganligini aytishimiz mumkin.Insonning o'ziga xosligi, o'ziga xosligi, o'xshashligi va o'ziga xosligini anglash mavjud. Bu yoshga xos bo'lgan ichki kuchlanish yolg'izlik tuyg'usini keltirib chiqaradi, bu tengdoshlar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojni oshiradi va shu bilan birga selektivlikni oshiradi. Shuning uchun erta yoshlik davrida do'stlik va romantik sevgi katta ahamiyatga ega. Muloqot maxfiy va samimiydir. Bu boshqa odamlar bilan yaqin, yaqin va ochiq munosabatlar o'rnatish uchun sezgir yosh. Bu mahoratni o'rganmagan yigitlar uchun keyingi hayotda do'stlashish qiyin. Bundan tashqari, do'stlik va sevgi o'ziga xos psixoterapiya vazifasini o'taydi, bu yosh odamga haddan tashqari histuyg'ularini ifodalash, o'zini o'zi tasdiqlash uchun zarur bo'lgan yordamni olish imkonini beradi. Rivojlanish psixologlari ta'kidlaganidek, yigit va qizlar qarama-qarshi jins vakili bilan muloqot qilishda o'smirlik davrida hukmron bo'lgan jismoniy muloqotni (quchoqlash, chimchilash, urish, teginish) og'zaki muloqot (maqtovlar, kinoya, hazil hazillari, o'yin ko'rsatmalari) bilan almashtiradilar. ). Qizlar uchun kundaliklar ko'pincha hissiy chiqishdir.

Professional o'zini o'zi belgilash

An'anaga ko'ra, o'smirlik kasbiy tanlov pozitsiyasidan ko'rib chiqiladi (Pryazhnikov, 1996). E.A. Klimov, shaxs kasbiy rivojlanish yo'lini tanlash to'g'risida fundamental qaror qabul qilganda, ko'rib chiqilgan yoshga to'g'ri keladigan mutaxassis bo'lish bosqichlarida variant bosqichini alohida ajratib ko'rsatadi. Variant bosqichi (lotinchadan – "istak", "tanlash") muallifning fikricha, 11-12 yoshdan 14-18 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.L.A. Goloveyning fikricha, adekvat kasbiy tanlovning asosi shaxsning kognitiv qiziqishlari va kasbiy yo'nalishini

shakllantirishdir. 16-17 yoshda qiziqishlarning integratsiyasi kuchayadi va shu bilan birga ularning jinsiga qarab farqlanadi. Kognitiv va kasbiy qiziqishlarning uyg'unligi mavjud. Bundan tashqari, boshlang'ich kasbiylashtirish bosqichida shakllangan kasbiy yo'nalish va kasb tanlash bilan belgilanadigan kognitiv qiziqishlarning torayishi kuzatiladi. Kasbiy yo'nalish individual psixologik xususiyatlarga, shaxsiyat potentsiallari tizimiga asoslanadi va juda aniq gender o'ziga xosligiga ega: o'g'il bolalar ko'proq texnik yo'nalishga ega, qizlar esa ijtimoiy va badiiy yo'nalishga ega. Kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayoni bir necha bosqichlardan o'tadi. Birinchi bosqich - bu bolalar o'yini bo'lib, uning davomida bola turli xil professional rollarni o'z zimmasiga oladi va u yoki bu bilan bog'liq xatti-harakatlarning individual elementlarini o'ynaydi.

Ikkinchi bosqich - o'smir fantaziyalari, o'smir tushida o'zini o'zi uchun jozibali kasbning vakili sifatida ko'radi. Butun o'smirlilik va yoshlik davrini qamrab oluvchi uchinchi bosqich - bu kasbni dastlabki tanlash. Har xil mashg'ulotlar saralanadi va baholanadi, avvalo o'smirning qiziqishlari (men tarixni yaxshi ko'raman, tarixchi bo'laman!), so'ngra uning qobiliyati (matematikani yaxshi bilaman, buni qilish kerakmi?) va nihoyat. , uning qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan (kasallarga yordam berishni xohlayman - shifokor bo'laman). To'rtinchi bosqich, I.S. Kona, - amaliy qarorlar qabul qilish, kasbni haqiqiy tanlash, u ikkita asosiy komponentni o'z ichiga oladi: kelajakdagi ishning malaka darajasini, unga zaruriy tayyorgarlikning hajmi va davomiyligini aniqlash, ya'ni. ma'lum bir mutaxassislikni tanlash. Biroq, sotsiologlarning ma'lumotlariga ko'ra, universitetga kirishga yo'naltirilganlik muayyan vaziyatni tanlashdan oldin shakllanadi. Muvaffaqiyatli kasbiy o'zini o'zi belgilashning eng muhim shartlari - bu shakllangan intellektual salohiyat, o'zini o'zi munosib baholash, hissiy etuklik va shaxsning o'zini o'zi boshqarishi. Zamonaviy sharoitda 13-14 yoshli o'smir kelajakdagi kasbni, ta'lim profilini tanlashga majbur, lekin mustaqil tanlovga tayyor emas va kasbiy o'zini o'zi belgilashda past faollikni ko'rsatadi. Keng ma'noda o'smirning o'zini o'zi belgilashi nafaqat kasbiy tanlovni, balki gender-rol o'zini o'zi belgilash, shaxsiyatni shakllantirish, qiymat-semantik o'zini o'zi belgilash jarayonlarini ham o'z ichiga oladi.

#### Aloqa va dunyoqarash

Yoshlik davri kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi belgilashning boshlanishi bilan bog'liq - maktabda o'qish tugashi, kasbiy tayyorgarlikning boshlanishi yoki birinchi mustaqil mehnat faoliyati, shaxsiy bog'lanishlar kuchayib bordi. Yoshlarning etakchi faoliyati hayotda o'z o'rnini izlashdir. Asosiy neoplazmalar - o'zini yaxlit, ko'p qirrali shaxs sifatida anglash, hayot rejalarining paydo bo'lishi (strategiya qurish), o'z taqdirini o'zi belgilashga tayyorlik etuk. Erta yoshlik davrida kattalar bilan muloqot qilish alohida qiziqish uyg'otadi. Kattalar bilan hissiy aloqalar ongli darajada tiklanadi. Ota-onalar bilan kelajak uchun rejalar, hayot istiqbollari muhokama qilinadi. Ularda yoshlar maslahatchilar va do'stlarni ko'rishni xohlashadi, lekin ma'lum bir masofada: bu

mazmunli muloqot, lekin samimiy emas. O'g'il bolalar va qizlar hayotining psixologik davrida kelajakka urg'u beriladi. Hozirgi zamon faqat kelajakka, haqiqiy (kattalar) hayotga tayyorgarlikdir. Bu yosh odamga muammolar va umidsizliklarni boshdan kechirishni osonlashtiradi, ularga engil yurak bilan munosabatda bo'lishga imkon beradi. Bunday munosabatning teskari, salbiy tomoni - mas'uliyat hissining pasayishi. Kelajakka umid bilan yashayotgan yigit ayni paytda darhol yoki juda yaqin kelajakda natija olishni xohlaydi. Bu qarama-qarshilik, R.M. Granovskaya, fiziologik va psixologik sabablarga ega: yosh yigit uchun vaqt etuk odamlarga qaraganda bir oz sekinroq ketadi. Yoshlik, hayot qoralamani bilmasligini, hamma narsa yakunlanganini anglab etganida tugaydi. Ushbu illyuziyalarni bartaraf etish, etuk odamni hayot rejalarini amalga oshirish uchun muayyan harakatlar qilishga undaydi. Kognitiv soha rivojlanishining ma'lum darajasi illyuziyalarni engishga yordam beradi. Yigitning tafakkuri turlicha fikrlashning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi: u har qanday tushunchaning bir ma'noli talqini yo'qligini tushuna boshlaydi. Tushuncha yoki harakatning haqiqatini faqat yaxlit vaziyat kontekstida baholash mumkin. O'zini va dunyoni nazariy tushunish mavhum modellarni qurishga olib keladi.

Fikrlash va xatti-harakatlarda erkinlik ochilishi yoshlarga kelajak hayotiga o'ziga xos taraqqiyot beradi. Falsafaga intilish, mantiqsiz narsalar haqida fikr yuritishga intilish yoshlarning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Yoshlar hayotidagi ushbu holatni idrok etish yigitlarning o'zlari bilishida ham, kattalar tomonidan tushuntirishda ham sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Siz o'smirlikni "metafizik mastlik" yoshi deb atashingiz mumkin yoki "haqiqatning ruhiy olami insonni qanday ilhomlantirayotganini va isitayotganini ko'rishingiz mumkin ... Bu ruhiy dunyo hayotga "moslashish" bilan chetga surilmaydi ... bu bepul va yoshlikda aniq ifodalangan cheksizlik nafasiga to'la ...".

Shu bilan birga, yoshlar unda sodir bo'layotgan voqealarning to'liqligini va atrofdagi haqiqatda sodir bo'layotgan narsalarni tushunishda cheklangan. Yoshlikning ana shu uzoqni o'ylamasligi uning bolalikka tegishliligini ochib beradi. O'z holatini etarli darajada baholay olmaslik, dunyoviy tajriba etishmasligi bilan bog'liq bo'lgan "ijtimoiy ko'rlik", his-tuyg'ularning yaxlitligi va yuksakligi "oson hayot" bilan almashtirilishiga olib kelishi mumkin. hayotdan hamma narsani olib tashlang" yoki yoshlar radikalizmiga xalaqit beradigan hamma narsani fanatik tarzda yo'q qilish. Jismoniy va intellektual etuklik yoshlarni da'volarning eng yuqori darajasiga qo'zg'atadi, yoshlik maksimalizmi ko'pincha eng oddiy va zarur narsalarni qilishga imkon bermaydi. O'qishda tashqi yutuqlarga intilish ko'pincha namoyon bo'ladi - kelajakdagi mutaxassislikning yuqori moddiy yoki ijtimoiy mavqei jozibador bo'ladi, o'qituvchilarga istak yoqadi. Egosentrik tendentsiyalar ruhiy hayotda ham ustunlik qilishi mumkin. "Yoshlar qalbida bema'nilik va shuhratparastlik gullab-yashnaydi, shuning uchun ruhoni yigit va qizlarni doimo o'zlari haqidagi fikrdan, ishning ob'ektiv

manfaatlariga o'zgartirishi kerak. Yoshlarning ma'naviy ozuqasiga e'tibor qaratayotgan ruhoniylar o'zining yosh parishonchilarining his-tuyg'ulari, fikrlari qayerga yo'naltirilganini yaxshi his qilishi, ularning niyatlari naqadar adekvat ekanini anglashi juda muhim. Ko'pincha monastir hayot yo'li cherkovga boradigan yigit va ayollar uchun jozibali bo'ladi. Institutdagi javobsiz sevgidan birinchi umidsizlik va zarbalarni, muvaffaqiyatsiz sessiyani boshdan kechirgan holda, ular o'z e'tirofchilaridan monastirda itoatkorlik uchun duo qilishlarini so'raydilar va keyin unda qolish niyatida. Agar bu "yaxshi impulslar" o'z-o'zini hurmat qilish natijasida yuzaga kelgan og'riqli ruhiy holat sifatida o'z vaqtida e'tirof etilmasa, bema'nilik va shuhratparastlik yoshlarni shafqatsiz va achchiq umidsizlikka olib kelishi mumkin. "Yoshlar hamisha printsiplial jihatdan xilma-xillikni, xilma-xillikdagi printsipliallikni tushunishga doimo tayyor." Yoshlik haqidagi tushunchasini tushuntirar ekan, E.Erikson muvozanatli qaror qabul qilishdan oldin yoshlar ekstremal vaziyatlarni boshdan kechirishini ta'kidlaydi. Ushbu sinovning mohiyati "tana va ruh kuchlarini mavjud (yoki kelajakdagi) tartibning bir qismiga ishonib topshirishdan oldin, jamiyatda mavjud qonunlarga bo'ysunishdan oldin, qandaydir haqiqatning pastki chegarasini aniqlashdir. Sodiqlik, qonunga bo'ysunish, agar u mustaqil o'zini o'zi tanlash tuyg'usi bilan yuklanmasa va sodiqlik sifatida boshdan kechirilmasa, xavfli yukdir. Olimlar bu davr uchun turli yosh chegaralarini berishadi. D.B. Elkonin bu yoshni belgilaydi erta yoshlik (14-15 yoshdan 17-18 yoshgacha), D.I. Feldshteyn buni shunday ta'riflaydi yosh o'smirlik (15-18 yosh); I.Yu. Kulagina katta maktab yoshini - erta yoshlarni (16-17 yosh), yoshlarni - 17 yoshdan 20-23 yoshgacha belgilaydi. Miloddan avvalgi Muxina yoshlik davrini o'smirlikdan keyin balog'atga etish davri (15-16 yoshdan 21-25 yoshgacha) belgilaydi.

Yoshlik - bu hayot yo'lini tanlash, tanlangan mutaxassislik bo'yicha ishlash (uni izlash), universitetda o'qish, oila qurish, yigitlar uchun - armiyada xizmat qilish.

#### Xulosa

Shunday qilib, erta yoshning psixologik mazmuni kasbiy ta'rif va kattalikka kirish muammolarini hal qilish bilan bog'liq; o'smirlik davrida intellektual sohaning eng muhim yangi shakllanishi - nazariy (mavhum) tafakkurning rivojlanishi; o'smirlik faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z ahamiyatini anglash, e'tiqod va qadriyatlarni shakllantirish bilan bog'liq; o'smirlikning markaziy psixologik neoformatsiyasi - bu barqaror o'z-o'zini anglash va "men" ning barqaror qiyofasini shakllantirish.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. Bojovich L.I. Ontogenezda shaxs shakllanishi // Psixologiya savollari №2. - M.: Ma'rifat, 1978 yil.
2. Vygotskiy L.S. Psixologik inqirozning tarixiy ma'nosi // Sobr. op. 6 jildda - M.: Pedagogika. 1982 yil.
3. Kon I.S. Ilk yoshlik psixologiyasi. - M.: Maktab-press, 1989 yil.
4. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini o'z-o'zini tartibga solish va bashorat qilish / Ed. V.Ya. Yadov. – L.: LGU, 1979 yil.
5. Stolyarenko L.D. Pedagogik psixologiya. - Rostov-n / D.: Feniks, 2003 yil.
6. Feldshteyn D.I. Ontogenezda shaxs rivojlanishi psixologiyasi.- M.: Ta'lim, 1989.
7. O'smirlikdan yoshlikka o'tish davrida shaxsning shakllanishi / Ed. I.V. Dubrovin. - M.: Ma'rifat, 1983 yil.
8. Elkonin D.B. Bolalikda aqliy rivojlanishni davrlashtirish muammosi to'g'risida // Psixologiya savollari. 1971 yil, № 4.



## “BOBURNOMA” ASARINING TARBIYAVIY TARIXIY VA ILMIY AHAMIYATI

*Muhriddin Oltiboyev Nazirali o‘g‘li*

*ISFT instituti (International school of finance and technolgy)*

*2-bosqich talabasi Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi*

**Annotatsiya** : Ushbu maqolada Boburnoma — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi nomlar bilan ham ma‘lum. Boburning o‘zi esa "Vaqoye" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiysiyosiy voqealar yilmayil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘likdir.

**Kalit so‘zlar** : lingvistika, Boburnoma, Xamsa, mutaassiblik, lirik.

**Kirish** : Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar xayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida “Boburnoma” alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o‘zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy – tarixiy, ilmiy – tabiiy va adabiy- lingvistik ma‘lumotlar xazinasidir. Unda 1494-yildan 1530-yilgacha O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Bobur tarixiy faktlarni Shunchaki qayd etish, jangu jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qilad, manzara chizadi, tabiatni, etnografik xolatlarni tasvirleydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Shu sababdan asar faqat ilmiy – tarixiy ahamiyati bilan emas, balki o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidir. Shoir o‘z xotiralarini badiiy naql uslubda sodda va ravon bayon etadi. O‘nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tabiat manzaralarini suratini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she‘riy parchalar bilan bezaydi. Tilga olingan shaxslarning portreti kiyinishini, tashqi ko‘rinishini, fe‘l atvorini, odatlari, o‘tmishi, avlod-ajdodi, birma bir ta‘rif etiladi. Asardagi markaziy obraz Boburning o‘zi, albatta. Uning his tuyg‘ulariga boy qalbi ko‘z oldimizda yorqin jonlanadi. Ingliz tarixchisi Elfiniston “Boburnoma” va uning muallifi haqida: “Uning shaxsiy his – tuyg‘ulari har qanday mubolag‘adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy na mardona, shu bilan birga jonli va ifodali. O‘z zamondoshlari biografiasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko‘zguda aks etgandek ravshan

tasvirlaydi. Bu jihatdan “ Boburnoma “ O’rta O’siyodagi yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir ” deb yozadi. Bobur O’rta Osiyo, Xuroson va Hindiston geografiyasi, hayvonot hamda nabodot olami to’g’risida boy ma’lumot bergan. Xususan, “Boburnoma”da hindlarning etnografiysi, ilmu fani, san’at va madaniyati haqida va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasida ( 1958-yil ) qimmatli faktlar bor. Taniqli hind hind shoiri Mulk Roj Anand Osiyo so’zlagan nutqida: “ Bu kitob siz bilan bizning merosimizdir. O’zbekistondagi singari bizda ham “ Boburnoma “ g’oyat qadrlanadi.” Degani bejis emas edi. Davrning juda ko’p xususiyatlarini qamrab olishi, qomusiy xarakteri va o’zbek adabiy tilining beqiyos boy imkoniyatlarini namoyish etishi bilan “ Boburnoma “ Alisher Navoiyning “ Xamsa” siga qiyos qilgudek madaniy obida hisoblanadi. Asarning tez orada shuhrat qozonib, XVI asrning o’zidayoq bir necha marta fors tiliga tarjima etilishi ham fikrimizning isbotidir. “ Boburnoma “ fors tiliga birinchi marta 1589-yili shoirning nevarasi Shoh Akbar saroyida xizmatda bo’lgan Abdurahimxon ibn Bayramxon Xoni Xonon tomonidan tarjima qilindi. Tarjima ko’p nusxada ko’chirilib, “ Voqeati Boburiy“, “ Tarixi Boburshohiy “ nomlari ostida Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. Abdurahimxon tarjimada Boburning o’ziga xos bayon tarzini bera olgan, asar fors adabiyoti va tarixchiligida ulkan yangilik sifatida qabul qilingan.

Qamrab olingan tarixiy voqealarning ro’yi-rost ko’rsatilishi, ilmiy faktlarga boyligi bilangina emas, balki ravon uslubi, sodda va jozibadorligi bilan ham Bobur asari o’zidan keyin yaratilgan tarixiy memuarlarga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Chunonchi, Gulbadanbegimning “ Humoyunnoma “ va Nizomiddin Hiraviyning “ Tabaqoti Akbarshohiy “ kabi kitoblarida buni yaqqol his etish mumkin. Shuni yatish kerakki, XVI asrdan boshlab o’zbek adabiyotining yana boshqa namunalari ham fors tiliga tarjima qilindi. Sharqning ilg’or ziyolilari turkiyda ( eski o’zbek tilida ) yaratilgan adabiyotning katta nufuzga ega ekanligini ko’rib ilm ahlini bu tilni o’rganishga da’vat eta boshlaydilar. Navoiy va Boburning ajoyib asarlarni tarjima qilib, forsiydonlarni baxramand etishni muhim vazifa deb biladilar.

Chunonchi, “ Majolis un-nafoyis “ni 1521-yilda Forschaga o’g’irgan Sulton Muhammad Faxriy Xirotiy yozadi: “ Ba’zi e’tiborli va xurmatli kishilar turkey iborasi (tili)dan behabar bo’lganlari sababli bu go’zal so’zlarning mavjidan va bu san’atlar dengizining duru gavharlaridan bebahradirlar. Bu taassufli axvol edi va shuning uchun turk go’zali kabi parda ichida qolgan bu dilafro’zning yuzidan pardani ko’tarishni va mo’jizali xayolot yaratgan bu zebo suratni fazilat va kamol ahliga pardasiz ko’rsatishni niyat etdim.” “ Boburnoma “ qo’lyozmalarining chiroyli rasmlar bilan bezatilishi ham tarjimaning shuhrat qozonishiga sabab bo’lgan. Uning saroyida 104 nafar rassom doimiy ish olib brogan. Tarjimon Abdurahimxonning o’zi ham rasm chizish bilan shug’ullangan . Akbar saroyida o’nlab kitoblarga rasmlar chizilgan . “ Boburnoma” ning forsiy nushalariga ishlangan miniaturalar Sharq rassomlik san’atining ajoyib

namunalari hisoblanadi. Ingliz sharqshunosi L. King bergan ma'lumotiga qaraganda, "Boburnoma" o'z asarida yana ikki marta Muhammadquli va Zayniddin Xavofiy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Biroq bu tarjima qo'lyozmalarining qqyerda



saqlanishini olim aytmaydi. Abdurahimxon tarjimasi Britaniya muzeyida va Maskvadagi Sharq qo'lyozmalari fondida saqlanadi. Fotonusxasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyimiada ham bor. G'arb olimlari "Boburnoma" bilan dastlab ana shu forsiy nusxalar orqali tanishadilar. Yevropa sharqshunoslari orasida Vitsen birinchi marta "Boburnoma" bilan qiziqib, undan ayrim qismlari golland tiliga tarjima qiladi. ( 1705-yil ).XIX asr boshlariga kelib, asar butun Yevropa ilm ahliga ma'lum bo'lgan. Bobur merosining jahoniy shuxratida, ayniqsa, ingliz sharqshunoslarining xizmati ulkandir. Ular "Boburnoma" ni tarjima qilish va nashr etishdagina emas, balki tadqiq va targ'ib etish borasida ham birinchilikni egallaydilar. 1816-yilning 12-aprelida Uilyam Erskin Bo'mbaydan turib, Londindagi nozirlarga yozgan xatida tugabmas ganjina topib olganlik xursandligini bildiradi va "Boburnoma" ni tarjima qilayotganidan xabar beradi.

Aqlining aktiv faoliyati, xushchaxchaq va sovuqqonligi, bevafo taqdirining nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi, podsholar orasida juda kam uchraydigan sahiyligi, mardligi, istedodligi, fanga, san'atga muhabbat va ular bilan faol shug'ullanishi jihatdan Osiyo podsholari orasida Boburga teng keladigani yo'q." J. Layden va U. Erskin tarjimasi 1921-yili Oksford universiteti nasgriyoti tomonidan ko'p jildli qilib, ikkinchi marta chop etildi. Bu nashrda Dublin universitetining professori L. Kivt so'zboshi yozib, "Boburnoma" nashrlari, uning jahon qo'lyozma fondlaridagi nusxalari, tarjimalari haqida ma'lumot beradi, inglizcha variantni qayta taxrirdan chiqaradi. Birinchi jildning yarmini tashkil etadigan ilmiy ocherkida u Movarounnahr va Xuroson tarixi, geografiyasi, Bobur tilga olgan Samarqand, Andijon, O'ratepa, Kobul va boshqa shaharlarning hozirgi ahvolini keng yoritgan. Mazkur nashrning yana bir fazilati shundaki, tarjimaning ilmiy aniqligini ta'minlash uchun xoshiyalarda ko'p

miqdorda izoh va sharxlar berilgan, kitobdagi she'rlarning kimga taaluqli ekanligi va qaysi tilda yozilgani ham ko'rsatilgan. Ingliz sharqshunoslaridan A. Beverij xonim 1902-yili "Boburnoma" ning Xaydarobotd nusxasini faksimile xolida chop ettiradi. ( U 1971-yili Londonda qayta nashr etildi.

Mazkur nashr asarning yana kengroq ommalashuviga sabab bo'ldi. Asarning M. Sale bajargan ruscha tarjimasi hamda 1960-yili P. Shamsiyev va S. Mirzayev tayyorlagan o'zbekcha nashri ana shu A. Beverij xonim nashriga asoslangan. "Boburnoma" P. M. Kaldekot tomonidan ingliz tiliga qisqartirib tarjima qilindi. XX asr oxirlarida F. J. Talbot ham asarni tarjima qilib, suratlar bilan nashr ettiradi. Shuningdek, Bobur asarlarining Turkiyada tarqalishiga atoqli olim Rashot Raxmon Oratning xizmati katta. Ingliz tilida Bobur hatyoti va ijodini o'rganishga talay maxsus monografiyalar yaratildi. Len Poolning "Bobur" ( Oksford 1899-yil ) va Xarold Lembning "Bobur yo'lbars" ( Nyu-York 1961-yil ) nomli kitoblari shular jumlasidandir. Ayniqsa, keying kitob qiziqarli adabiy tarixiy ocherk uslubida yozilgan. Buni kitobning ichki bo'limlariga qo'yilgan "Vodiydagi voqealar", "Samarqanddan quvilish", "Qobuldagi saltanat", "Hirotda xiyofat", "Bobur va uning eli", "Hindiston sari yurish", "Panipat va Kanvand", "Buyuk mo'g'ullar imperiyasi", kabi sarlavhalarda ham bilish mumkin. X. Lemb Boburning adabiy merosidan ilmiy ma'lumot sifatida keng foydalangan, ko'proq "Boburnoma" ga murojat etib, undan talay parchalar tarjimasini ham keltirgan. Bundan tashqari, u Mirzo Bobur yurgan yo'llarning ot vatuyada kezib chiqqan. Shunga o'xshash talay noaniqliklarni bartaraf etish uchun "Boburnoma" ning eng e'tiborli qo'lyozma nusxalarini chog'ishtirib, uning ilmiy matnini tayyorlash zarur edi. Va nihoyat, bu ishni yaponiyalik boburshunos olimlar amalga oshirdilar. Asarning tanqidiy matni yaratilib, nashr etildi. Ko'rinib turinibdiki, Mirzo Boburning hayoti va ijodi turli mamlakatlarda o'rganilmoqda va xalqaro ilmiy hamkorlik vositasiga aylanib, bormoqda. Bu ham o'zbek xalqining ulug' istedodi, iftixoridan nishonadir. Har bir xalqning tarixiy, madaniy milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug' shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo'ladi. Insoniyatning adabiyotga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z o'rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlar beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san'atshunos, etnograf hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko'pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina "Boburnoma" uning yigirmadan ortiq sohalariga qiziqqanligiga yaqqol misoldir. Shoh Bobur, birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisi. Balki, boburiylar jahon tarixida eng uzoq yillar (332 ) hukmronlik qilgan sulola bo'lib chiqar...U podshoh sifatida lasgkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarning ulug'vor nasgidalarini surishni ko'p marotaba o'z boshidan kechirdi. Otasi singari ulug' himmatli va oily maqsadli shaxs bo'lganligidan Farg'ona viloyatini



kichik joy deb hisoblab, Samarqandga intildi. U yerda Shayboniyxondan yengilib, Qobulga keldi va keyin Hindistondek bepayon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi. Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'alarini davom ettirdi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq kanallar qazish, bog'-rog'lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi.

Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javoharlar Neru o'zining "Hindistonning ochilishi" va "Jahon tarixiga bir nazar" asarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to'liq ushbu fikrlarni izhor etgan: "Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasi. U mard va tadbirkor odam bo'lgan. Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mansabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san'at va ayniqsa, adabiyotni sevardi." Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan". Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari tarixiy adabiy manba sifatida yana shunisi bilan e'tiborliki, asarda ko'plab tarixiy shaxslar, adabiyot va san'at ahllari, din peshvolari, shox va shaxzodalar, beklar, amiru umarolar haqida ma'lumotlar uchraydi. "Boburnoma" da bir necha yuz tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlari tasvir etiladi. Bular shoxlar, viloyat hokimlari, amir-amaldorlar, askar boshliqlar, din va namoyondalari, askarlar, ilm-fan, san'at va adabiyot ahillari, dehqonlar, hunarmandlar, qullar va boshqa ijtimoiy guruhdagi lavozim va kasbkordagi kishilardir. Bobur ularning tasvirlanayotgan voqealardagi rolga qarab birlari haqida keng va batafsil so'zlaydi, ikkinchi birlari haqida qisqa ma'lumot beradi, boshqa birlarini biron munosabat bilan tilga oladi yoki eslab o'tadi. U voqealarning rivojida muhimroq o'rin tutgan Umarshayx Mirzo, Husayn Bayqoro, Sulton Ahmad Mirzo, Xisravshoh kabi tarixiy shaxslarning faoliyati va sarguzashtlarini bayon etish bilan birga, ularning shakl-shamoili, nasl-nasabi, ma'naviy qiyofasi, hislati, xulq - atvori, kishilarga munosabati, madaniy saviyasi va boshqa jihatlarni ham tasvirlaydi. "Boburnoma" da ilm-fan, san'at va adabiyot ahillariga katta o'rin berilgan. Bobur Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn, Muammoniy, Shayxim Suhayli, Yusuf Badeyniy, Ahmad Xojibek, Behzod, Sulton Ali, Hoji Abdulla Marvoriy, Shoh Muzaffar, G'ulom Shodiy, Husayn Uddiy kabi bir qator shoirlar va san'atkorlar haqida ma'lumot beradi, ularni maqtaydi, asarlaridan namunalar keltiradi, ba'zan hayoti, faoliyati yoki shaxsiy sifatleri haqida qiziqarli fikrlar so'zlaydi. "Boburnoma" bu kishilarning hayoti va faoliyatini o'rganishda ularning madaniy hayotidagi o'rnini belgilashda juda ahamiyatlidir. Natijada biz Bobur zamonida yashagan va tariximiz, ma'naviyatimizda muhim voqeaga ega bo'lgan davlat va madaniyat arboblari bilan ham tanishamiz. Asarda har bir yil voqealari alohida beriladi. Bu kabi qimmatli ma'lumotlar



va keltirilgan mulohazalarning hammasi tarix uchun muhimdir. Demak bundan ko'rinib turibdiki, "Boburnoma" XV asrning so'nggi XVI asrning birinchi choragida mazkur uch mintaqada kechgan voqealarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar yuzasidan tadqiqot olib borgan M. Abdullayevaning ma'lumotiga ko'ra "Boburnoma" da hammasi bo'lib 1540 nafar kishi nomlari tilag olingan bo'lib, shundan 357 nafari Movarounnahrlik tarixiy shaxslarning nomlaridir. Qolgan qismi esa turli davrda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslar nomidir. Asarda Bobur tarixiy voqealarni bayon etish bilangina cheklanmaydi, balki voqealar sodir bo'layotgan sharoit manzarasini, tarixiy shaxslarning qiyofasi va xulqini, tabiat lavhalarini batafsil tasvirlaydi, turli sarguzashtlar, rivoyat va latifalarni jozibador badiiy uslubda hikoya qiladi, asarni she'riy parchalar, xalq maqollari va hikmatlari bilan orasta qiladi, anvoi badiiy usullar va til san'atidan foydalanadi. "Boburnoma" dan olingan "Alisher Navoiy ta'rifi" "Andijon tasviri", "Samarqand tasviri" bunga yorqin misol bo'la oladi. "Boburnoma" da bir necha yuzlab tarixiy masalalarga tavsif beriladi, ularning faoliyati, sarguzashtlari tasvirlanadi. Bular shohlar, hokimlar, amaldorlar, lashkarboshilar, din shariatlari arboblari, askarlar, olimlar, shoirlar, san'atkorlar, turli mehnatkash tabaqalarning vakillari va hokozolaridir. Bular jamiyatda tutgan o'rni, qarash va manfaatlari, siyosiy maslagi, xulq-atvori, hatti-harakati, turlicha odamlardir. Bobur voqealar ishtirokchilarini tasvirlayotganda mana shu jihatlarning hammasiga e'tibor beradi. Odamlarning takrorlanmas faqat ularning o'zigagina xos xususiyatlarini tanlab oladi, tarixiy haqiqatga to'la rioya qilgan holda qalam suradi, g'oyat ishonarli real qiyofalar yaratadi. Bobur tarixiy shaxslarga, hatto o'ziga dushman kishilarga ham beg'araz munosabatda bo'ladi, ular haqida xolis ma'lumot beradi, faoliyatlari va fel-atvoridagi kamchiliklarni halol ko'rsatadi. Muhimi shundaki, u tarixiy shaxslarga mamlakat taraqqiyoti, obodonchilik ishlarida, fan, adabiyot va san'atni yanada rivojlantirishda ko'rsatgan xizmatlariga qarab baho beradi. -

"Boburnoma" da ilm-fan, san'at, adabiyot ahli xususida keng fikr yuritilgan. Kitob muallifi Alisher Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn Muammoiy, Shayhimbek Suxayliy, Ahmad Hojibek, Begzod, Shoh Muzaffar, G'ulom Shodiy, Husayn Udiy kabi shoirlar san'atkorlar haqida ma'lumotlar beradi, asarlaridan namunalar keltiradi. Ularning hayoti, faoliyati, xulq-atvori haqida diqqatga molik tavsilotlarni hikoya qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurashid Abdug'afurov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, M., 1977; O'zbek adabiyoti tarixi, 3j., T., 1978;
3. Axmedov B., Istorikogeograficheskaya literatura Sredney Azii XVI—XVIII vv. (Pismennye pamyatniki), T., 1985. Boburnoma, T., 1960; Le Livre de Babur, Parij, 1985; Baburname, T., 1993.

ALISHER NAVOIYNING BIZGA QOLDIRGAN ADABIY MEROSLARI

*Muhriddin Oltiboyev Nazirali o'g'li*

*ISFT instituti (International school of finance and technology)*

*2-bosqich talabasi Pedagogika va psixologiya yo'nalishi*

**Annotatsiya:** Maqolada shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy hayoti va asarlari muhokama qilinadi. Bizgacha etib kelgan asarlari haqida.

**Kalit so'zlar:** Shoir, nazim, she'r, masjid, madras, din, mar'rifat, siyosat.

Kirish: Barcha oliyjanob ishlarimizda Navoiy g'oyalari, Navoiy ibrati, Navoiy ruhi bizga hamisha hamroh bo'lsin! Islom Karimov Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida marifatparvar, ma'naviyat va madaniyatning xaqiqiy namoyondasi sifatida ulug'langan buyuk shaxsdir. Yurtboshimiz ta'birlari bilan aytganda, «Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning usltomidir» Arab tarixchisi Al-Boboniyning «Xadiyat ul — orifin» asarida keltirishicha, Mir Alisher 844 h.y. 18 ramazon / 1441-yil 9-fevral kuni Amir Temurning o'g'li Shoxrux Mirzo shoxligi davrida Hirotda tavallud togan. U yoshligidan ilmga chanqoq, iste'dodli bo'lib voyaga yetdi. Arab, fors va turk tillarida ijod qilgan buyuk mutafakkir, adib va davlat arbobi sifatida tarix zarvarqlaridan joy oldi. Zamondoshlari u kishi haqida ko'pincha «Nizomuddin Mir Alisher» deb yozadilar. Din diyonat nizomi degan ma'noni anglatadigan «Nizomuddin» so'zi donishmand mansab egalariga beriladigan sifat «mir» esa amir demakdir. Uning otasi Amir G'iyosuddin Muhammad (uni G'iyosuddin Kichkina» ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Yana bir manbada qayd etilishicha, Alisherning onasi amirzoda Shayx Abu Said Changni qizi bo'lib bobosi Amir Temurning o'gli Umarshayx bilan emikdosh aka-uka bo'lgan ekan. Navoiy o'z asarlarida oilasining Umarshayx xonadoniga yaqinligidan faxrlanishini bayon qiladi. Alisher Navoiy saroy muhitida yashaganligi uchun ham alohida tarbiya va nazorat ostida kamol topadi. Kichkinalik chog'ida she'r va musiqaga qiziqadi. O'sha davrning olim va fozil kishilari davrasida bo'ladigan ilmiy suhbatlarda ko'p ishtirok etadi. U bo'lajak sulton Xusayn Boyqaro bilan birga ta'lim olib, yoshligidanoq uning qadr don do'stiga aylanib qoladi. Alisher Navoiy yirik madaniy markazlardan biri Samarqandga 1466–1468 — yillarda kelib, mashxur olim, faqih Fazlulloh Abullays madrasasida ta'lim oladi. Bu ta'lim dargohida diniy, tasavvufiy va turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. Samarqanddagi Shayxi Suxayliy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo'y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim kabi ko'plab taniqli shoirlar davrasida bo'lib ular bilan do'stlashadi.

Alisher Navoiy o'z hayotida ijodiy faoliyat bilan birga, davlat ishlarini olib borgan siyosiy arbobdir. U jamiyatda farovonlik va me'morchilikka juda katta e'tibor qaratib, davlat tomonidan 16 ko'prik, 20ga yaqin suv saqlash inshooti, 52 rabot va ko'pgina madrasa, masjid xonaqoh va hammomlar bino qurdirganligini tarixchi Xondamir o'z asarida keltirgan. Ularning orasida Hirotdagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoia» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dor ul- huffoz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi Mashhaddagi «Dor ul- huffoz» hayriya binosi va boshqa ko'pgina noyob me'morlik yodgorliklari bor. Alisher Navoiy xalqqa in'om va xayr- saxovat ko'rsatish maqsadida o'zining shaxsiy mulki xisobidan 4madrasa, 25dan ziyod masjid-xonaqoh va 50dan ziyod rabot va boshqa ko'pchilik foydalanadigan inshootlar bino qilgan. Alisher Navoiyning arab tilida ham qator salmoqli asarlar tasnif etganligi manbalarda bayon qilingan. Mumtoz arab tilining izohli lug'ati sifatida e'tirof etilgan va diniy tasavvufiy ruhda tuzilgan «Saba't ul- abhur» (« Yetti dengiz») nomli unga nisbat beriladigan asarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Ismoil Boshog' Bag'dodiy o'zining « Xadiyat ul- orifin fi asmo ul- muallifin va osor ul- musannifin» («Musanniflar asarlari va mualliflar ismlari haqidagi oriflar tuhfasini») kitobida Alisher Navoiyning barcha asarlarini birma bir ko'rsatib ularning qatorida «As-Sayf al-hodiy ala raqibat ul- munodiy» («Jamoani nazorat etishdagi o'tkir yo'l boshchilik») ham sanab o'tadi. XVII asrda yashab o'tgan tarixchi Hoji Halifaning «Kashf uz- zunun» kitobida ham bu asarning muallifi hazrat Navoiy ekanligi ko'rsatilgan. Hoji Halifa «Mu'in ul- muftiy» nomli manbada ham bu haqda ma'lumot berilganiga asoslanib «As — Sayf al — xodiy a'la raqibat ul —munodiy»ning haqiqatdan ham Alisher Navoiy ekanligini alohida takidlab o'tgan. Lekin hanuzgacha mazkur asarning mavjudligi va o'rganilganligi darajasi to'liq aniqlanmagan. Alisher Navoiy hadislarni nazmiy ifoda etishga bag'ishlab alohida «Arba'in» («Qirq hadis to'plami») nomli asar yozgan. O'rta asrlarda ijod qilgan ko'plab mutafakkirlarning ilmiy merosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning qirq hadisni jamlab ularga o'z tillarida nazmiy — nasriy sharxlar yozganligini ko'ramiz. Alisher Navoiy ham bu an'anani davom ettirib, «Arba'in»ni taklif etgan. Mazkur asarda Alisher Navoiy odob- axloq, haqiqiy diniy e'tiqod ilm, kasb — korga bo'lgan mehr muxabbat va odamiylik fazilatlariga ega bo'lgan komil insonni shakllantirishga xizmat qiluvchi qirq hadisning mazmunini nazmiy satrlarda ifoda etgan. Manbalarda keltirilishicha Alisher Navoiyni ushbu asarni yozishga undagan asosiy sabab payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning quyidagi so'zlari bo'lgan «Kimki mening hadislarimdan qirqtasini ummatlarimga yetkizish uchun yod olsa, qiyomat kuni men u kishini shafloatinga olaman.» Xazrat Navoiy bunga amaliy javob tariqasida qirq hadisni nazmiy bayon etgan. Quyida «Arba'in»dagi ba'zi hadislarni va ularning hazrat Navoiy ta'lifidagi nazmiy ifodasini keltiramiz. 1) «Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsani o'ziga birodariga ham ravo ko'rmaguncha mo'mini komil bo'la olmaydi» Mo'min ermasdur, ulki

imondin Ro'zg'orida yuz safo ko'rgay Toki qardoshig'a ravo ko'rmas Har nakim o'ziga ravo ko'rgay. 2) «Qo'lidan va tilidan o'zga musulmonlarga zarar yetmaydigan kishigina haqiqiy musulmondir» Kim musulmonlig' aylasa da'vo Chin ermas gar fido qilur jonlar Ul musulmon dururki, solimdur Tili-yu iligidin musulmonlar. 3) «Odamlarga rahmli bo'lmagan kishiga Allohning ham rahmi kelmaydi» Tengridin rahm agar tama' qilsang Avval o'lmoq keraksen elga rahim Har kishikim ulusqa rahm etmas Anga rahm aylamas rahimu karim 4) «Odamlarga foydasi ko'proq tegadigan kishi odamlarning eng yaxshirog'idur» Xalq aro yaxshiroq, deding kimdur? Eshitib, ayla shubha raf' andin Yaxshiroq bil oni ulus arokim Etsa ko'proq ulusqa naf' andin 5) «Ilinga baxillik qilinmaydi» Ey xirodmand olimeki, sanga Ilimdin ro'ziy ayladi sone' Kishi o'rgansa qilmag'il maxrum Yoki naf olsa bo'lmag'il mone' Xazrat Alisher Navoiy merosida ayniqsa uning «Arba'in» asarida komil insonga hos bo'lgan mehr-muhabbat, har-sahovat, himmat, muruvvat, sadoqat, vafodorlik, kamtarlik, odamiylik, oliyjanoblik, insonparvarlik, ilmga tashnalik, mo'min-musulmonlik kabi fazilatlar yorqin bayon qilingan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008. Mangulikka muxirlangan mutafakkir. –T.:
2. A.Navoiy nomli HMK Islom ensiklopediyasi. –T.: O'zME Alisher Navoiy. Arba'in. –T.: «Mehnat» Основные термины (генерируются автоматически): HMK. Ключевые слова DIN, Shoir, nazim, she'r, masjid, madras, mar'rifat, siyosat II
3. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. Toshkent, 1983. 5-bet.
4. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961.
5. Mallayev N. O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1971-yil. 3-son.
5. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2001. 2-son. 2-10 betlar.
6. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. Tosheknt, 2001. 2-son. 2-10 betlar.
7. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007. 10-bet.

## PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING UZVIY BOG'LIQLIGI

*Muhriddin Oltiboyev Nazirali o'g'li*

*ISFT instituti (International school of finance and technology)*

*2-bosqich talabasi Pedagogika va psixologiya yo'nalishi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Pedagogik psixologiya nima ekanligi, qaysi davrda tashkil topganligi, Pedagogika va psixologiyaning qay yo'sinda bog'liqligi va bu sohada olib borilayotgan ishlar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologik yo'nalishlar; ta'lim jarayoni; psixologik asoslar; Pedagogik bilimlar; Pedagogik psixologiya.

**KIRISH:** Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya 19-asrning 2yarmida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari Pedagogik psixologiya rivojiga katta hissa qo'shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham turtki berdi. Bixevioristik (qarang Bixeviorizm) psixologiya yo'nalishi tarbiyachi va o'quvchiga tashqi muhitning ta'sirini Pedagogik psixologiya uchun asos qilib oladi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uz-viy bog'liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lim psi-xologiyasi va tarbiya

psixologiyasiga bo'linadi. Ta'lim psixologiyasida o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakte-ri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos'tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rganiladi. Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imko-niyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir. Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi — maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv material mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.



## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim-tarbiyaning shaxsni kamol toptirish ishiga bog'liqligi milliy g'oyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi va uni ommaga yetkazuvchi kuchlarga bog'liqdir. Pedagogik - psixologiya fani ham jahon fani taraqqiyoti hamda va uning takomillashib borish jarayonini, fanga kirib kelishi kutilgan yangiliklarni yanada aks ettiradi, albatta. Bu asosiy vazifa sifatida ilk bor qonuniy asoslarga ega bo'lmoqda va pedagogik psixologiya fani oldiga muhim nazariy vazifalarni hal qilish qo'yilmoqda:

1) pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, faollashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqish;

2) ta'lim - tarbiya jarayonida turli yoshdagi bolalarning aql-idrokiga, irodasiga, uni shaxs sifatida shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

3) o'quvchilar shaxsni tarkib topishi jarayonini, bu jarayonning umumiy qonuniyatlarini va individual farqlarni, turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish;

4) ta'lim va tarbiya jarayoni bir-biriga bog'liqdir, bu jarayonda aqliy qobiliyatlarni, axloqiy sifatlarni, shaxsni hissiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning maksimal rivojlanishi shart-sharoitlarini aniqlash;

5) mustaqil bilim olish, materialni chuqur yoki yetkazishning psixologik masalalarini ishlab chiqish;

6) bilish faoliyatini o'zaro tashkil qila bilish shart-sharoitlarini aniqlash;

7) o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarni aniqlash;

8) o'qituvchi shaxsni va o'qituvchi shaxsini xususiyatlarini, milliy o'qituvchining sifatlarini aniqlash;

9) pedagogik bilimlar, ko'nikma va malaka, qobiliyatlarning tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlarini aniqlash;

10) o'z-o'zini tarbiyalash, milliy g'urur va vatanparvarlik jarayoni uning psixologik muammolarini nazariy jihatdan asoslab berishdan iboratdir;

11) shuningdek jahon tajribalari bilan birga, milliy xususiyatlarimiz, undagi eng ilg'or tomonlar, muhimi, pedagogik tarbiyalanuvchilar, o'quvchilar, talabalar bilan imkoni boricha ko'proq muloqotda bo'lish, o'quvchi shaxsining barcha xususiyatlarini hisobga olib, bilim va tarbiya berish, ya'ni yagona pedagogik jarayonni ta'minlash, masalalari ham nazarda tutiladi;

12) pedagogik psixologiyaning eng asosiy vazifalaridan biri o'zlashtirishning sifat darajasini aniqlash usullarini ishlab chiqishdan iborat. Pedagogik psixologiyaning amaliy vazifasi esa yoshlarni o'zlashtirishning psixologik shart-sharoitlari, tarbiyaning psixologik masalalari, bolaga ta'lim-tarbiyaberishda ularni yoshlik va individual xususiyatlarini hisobga olish, yoshlarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishi, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ilmiy tushunchalar hosil qilish, o'z ustida ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash, yosh o'qituvchilarni psixologik faoliyatga mehr-muhabbatini

shakllantirish psixologiya fanining yutuqlarini, psixologik bilimlarni keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilinishi, ota-onalar, tarbiyachi va o'qituv-chilarni bulardan bahramand qilishdan iboratdir. Amaliy vazifalar radio va tele ko'rsatuvlarda, jurnallarda, ma'ruza va maxsus ko'rsatuvlar orqali chiqish, mahalla, maktab va ota-onalar bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi. Biz shu narsaga erishishimiz kerakki, keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga doyr psixologik bilimlardan bahramand bo'lsin. Ana shundagina biz yoshlarga haqiqiy ta'lim-tarbiya bera olamiz va uni muvaffaqiyatli amalga oshiramiz.

Pedagogik psixologiya o'z predmetining mazmuniga qarab umumiy psixologiyada amal qiladigan ko'pgina metodlardan foydalanadi. Chunki zarur bo'lgan dalillarni qidirish, ularni sodir bo'lish sabablarini aniqlash va isbotlash turli xil metodlar vositasida bajariladi. Qaysi metoddan foydalanishdan qa'ti nazar, bu metodlar faqat xususiy ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki amaliy ta'lim-tarbiya maqsadlarida bolani chuqurroq o'rganishni tashkil qilish uchun muhimdir. Ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun pedagogik psixologiyada qo'llanadigan tadqiqot metodlari o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda maqsadga muvofiq va eng samarali metodlarni tanlashga asos bo'ladigan o'quvchilar shaxsining o'ziga xosligini yaxshi bilish lozim. Pedagogik psixologiyada qo'llanadigan metodlar ham psixologiya fanining tamoyillari va usullariga qo'yilgan talablarga rioya qilishi maqsadga muvofiqdir.

1. O'rganish lozim bo'lgan har bir jarayon, holat va xususiyatlarni bir-biriga bog'lab tekshirish lozim. Har bir o'rganiladigan psixik hodisalarni nevrofiziologik asoslardan yoki xotirani diqqatdan, idrokni tafakkurdan ajratib o'rganish yaramaydi.

2. Tekshirilayotgan psixik hodisalarni rivojlanish qonuniyatlarini bilmasdan turib uni har tomonlama o'rganish mumkin emas. Shuningdek, turli yoshsagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmasdan turib o'rganilayotgan yosh davrning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish va tavsifnoma berish mumkin emas.

### **XULOSA**

Tekshirish jarayonida kishining butun psixikasida, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy nigizi undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda o'rganiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixik hodisalarning miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlarga o'tishi va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o'tishini kuzatib borish lozim. Masalan: o'quvchi psixikasining taraqqiy etishini o'rganib «ko'rib, bilim olish, tajribalar to'plash jarayonida o'quvchining bilish qobiliyatini, pya'ni xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o'zgarishini bilib olsa bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. – T.: —A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2001.
3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. O'quv qo'll. – T.: O'qituvchi 1996.
4. Hoshimov K., C.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'll. I-jild. –T.: O'qituvchi, 2010.
5. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - T.: —Fan va texnologiyalarl nashriyoti, 2008.
6. Xasanboyev J., To,,raqulov X., Xaydarov M., Xasanboyeva O. Pedagogika fanidan izoxli lug'at. – T., 2008.
7. Egamberdiyeva N.M. —Ijtimoiy pedagogikal – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, A.Navoiy, 2009.
8. Mavlonova R. va boshqalar —Ijtimoiy pedagogikal – T.: Istiqlol, 2009.
9. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.

## MAKTAB YOSH DAVRIDA RUHIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

*Muhriddin Oltiboyev Nazirali o'g'li*

*ISFT instituti (International school of finance and technology)*

*2-bosqich talabasi Pedagogika va psixologiya yo'nalishi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab yosh davri psixologik, ruhiy faollik, psixik rivojlanish, kompleks, sotsiogenetika.

**Abstract:** This article describes the psychological problems of the formation of mental activity in school age.

**Keywords:** school age psychological, mental activity, mental development, complex, sociogenetics.

O'zbekiston Respublikasida 21- asrda ta'lim tarbiyani rivojlantirishda ulkan islohatlar olib borilmoqda, ta'limning xar bir bosqichida ta'lim oluvchilarning manfaatlari uchun ularning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida jadal rivojlanish bosqichlari shakllantirilmoqda. Yurtimiz kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlarni yuqori bilimli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga, har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida shakllantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunining 55- moddasida "Jismoniy, aqliy va ruhiy nuqsoni bo'lgan bolalarni maxsus maktablarda o'qitish to'g'risida qayd etilgan. Avallambor bolalarni xar tomonlama qo'llab quvvatlash ta'lim beruvchi va ota-onalarning muhim vazifasi hisoblanadi. Ruhiy faollik esa tashqi muhit tasirida ro'y beradi. Maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari bolaning o'nib o'sadigan oiladan boshlanadi [1-4]. Oiladagi sog'lom muhitning qanchalik darajada yuqori cho'qqida turishi bilan maktab yoshidagi bolalardagi ruhiy faollik alomatlari ijobiy jihatlari bilan namoyon etila boshlaydi, bunda ota-onaning aka-ukalarning, opa-singillarning bola rivojlanishidagi ta'sirlari bilan izohlanadi. Bolada ruhiy faollikni shakllantirish bosqichlari sekin astalik bilan etapma etap amalga oshiriladi. Har qanday bolaning ruhiy rivojlanishida uning psixologik muammoli vaziyatlari vujudga kelishi mumkin. Oilada ota-onaning farzandlariga, atrofdagilarga bo'lgan munosabatidan kichik yoshdagi bolalarda ruhiyatining rivojlanishi psixologik ta'sir kuchlarining ijobiy yoki salbiy tomonlarini ko'ris himiz mumkin bo'ladi. Maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishda bolani aqliy taffakurida kechadigan ruhiy kechinmalar psixologik jarayonlar muhim o'rin tutadi. Bu davrda bolalar tomonidan atrof olamga bo'lgan e'tibor jumboqli vaziyatlar va ushbu jumboqli vaziyatlarda bolaning ruhiyatiga

bo'ladigan ta'sirlarni to'g'ri yo'nalishga solish va ularning psixologik jihatdan qo'llab quvvatlash ota-ona yoki aka-opalari tomonidan to'g'ri tashkil etilishi kerak bo'ladi. Boladagi ruhiy faollik holatlari psixologik jihatdan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan oilada ota-ona, aka-opalarning yoki bo'lmasa oilaga qarindoshchiligi bo'lgan kimsalar tomonidan turli vaziyatlardagi (turmush tashvishlarda) uchraydigan vaziyatlar salbiy ta'sir qilishi mumkin [5-9]. Bunday holatlarda bolaning ruhiy rivojlanishiga va psixikasiga salbiy ta'sir qilmasligi uchun mavjud muammoli vaziyatlarni yosh bolalarning yonida yoki oldida gapirmaslik muhim sanaladi. Yosh bolaning ruhiy holatidagi o'zgarishlar uning kelajakda qanday xarakterdagi inson bo'lib rivojlanishida katta ta'sir kuchiga ega deb hisoblasak mubolag'a bo'lmaydi. Bolada jismoniy rivojlanish bilan birga shaxs xususiyatlari, intizom, javobgarlik, ma'suliyat va atrofdagilarga bo'lgan hurmat kabi tuyg'ular shakllana boshlaydi. 7-12 yoshli bolalarda tashabbus tuyg'usi ma'lum bir qandaydir ishlarni amalga oshirish atrofdagi o'zidan kattalarga nisbatan muloqat tuyg'usi, bolaning o'z xayolot dunyosi shakllanadi va shu bilan birga ruhiy psixologik jarayonlar kechadi. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va harakat usullarining o'zgarishi, murakablashishi sodir bo'lmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlar, ya'ni shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) bola shaxsini yo'naltirishdagi umumiy xususiyatlar (o'qish, anglash, atrofdagilar bilan munosabat), 2) faoliyatining psixologik tuzilishi xususiyatlari (motiv, maqsad, ob'ekt) va 3) anglash mexanizimining rivojlanish darajasi. Shunday qilib, bolaning butun rivojlanish jarayonini uch qismga bo'lish mumkin: 1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi, 2) egallangan usullarni tatbiq etish mexanizmlarining psixologik rivojlanishi, 3) shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi (yo'naltirilganlik, faoliyatning psixologik tuzilishi, anglash va fikrlash). Ko'rsatilgan rivojlanish yo'llarining har biri o'ziga xos. Bu yo'llarning barchasi o'zaro bog'liqlik va faqat birgalikdagina psixik rivojlanish deb ataluvchi shaxsdagi o'zgarishlar jarayonini tashkil etadi. Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir [10-15]. Xo'sh, odam psixikasi va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiati biologik yoki inqilobiy harakterga egami? Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan. Bola psixik xususiyatlarining tugma tabiati haqidagi ma'lumot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib



kelmoqda [16-19]. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyandalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari «ichki qonunlar» asosida, yani nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar. Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishga zarur deb ta'kidlashadi. Chunonchi, bu yo'nalish tarafdorlaridan, amerikalik psixolog E. Torndayk o'quvchilarning «tabiiyaviy kuchlari» va «tugma mayllar»<sup>1</sup> psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'siri - ikkinchi darajalidir deb aytadi.

Avstraliyalik psixolog K. Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotini emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi. Amerikalik pedagog va psixolog Dj. Dyui inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib, bazida o'zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi. Z. Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan boglaydi. Biroq instinktiv mayllar jamiyatda xuddi xayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni (ni, jinsiy mayllarni) juda ko'p jihatdan cheklab qo'yadi. Oqibatda odam o'zining ko'p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo'ladi. Uning ta'limotiga ko'ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo'kolib ketmaydi, balki bizga noma'lum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazilib yuboriladi [20-25]. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli «komplekstiv birlashadilar, go'yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi ayni shu «Komplekslar»ni namoyon bo'lishidir. Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan yana bir ta'limot- sosiogenetik konsepsiya qobiliyatlarning taraqqiyotini, faqat, tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'nalish o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan XVIII asr Fransuz olimi K. Gelvesiy ta'limotidan boshlangan. K. Gelvesiyning ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tutilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar, shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq, faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu

nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning tula xususiyatlari degan taglimotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyandalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar. Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan sosiogenetik konsepsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, XVII asrning ohiri va XUSH asrning "boshlarida tabiiy fanlar jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi, o'sha paytda hammaning diqqat-e'tibori mu'jizakor tajribaga qaratilgan edi. Bu xodisa inson shaxsining tarkib topishi masalasiga ham ta'sir kilmay qolmadi.,,Sosiogenetik konsepsiya namoyandalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan, shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi, asosan, tajribaga bog'liqdir. Bu nazariyada shaxsda ruy beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi; ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Bu ta'limotta ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. Chunonchi, angaliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top-toza paxtaga» uxshatadi. Uning fikricha, bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir [26-30]. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi. Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamdagi tugma, irsiy mexanizmlari uning psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab bera olmaydi, Ta'kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasivi rivojlantirishda muayyan rol o'ynaydi. Faqat, buning uchun bolani o'qitayotgan kishilarning ta'siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiydir. Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izoxlab beradi. Ulardan;

- birinchisi - inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri;
- ikkinchisi - odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim tarbiyaning ta'siri;
- uchinchisi - odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muxitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya'ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi, shakllanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfning, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi sifatida va nihoyat, Tashqil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi. Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy

harakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ruhiy faolligining rivojlaiish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlarini, harakteri, irodaviy sifatlarini, qiziqishlarini, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi. Muhit, ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya, azaldan berilgan, genetik jihatdan qat'iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi. Bu borada, birinchidan, odam muhit ta'siri ostidagi passiv obyekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir. Shu bois hayot sharoiti, tashqi ta'sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilanadi. Shu sababli muhitning ta'siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o'zaro ta'siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi pirovard natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta'sirotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qnyofasi orqali ta'sir qiladi. Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, bola shaxsi faol mavjudot sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin, lekin, bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi., Odamning (bolaning, o'quvchining) ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Люмос таджикотлари» франсия-1775 йил ( узбек тилидаги таржимаси ВАЛИДЖАН ХАТАМОВ). «Узбекистан миллий энциклопедияси»(зебунисо-конирил). ДАВЛАТ ИЛМИЙ НАШРИЁТИ ТОШКЕНТ.
2. Малика Егамбердиева ( ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИЯ) Тошкент-2019. По психология- 1994 ( россия федаратсияси).
3. Камарали С.Е. Sotsialg'no-psixologicheskie aspektq obo'eniya (teziq k dokladu). -Donetsk: DonNU, 2007.- 16 s.
4. Kamardina G.G. Psixologicheskie trudnosti obo'eniya: osnovq psixotexnologii: K 18. Ucheb. posobie. - Ulg'yanovsk, 2000.- 52 s.
5. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Mahruzalar matni. - Toshkent: FTDK, DITAF, 2000.- 171.
6. Khatamova, D. A. (2019). Sphere of reception of the term "artistic image". A young scientist. Kazan, 45, 283.

7. Khatamova, D. A. Historical and cultural background of typological study of Russian and Uzbek literature. *Journal of critical reviews/ISSN-2394-5125 VOL, 7, 130-138.*

8. Хатамова, Д., & Мохигул, А. (2021). Тил ва сузнинг фарқи. *Общество и инновации, 2(5/S), 246-249.*

9. Хатамова, Д. А., & Алтундаг, М. (2021). К вопросу о термине «художественный образ». *Интернет-пространство как вызов научному сообществу XXI века, (1), 43-46.*

10. Хатамова, Д. А. (2019). Сфера рецепции термина "художественный образ". *Молодой ученый, (45), 386-389.*

11. Хатамова, Д. А. (2016). К вопросу об идентификации некоторых литературоведческих категорий. *Молодой учёный, 7, 1185.*

12. Журчева, Т. В. (2011). Герой и среда в современной драматургии: от "Утиной охоты" до "Кислорода" и "Пластилина". In *Современная драматургия (конец XX-начало XXI вв.) в контексте театральных традиций и новаций (pp. 39-48).*

## PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLARIDAN FOYDALANISH

*Muhriddin Oltiboyev Nazirali o'g'li*

*ISFT instituti (International school of finance and technolgy)*

*2-bosqich talabasi Pedagogika va psixologiya yo'nalishi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogika fani va uning ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning turlari haqida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** pedagogika, ilmiy-tadqiqot metodlar, tadqiqot, jarayon, mazmun, shaxs.

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir. Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda: 1. Pedagogik kuzatish metodi. 2. Suhbat metodi. 3. Anketa metodi. 4. Intervyu metodi. 5. Talim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi. 6. Test metodi. 7. Pedagogik tahlil metodi. 8. Bolalar ijodini o'rganish metodi. 9. Pedagogik tajriba metodi. 10. Matematik-statistik metod Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muarnmo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi: 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik; 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;



3)kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish; 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish; 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik. Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir. Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi: 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar); 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo turdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar) Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi. Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadriar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jumallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq inebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar. Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu

metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejallishi bilan tavsiflanadi. Biroq metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlaridan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas. Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi. Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik tadqiqot metodlari o'qituvchining pedagogik faoliyatini oshirishga qaratilgan tadqiqot vazifalarining aniqligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish kabi xususiyatlarini yaxshilab, uning darajasini oshiradi.

## **REFERENCES**

1. X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T."Sano standart" nashriyoti. 2017.
2. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
3. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
4. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).
5. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6), 616-619.

O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK MUOMOSI VA UNI BARTARAF ETISH

*Raxmonov Asadbek, Meliyeva Nargiza,  
Jurayev Samandar.*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Tel; +998976711022*

*+998905222406*

**Annotatsiya;** O'zbekistonda ishsizlik muomosini vujudga kelishi. O'zbekistonda necha foiz odam ishsiz. Ishsizlikni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlar. Bandlikka ko'maklashuvchi tashkilotlar aholini to'liq qoplay olyaptimi.

**Kalit so'zlar;** Ishsizlik, ishchi kuchi, talab, taklif, friksion, foiz, bandlik, savdo - sanoat, bozor.

Ishsizlik bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaldagi iqtisodiy hayotda Ishsizlik ish kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika rivojlanish bilan mehnat unumdorligi ortadi, ishchi kuchi kam mehnat talab bo'lib qoladi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ish kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi; iqtisodiyot rivojlanishi bilann malakali ish kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo'lmay qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez o'sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bulib, ishsiz qoladi.

Ishsizlik sababi har xil bo'lganidek uning shakllari ham turlicha. Ishsizlik ning asosiy shakllari: friksion Ishsizlik — turli sabablarga ko'ra (yangi yashash joyiga o'tish, kasbni o'zgartirish, bola boqish, yangi ish tanlash) vaqt-vaqti bilan ishsiz qolish. Bu ixtiyoriy ishsizlik hisoblanadi. Tarkibiy Ishsizlik — ishlab chiqarish tuzilmasi o'zgartirilgan sharoitda eski tarmoqlarda ishlab kelgan kishilarning yangi tarmoqlarga kerak kasbni hali o'zlashtirmagan kezlarda yuz beradi. Siklli Ishsizlik — iqtisodiy tangliklar bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarishning pasayib ketishi natijasida yuzaga keladigan Ishsizlik Bu majburan ishsiz qolishdir. Mavsumiy Ishsizlik — mavsumiy ishda band bo'lganlarning mavsum tugagach, ishsiz qolishi. Yashirin Ishsizlik — rasman ish bilan band bo'lganlarning faqat qisman ishlashi. Unga qisqartirilgan ish

kuni yoki ish haftasiga o'tganlar, ish yo'qligidan haqberilmaydigan ta'tilga chiqqanlar kiradi.

O'zbekistonda Ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi (1998-yil 1 mayda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi). O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillarda yuzaga kelgan ishsizlik davriy korinishga ega bo'lib, bu holat mamlakatda iqtisodiy tizimning o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq tarzda ro'y bergan. O'sha yillarda iqtisodiy davrning pasayish fazasi kuzatilib, ko'plab sanoat va ishlab chiqarish korxonalari to'xtab qoldi yoki tolimsiz quvvatda faoliyat yuritdi. Mazkur holatning bosh sababi, sobiq Ittifoq davrida mamlakat korxonalarining boshqa respublika korxonalari bilan chambarchas bogliqlikda faoliyat yuritgani hisoblanadi. O'sha davrlarda O'zbekiston sobiq Ittifoqning xom ashyo etkazib beruvchi asosiy bazasi hisoblanib, ittifoqdosh respublikalardagi zavod-fabrikalarni xom ashyo resurslari bilan taminlab turgan. Shu bilan birga respublikaning tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan shugullanadigan zavod-fabrikalari ehtiyot qism, butlovchi materiallar, xom ashyo hamda yarim tayyor mahsulotlarni ozga ittifoqdosh respublikalardan olib kelgan. Yoki O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning buyurtmachi va istemolchilari ittifoqning boshqa davlatlari hisoblangan. Qisqacha aytganda, mamlakatimizdagi deyarli barcha ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy jihatdan qaram hisoblangan, yani taminot, resurs, rejalashtirish, olib kelish, etkazib berish, sotish, buyurtma berish va istemol kabi masalalarni mustaqil hal qila olmagan.

Mamlakatimizda 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ishsizlik darajasi 13,2 foizni tashkil etdi. Joriy yilning iyun oyida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi tomonidan Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan metodika bo'yicha respublikaning 101 ta shahar va tumanlarida navbatdagi ijtimoiy so'rov o'tkazildi. Unda 490 ta fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari, 4,9 mingta uy xo'jaliklari hamda 25,9 ming nafar fuqaro qamrab olindi. SOVID-19 pandemiyasi davrida koronavirus infeksiyasi tarqalishini oldini olishga qaratilgan karantin chora-tadbirlari mehnat bozoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari respublikada ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholining 13,2 foiz tashkil etganligini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davrida 9,1 foizga teng bo'lgan. Ishga muhtoj bo'lganlarning umumiy soni 1 944,0 ming kishini tashkil etadi (16-30 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida ishsizlik darajasi- 20,1 foiz, ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi esa - 17,4 foiz). Mehnat resurslari soni 19 084,6 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 0,6 foizga ko'paygan bo'lsa COVID-19 pandemiyasiyaning iqtisodiyot subyektlari faoliyatiga salbiy ta'siri natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni o'tgan yilning shu davriga

nisbatan 5 foizga yoki 671 ming kishiga kamayib, 12 736,7 ming kishini tashkil qildi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining rasmiy sektorda band bo'lgan aholi soni 5 581,2 kishini tashkil qilib, o'tgan yil shu davrga nisbatan 0,2 foizga yoki 12,4 ming kishiga kamaydi. Xususan, 501,1 ming nafari doimiy ish o'rinlariga ishga joylaytirish va haq jamoat ishlariga jalb qilish orqali bandligi ta'minlandi, 15,0 ming nafar ishsizlar kasb-hunarga o'qitildi, 27,0 ming nafar ishsiz shaxslarga Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan 10,1 mlrd so'm ishsizlik nafaqasi to'lab berildi. Shuningdek, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan ajratiladigan subsidiyalar hisobiga 24,8 ming nafar fuqaro shaxsiy tomorqalarida, 15 ming nafar fuqaro qishloq xo'jaligi, tikuvchilik va hunarmandchilik kooperativlarida a'zo sifatida birlashtirib, band qilindi, 3 ming nafar fuqaro tadbirkorlikka jalb etildi, 256 ta ish beruvchiga mehnat organlari yo'llanmasi bilan ishga olingan 2,3 ming nafar ishsizlarning kasbiy malakasini oshirganligi va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ishga olganligi uchun moddiy ko'mak ajratildi.

Joriy yilning 22 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan videokonferensiya yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning ijrosi haqida"gi axboroti eshitildi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining mas'ul rahbar xodimlari, deputatlar hamda OAV vakillari ishtirokida o'tkazilgan mazkur tadbirda samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish – Barqaror rivojlanish maqsadlarining 8-maqsadiga erishish yo'lida qilingan ishlar, jumladan mehnat bozorida faol va sust chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususiy mulkni muhofaza qilish, kichik va yirik biznesni hamda xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va tezkor rivojlantirishdagi to'siqlarni bartaraf etish orqali aholini, ayniqsa, yoshlar, nogironlarni munosib ish bilan ta'minlash va samarali bandlikni kengaytirish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlarga alohida ahamiyat berildi. Axborotda 2019 yilda O'zbekistonning ish bilan band bo'lgan aholisining o'rtacha yillik soni 13,5 million kishini tashkil etib, ish bilan ta'minlanganlar soni har yili o'rtacha 300 ming kishiga ko'paygan, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi 71,2 foizni tashkil qilishi, shuningdek, ish o'rinlarining to'rt dan uch qismi yuridik shaxsni tashkil etmasdan faoliyatni amalga oshiruvchi, ro'yxatdan o'tgan kichik biznes, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik hisobiga yaratilganligi aytilgan. Respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha Dastur vazifalarini bajarish uchun 2030 yilga kelib ish bilan band bo'lganlar sonini 16,7 million kishiga yetkazish, bunda ish bilan band aholining o'rtacha yillik o'sishi 1,6 foizni yoki 245 ming kishini tashkil etishi kutilayotganligi, 2030 yilgacha barcha xotin-qizlar va erkaklarni, shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni barqaror va samarali bandlik hamda munosib ish bilan, shuningdek, teng qiymatli mehnat uchun teng ish haqi to'lanishini ta'minlash yo'nalishidagi (8



maqsaddagi 5-vazifa bo'yicha) asosiy muammolaridan biri bu norasmiy bandlik hisoblanib, bugungi kunda noqishloq xo'jaligi sektorlarida norasmiy bandlik ulushi 54,3 foizni tashkil etmoqda. Norasmiy bandlik ulushi erkaklar va ayollarga nisbatan bo'lib, erkaklarning 22,1 foizi norasmiy ish bilan band bo'lsa, ayollarda bu ko'rsatkich atigi 12,5 foizni tashkil qilishi ta'kidlandi. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi deb yuritiladi) uchun 2020 yilda Respublika byudjetiga qo'shimcha tushumlar hisobiga 150 milliard so'm ajratiladi, 2021 yildan boshlab esa byudjet parametrlarida 300 milliard so'mdan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha mablag'lar ajratish nazarda tutiladi; Ishsizlik darajasi mamlakat iqtisodiyotining qay darajada taraqqiy etganligining hamda iqtisodiyotda sodir bolayotgan ozgarishlarning muhim korsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik darajasi deganda ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholi tarkibidagi salmogi tushuniladi.

Respublikada ishsizlik darajasini bandlik xizmatlarida royxatdan otgan ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholi umumiy soniga nisbatan olib hisoblash mumkin. Ishsizlik darajasiga bir qancha omillar tasir krsatadi: mehnat haqining pastligi, mehnat sharoitlari yaxshi emasligi, ish haqining vaqtda berilmasligi, ish joylarini qisqartirishlar va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari barqarorlashayotgan davrda ishsizlikning bolishi tabiiy holatdir. Chunki ishchi kuchiga bolgan talabning taklifiga mos kelishi oqilona bandlikni shakllantirib, jamiyat uchun tabiiy bolgan ishsizlik darajasini tarkib toptiradi. Ish bilan band bolmagan shaxslarni yangi kasblarga orgatish, malakasini oshirish, moddiy yordam berish va ish joylarini tavsiya etish mehnat birjasi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlarning eng muhimi hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar royxati:**

1. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "Ozbekiston 2009 y.
2. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bolib otgan qoshma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir» hamda 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda Ozbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yonalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 yanvarda bolib otgan majlisidagi «2012yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga kotaradigan yil boladi» nomli maruza. T, Ozbekiston 2012 y
3. Kun.uz
4. Xalq so'zi.uz
5. daryo.uz
6. Arxiv.uz

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИРОНИИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ

*Биналиева Зухра Рустамовна*

*Самаркандский государственный университет*

*факультет русская филология 201 группа магистрант*

**Аннотация:** В статье анализируются современные взгляды на соотношение стилистического и концептуального типов иронии в художественных системах писателей, выделяются основные свойства и признаки концептуальной иронии, а также показывается соотношение двух типов иронии с разными средствами их реализации – языковыми и экстралингвистическими.

**Ключевые слова:** стилистическая ирония, концептуальная ирония, мировоззрение и эстетика авторов, языковые и экстралингвистические формы реализации иронии.

### ВВЕДЕНИЕ

Есть основания считать, что ирония играет исключительно важную роль в эстетической и литературно-художественной системах произведения; в художественных текстах она относится к элементам, обладающим особым весом. Ирония, которая всегда является средством реализации субъективно-оценочной модальности, представляет собой художественную форму авторской оценочной позиции.

### МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Роли иронии, её месту в ткани художественного произведения посвящено много работ как чисто литературоведческого, так и литературоведческо-лингвистического плана (Myers, 1977; Simpson, 1979; Tanaka, 1973; Tener, 1979; Thompson, 1948 и др.). Ряд исследователей подчеркивают все возрастающую роль и значение иронии в современной художественной литературе, особенно англоязычной. Как утверждает Ч. Гликсберг, сейчас можно говорить о наличии особого иронического видения мира, свойственного современной литературе. Д. Мюкке обосновывает возникновение этого особого способа видения мира ходом развития европейской мысли, особенно возрастающим значением в ней скептицизма, релятивизма, либерализма и позитивизма. Таким образом, в литературном произведении ирония может иметь более широкий и значительный смысл – она придает художественному произведению особую окраску, своеобразно раскрывает неудовлетворенность автора окружающим миром. В этом случае ирония уже не просто оборот речи, а художественный принцип, из которого исходит писатель при изображении жизни

## РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

То, что любое высказывание может быть правильно интерпретировано лишь в целостном контексте, не вызывает сомнений. Б. А. Ларин рассматривал связь слова с художественным целым как основное свойство эстетического использования слова: «Ни на минуту нельзя упускать из виду эстетический объект, то есть помимо реального и логического содержания речи – весь ее психический эффект и главным образом именно обертоны смысла».

Приведем мнение Х. Вайнриха, которое, хоть и высказано относительно лингвистического анализа вообще, представляется особо применимым к анализу иронии: «При лингвистическом рассмотрении очень важно связать явление с контекстом, либо ситуационным, либо языковым, либо метаязыковым. Изоляция представляет собой пограничный случай». Что касается иронического смысла, то его воплощение неразрывно связано со способностью языковых единиц обретать в процессе реализации коннотативные и ассоциативные значения. А на уровне высказывания к формированию иронического смысла присоединяется еще один важный фактор, хорошо сформулированный Г. В. Колшанским: «Любое высказывание имеет содержание, отражающее какие-либо фрагменты действительности. Это, так сказать, субстанциональный (онтологический) смысл высказывания. Однако высказывание всегда помещается в рамки какого-либо коммуникативного акта, где субстанциональный смысл высказывания вступает в определенные отношения со смыслами окружающих высказываний и получает свою реляционную характеристику. Любое высказывание обращено как бы в две стороны: к отображаемым фактам и к смыслам других высказываний».

Второй аспект формирования иронического смысла, находясь в тесной связи с первым, касается коммуникативной направленности высказывания. Зависимость структуры высказывания, места в ней той или иной языковой единицы от цели коммуникации на данной стадии исследования представляется несомненной. Письменный текст всегда прагматичен, хотя не всегда прямолинейно и непосредственно раскрывает свою целенаправленность. Ирония же в тексте чаще всего планируется автором, актуализируется в соответствии с заранее обдуманым планом, поэтому и выявляет тесную зависимость от способа организации текста: «...ирония руководствуется общей темой, развивая каждый отдельный её момент». Поскольку коммуникация не существует вне контекста, логичен вывод Г. В. Колшанского о том, что «контекст предопределяет вместе со смысловой установкой, или, другими словами, коммуникативным заданием, всю смысловую структуру высказывания». Таким образом, реализация иронического смысла происходит по следующей схеме: интенция автора (замысел создания иронического текста) – конструирование определенного контекста в соответствии с объективными нормами,

действующими на уровне сознания и на уровне языка, – текст (от предложения и выше), компонентом смысловой структуры которого является ирония. Здесь следует подчеркнуть, что при создании иронического текста речь идет не о случайном внесении контекстом дополнительного (в данном случае переносного) значения лексической единицы, а именно о соответствующем конструировании контекста, которое состоит в сознательном выборе тех значений языковых единиц и такой их комбинации, которые воплощали бы иронический смысл, тем самым отражая определенный аспект действительности и его восприятие автором. В. В. Виноградов справедливо заметил: «Состав речевых средств в структуре литературного произведения органически связан с его “содержанием” и зависит от характера отношения к нему со стороны автора». В этом случае соответствующим образом организованный контекст вместе с коммуникативным заданием определяет ироническую смысловую структуру текста.

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Таким образом, стала очевидной необходимость разграничения двух понятий: иронии как средства техники, стилистического приема, и иронии как результата – иронического смысла, созданного рядом разноуровневых средств языка, взаимодействие которых обеспечивает содержательное единство текста. «Признание существования в тексте двух типов иронии делает возможным более глубокий уровень анализа текстового материала, так как по мере усложнения плана выражения смысловые оттенки становятся разнообразнее, а их понимание обеспечивается неперменным наличием контекстов большого масштаба. Это скрытый тип иронии, для которого характерно градуальное приращение имплицитной информации.

### **ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Вайнрих Х. Текстовая функция французского арти-кля // Новое в зарубежной лингвистике. М., 2018. Вып. 8. С. 375.
2. Колшанский Г. Контекстная семантика. М., 2010. С. 115.
3. Turner G. Stylistics. Harmondsworth, 2015. P. 146.
4. Колшанский Г. Указ. соч. С. 115.
5. Виноградов В. О теории художественной речи. М., 2011. С. 203.
6. Походня С. Языковые средства и виды реализации иронии. Киев, 1989. С. 97.

**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
<b>1</b>	КИБЕРТЕРРОРИЗМ – ОПАСНАЯ ФОРМА ТЕРРОРИЗМА	<b>3</b>
<b>2</b>	COVID-19 ВИРУСУ ТАРҚАЛГАН ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ АМАЛИЁТИДА БЕМОРЛАРДАН АЖРАЛГАН СЎЛАКНИНГ ТАЪСИРИ	<b>9</b>
<b>3</b>	ТУРЛИ МАТЕРИАЛЛАРДАН ТАЙЁРЛАНГАН ОЛИНМАЙДИГАН КЎПРИКСИМОН ТИШ ПРОТЕЗЛАРИНИНГ ОҒИЗ БЎШЛИҒИ ҲОЛАТИГА ТАЪСИРИ	<b>14</b>
<b>4</b>	ВЛИЯНИЕ СИСТЕМНОГО ОСТЕОПОРОЗА НА СОСТОЯНИЕ ЗУБОЧЕЛЮСТНОЙ СИСТЕМЫ	<b>21</b>
<b>5</b>	"BAUROG‘IM FAXRIM MENING"	<b>28</b>
<b>6</b>	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИРОНИИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ	<b>32</b>
<b>7</b>	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИРОНИИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ	<b>36</b>
<b>8</b>	ТЕМА ЛЮБВИ В ПРОЗЕ БУНИНА	<b>40</b>
<b>9</b>	ТЕМА СКОРБЯЩЕЙ МАТЕРИ В ПОЭМЕ "РЕКВИЕМ" А.АХМАТОВОЙ	<b>43</b>
<b>10</b>	AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MHXS JORIY ETISH ZARURLIGI	<b>46</b>
<b>11</b>	OSHQOZONNING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI. NORMADA VA PATOLOGIYADA OSHQOZON SHIRASINING TARKIBI	<b>50</b>
<b>12</b>	ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI BO‘YICHA MILLIY O‘QUV DASTURINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	<b>56</b>
<b>13</b>	САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙНИНГ «ШАРҲУ-Л-МИФТАҲ» АСАРИДАГИ БАЛОҒАТГА ДОИР ИЛМИЙ ҚАРАШЛАР	<b>60</b>
<b>14</b>	HADISLAR VOSITASIDA O‘QUVCHI-YOSHLARDA ILM OLISHGA BO‘LGAN ISHTIYOQLARINI YANADA RIVOJLANTRISH	<b>68</b>
<b>15</b>	PISA TADQIQOTI DOIRASIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FAOLLIGINI O‘STIRISHNING AHAMIYATI	<b>71</b>
<b>16</b>	XALQARO EKOLOGIYA HUQUQIDA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISHDAGI MUAMMOLAR	<b>74</b>
<b>17</b>	XALQARO EKOLOGIK TASHKIOTLARNING TOMONIDAN BUGUNGI KUNDA E‘TIBOR QARATILISHI KERAK BO‘LGAN EKOLOGIK MUAMMOLAR	<b>81</b>
<b>18</b>	ENGLISH LANGUAGE FOR KIDS	<b>92</b>
<b>19</b>	OZON QATLAMINI YEMIRILISHINING EKOLOGIK XAVFLARI VA UNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI	<b>94</b>
<b>20</b>	INFORMATIKA INSON TARAQQIYOTINING ASOSIDIR	<b>98</b>
<b>21</b>	«KIMYONI O‘QITISHDA AKTDAN FOYDALANISH»	<b>101</b>



22	ТУТ ИПАК ҚУРТИ ВА ЭМАН ИПАК ҚУРТИДАН БАЛИҚЧИЛИКДА ТИРИК ЕМ СИФАТИДА ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТИ ТЎҒРИСИДА	106
23	YOSHLARDA AXBOROT HAMDA MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH	111
24	CHO'LLANISHGA QARSHI MARKAZIY OSIYO	116
25	CHO'LLANISHGA QARSHI MARKAZIY OSIYO	123
26	ЛЕЧЕНИЕ Т-АКТИВИНОМ ЯГНЯТ КАРАКУЛЬСКОЙ ПОРОДЫ, БОЛЬНЫХ ПНЕВМОНИЕЙ	130
27	К ВОПРОСУ ПАТОМОРФОЛОГИИ ПНЕВМОНИИ КАРАКУЛЬСКИЙ ЯГНЯТ	139
28	ПАТОМОРФОЛОГИЯ ПНЕВМОНИЙ У ЯГНЯТ КАРАКУЛЬСКОЙ ПОРОДЫ	146
29	INSPECTION OF MEAT PRODUCTS AND IMPROVEMENT OF CONTROL AT THE SLAUGHTERHOUSE	155
30	ABDULLA O'RIPOV IJODI NAMUNALARI	163
31	YOSHLAR ONGIDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLARNING DAVRLARI	168
32	“BOBURNOMA” ASARINING TARBIYAVIY TARIXIY VA ILMIY AHAMIYATI	174
33	ALISHER NAVOIYNING BIZGA QOLDIRGAN ADABIY MEROSLARI	180
34	PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING UZVIY BOG'LIQLIGI	183
35	MAKTAB YOSH DAVRIDA RUHIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	187
36	PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLARIDAN FOYDALANISH	193
37	O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK MUOMOSI VA UNI BARTARAF ETISH	196
38	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИРОНИИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ	200



**JOURNAL OF  
NEW CENTRY  
INNOVATIONS**

**IN ALL AREAS**

